ISNN 3030-3907

2026/4
VOLUME 5

DEVELOPMENT OF SCIENCE

ILMIY JURNAL



Development of science

Ilmiy jurnal

2026/4 VOLUME 5

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Асадова Раъно Дилмуратовна
Тошкент Давлат техника университети доценти

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

MUNDARIJA

1	Tibbiyot ta’limida axborot texnologiyalari: kelajak shifokorlar faoliyatiga ahamiyati *Urishev Baxtiyor Abdusamatovich*	9
2	Po‘latlardan quyma mahsulotlar olishda qotishma tarkibida xosil bo‘ladigan nometall qo‘shimchalarga mineral flyus tarkibining ta’siri *Nozimjon Xolmirzayev* *Nodir Turaxodjayev* *Jamshid Sharipov* *Abdujalol Bektemirov* *Nuriddin Yusupov* *Zokirjon Nurdinov* *Nilufar Zufarova*	14
3	Neft sanoati chiqindilari asosida kompozit sorbentlar olish texnologiyasi va adsorbsion xossalari *Turdiyev J.Q.* *Panjiyev U.R.* *Quyboqarov O.E.*	26
4	Polifunksional katalizatorda metanoldan yengil olifen uglevodorodlarning katalitik sintezi *Sattorov I.Q.* *Raxmatullayev N.F.* *Quyboqarov O.E.* *I.N.Xolturayeva*	35
5	Neft sanoati chiqindilari asosida sorbentlar yaratishning istiqbollari va dolzarb ilmiy muammolari *Turdiyev J.Q.* *Panjiyev U.R.* *Quyboqarov O.E.*	43
6	Javdar xamirini tayyorlash discret usulidan foydalanish *Ismatilloyeva Gulasal Rahmat qizi*	52
7	Sun’iy intellekt asosida elektron hukumat tizimlarida shubhali login urinishlarini aniqlash algoritmlari *Uralova Iroda Abduvali qizi* *Karimova Gavhar Samandar qizi*	58
8	Descriptor as a framework for defining language skill development across proficiency levels *Negova Feruza Sharifovna* *Burxonova Aziza Ikhtiyorovna*	69
9	Dıffuzıya hodısasını molekulyar-kınetık nazarıya asosıda tushuntırısh *Razzokova Moxinur Baxodir qizi* *Boboqulova Dilshoda Xamza qizi*	75
10	Harorat va ıssıqlık tushunchalarını farqlash muammosı *Razzokova Moxinur Baxodir qizi* *Muxiddinova Shafoat Sobir qizi*	80
11	O‘zbekiston pochtasi tizimida aqlli pochta qutilari tarmog‘ini tashkil etish va rivojlantirish *Xudoyberdiyev Rahmatillo Fozilliddinovich* *Yuldasheva Charosxon Jasur qizi* *Samadov Jahongir Bahodir o‘g‘li* *Amonqulova Mahliyo Murodullo qizi*	85
12	O‘zbekiston pochtasi tizimida aqlli pochta qutilari uchun mobil ilovani ishlab chiqish va joriy etish *Xudoyberdiyev Rahmatillo Fozilliddinovich* *Yuldasheva Charosxon Jasur qizi* *Samadov Jahongir Bahodir o‘g‘li* *Amonqulova Mahliyo Murodullo qizi*	97
13	Raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron hukumat tizimining rivojlanish tendensiyalari *Xudoyberdiyev Rahmatillo Fozilliddinovich* *Samadov Jahongir Bahodir o‘g‘li*	109

ISSN 3030-3907

	Yuldasheva Charosxon Jasur qizi *Amonqulova Mahliyo Murodullo qizi*	
14	Gibrid energiya tizimini modellashtirish va boshqaruv algoritmlari tahlili *Abdullayev Husniddin Husen o'g'li* *Abdullayev Shavkiddin Ubaydullayevich* *Nasullayev Rahmatjon Rafiq o'g'li*	121
15	Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda ta'lim dasturlarining ta'siri: o'zbekiston tajribasi. *Diyarova Shaxloxon Rovshan qizi*	129
16	Idiomalarning korpus lingvistikasidagi o'rni *Rajabov Shohrux Shavkat o'g'li* *D.Ergasheva*	137
17	Marganesli po'latlarning mexanik xossalarini oshirish usullarining tahlili *Jo'raboyev Davronbek Odiljon o'g'li* *Yusupov Nuriddin Akmaljon o'g'li* *Tulyaganova Vasila Sunnatillayevna* *Bektemirov Abdujalol Do'smuxammad o'g'li*	147
18	Irrigatsiya kanallari o'zanida yuzaga keladigan deformatsion jarayonlarga ta'sir etuvchi omillar. *Safarova Muxlisa Akbar qizi* *Yuldosheva Umida Temurovna* *Urisheva Dilafruz Boboraimovna* *Raimova Nodira Jura qizi*	161
19	Mahalliy sholi navlarining sifatini o'rganish hamda undan olingan parhezbop unning reologik xossalarini tadqiq qilish *Shadiyeva Muxiba SHuxrat qizi* *Ergasheva Xusnirabo Bobonazarovna*	167
20	Production of artificial protein nutrients and future perspectives *Uktamova Muslima Ibrokhim qizi* *Ergasheva Nurgul Alisher qizi* *Dilafruz Akhmedzhanova Mansurova*	175
21	Sintetik gtl va gazoyl yoqilg`ilarining tor fraksiyalangan uglevodorod komponentlarini kompaundlash asosida quyi haroratli xossalari yaxshilangan dizel yoqilg'ilarini olish *Ro`ziyev Aliakbar To`raqulovich* *Hayitov Ruslan Rustamjonovich* *Mavlonov Shohrux Boboxon o`g`li*	181
22	Guk qonuni va uning amaliy qo'llanilishi *Nasritdinova Mashhura Ziyodillo qizi*	192
23	Lms tizimlarida talabalar faoliyati ma'lumotlari asosida o'quv jarayonining didaktik samaradorligini baholash *Murodova Guli Bo'ronovna*	199
24	Fransuz tilidagi defektiv (nuqsonli) fe'llar: funksional va semantik xususiyatlari *Anorboyev Mamayusuf O'rol o'g'li* *Jo'raqobilova Xamida*	212
25	Расширение ассортимента маргариновой продукции на основе лекарственных растительных масел *С.Ж.Комилова* *Н.Н.Сабирова*	222
26	Математическое моделирование влияния молибдена на твёрдость чугунных сплавов *Абдуллаев Фаррухжон Комилжон ўғли*	229
27	Shahar infratuzilmasini boshqarishda aqilli monitoring tizimlarining o`quv jarayonidagi axborot kompitentligi *Yo'ldoshev Shuxrat Savriyevich* *Aslonova Gulhayo Jo'raboy qizi*	238

ISSN 3030-3907

28	Markaziy qizilqum fosforitlaridan olingan ekstraksion fosfor kislotasining strukturaviy tuzulishi va xossalarini kompleks tahlil qilish *Shermatova D.N.* *Nurmurodov T.I.* *Axtamova M.Z.* *Raxmonova K.S.*	246
29	Tara kampbell mitti hikoyalarining zamonaviy kitobxonlarga ta'sir doirasi *Xajiyeva Feruza Melsovna* *Sharipova Parvina Shuxrat qizi*	254
30	Оптоэлектронные методы контроля физико-химических параметров нефтесодержащих сред на основе эффектов нпво и мнпво *Х.У.Панжиев*	263
31	Korporativ tarmoqlarda phishing hujumlarni aniqlashda url tahliliga asoslangan yondashuvlarning samaradorligi *Ganiyev Abduxalil Abdujalilovich* *Jalolov Mirzolim Saloxiddin o'g'li*	268
32	Dasturlash tillarini o'rganishda sun'iy intellektdan foydalanishning afzalliklari *Ulasheva Shaxlo Tagayevna* *G'aniyeva Inobat Xolboy qizi* *Qahhorova Nilufar Qodir qizi* *Aslidinova O'g'iloy Abbosjon qizi*	279
33	Toshkent havosining pm2.5 va pm10 zarrachalari bilan ifloslanishi: dinamik tahlil *Uzakov Zafar Zoirovich* *Rahmatova Guliza Rahmat qizi* *Baxriddinova Ruxshona Shavkat qizi*	286
34	Tish g'ildiraklarini termik ishlov berishda energiya tejamkor texnologiyalarni ishlab chiqish *Norkhudjaev F. R* *Ashirov A. A*	293
35	Optimization of technological parameters for the electrostatic coating formation process *Tanjarov F.U.* *Nurullaev R.T.*	300
36	Sug'oriladigan tuproqlarda sho'rlanish jarayonini (ekologik baholash mirishkor tumani misolida) *Choriyeva Charos G'aybulla qizi* *Doniyorova Madinabunu Quvondiq qizi*	306
37	O-aminobenzoy kislota asosida diazobirikmalar sintezi *Mardiyeva Nafosat* *Sunnatillo Salimov* *Yodgorov Chinmurot* *Xoliqov Tursunali*	314
38	Differential relationships between deformations and stresses in elastic materials *Nasritdinova Mashhura Ziyodillo qizi*	321
39	Methylation reactions of 6-benzylaminopurine under various conditions *Gulbaxar Baymuratova* *Zulfiya Mukhitova* *Zoid Mirvaliyev* *Foziljon Saitkulov*	328
40	Agaricus bernardii qo'ziqorini tarkibidagi ikkilamchi metobolitlarning mass-xromotografik tahlili *Meyliyeva M.T* *Kamolov L.S.*	342
41	Moddaning molekulyar tuzilishi haqidagi tasavvurlar rivoji *Razzokova Moxinur Baxodir qizi* *Abdullayeva Gulsanam Ulug'bek qizi*	350

ISSN 3030-3907

42	Muqobil energiyadan foydalanish hamda energiya tejamkorligiga erishishda “plus promotion” mchj korxonasining texnologik va ishlab chiqarish tavsifi *Xushiyev Sirojiddin Meyliyevich* *Mammadiyev Xumoyun Norqul o‘g‘li* *Qarshiyev Husan Baxtiyor o‘g‘li*	355
43	Оценка надёжности систем учета объектов телекоммуникаций при различной сетевой топологии *Махсум Махмудов*	363
44	Raqamli kriminalistikada ma’lumotlarni ishlov berish va fayl carving usuli asosida dalillarni qayta tiklash algoritmlari *Orif Allanov Menglimuratovich* *Dildora Makhkamova Begaliyevna* *Ibragimov Saddambek Oybek o‘g‘li* *Quyliyev Behro‘z Sherzod o‘g‘li*	377
45	Влияние искусственного интеллекта на трансформацию банковских услуг в республике узбекистан: возможности и системные риски *Урунова Мафтуна Гайратовна*	397
46	Mathematical modeling of the effect of molybdenum on the fluidity properties of grey cast iron alloys *Khasanov Jamshidbek Nasirdin o‘g‘li* *Turakhodjaev Nodir Djakhongirovich* *Komolov Khayriddin* *Saidkhodjaeva Shokhista Nuritdinovna*	401
47	Development of a mathematical model for the effect of copper phosphide and casting temperature on the fluidity properties of gray cast iron alloys *Khasanov Jamshidbek Nasirdin o‘g‘li* *Turakhodjaev Nodir Djakhongirovich* *Komolov Khayriddin* *Tadjiev Nuritdin Khusnitdinovich*	408
48	Biogaz olish qurilmalari ko‘rsatkichlarini hisoblash usulini tanlash *Uzoqova Ruhiya Uzoq qizi* *Utayev Sobir Achilivech*	415
49	Kungaboqar (helianthus annuus)ning dilbar, alomat va sur navlari hosildorligiga mineral o‘g‘itlarning ta’siri *Rahimova Gulnoza Yomg’irovna*	421
50	Maktab o‘quvchilarining kreativligini masalalar yechish orqali shakllantirish *S.M. Ochilova* *L.Q. Ablakulov* *Y.F. Toshtemirova* *N.B. Baxramov* *D.B. Zuhriddinova*	426

ISSN 3030-3907

TIBBIYOT TA’LIMIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI: KELAJAK SHIFOKORLAR FAOLIYATIGA AHAMIYATI

Urishev Baxtiyor Abdusamatovich
Qo‘qon universiteti Andijon filiali professori-o‘qituvchisi
E-mail: urishevbahtiyor1@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida axborot texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati, zamonaviy tibbiy axborot tizimlarining turlari va ularning kelajak shifokorlarning kasbiy faoliyatiga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqotda elektron tibbiy hujjatlar, laboratoriya axborot tizimlari, telemeditsina va diagnostika dasturlarining ta'lim jarayonida qo‘llanilishi, shuningdek, raqamlashtirishning sog‘liqni saqlash sifatini oshirishdagi roli ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: axborot texnologiyalari, tibbiy axborot tizimlari, elektron tibbiy hujjatlar, telemeditsina, ta'lim raqamlashtirish, biofizika, informatika.

Аннотация. В данной статье проанализированы значение использования информационных технологий в высших медицинских образовательных учреждениях, виды современных медицинских информационных систем и их влияние на профессиональную деятельность будущих врачей. В исследовании рассмотрено применение электронных медицинских документов, лабораторных информационных систем, телемедицины и диагностических программ в образовательном процессе, а также роль цифровизации в повышении качества здравоохранения.

Ключевые слова: информационные технологии, медицинские информационные системы, электронные медицинские документы, телемедицина, цифровизация образования, биофизика, информатика.

Abstract. This article analyzes the significance of using information technologies in higher medical educational institutions, the types of modern medical information systems, and their impact on the professional activities of future physicians. The study examines the application of electronic medical records, laboratory information systems, telemedicine, and diagnostic software in the educational process, as well as the role of digitalization in improving the quality of healthcare.

Keywords: information technologies, medical information systems, electronic medical records, telemedicine, digitalization of education, biophysics, informatics.

KIRISH.

Zamonaviy rivojlanish davrida axborot texnologiyalari (AT) barcha sohalarning, jumladan sog‘liqni saqlash va oliy ta'lim tizimining rivojlanishida asosiy rol o‘ynaydi. Ta'lim texnologiyalari tubdan yangilanmoqda, oliy ta'lim muassasalari faoliyatining tashkiliy va iqtisodiy ko‘rsatkichlari tez sur'atlarda

ISSN 3030-3907

o‘zgarib bormoqda. Bunday sharoitda oliy ta'lim muassasasining muvaffaqiyatli faoliyati faqatgina ta'lim, ilmiy, axborot va boshqa xizmatlar sifatini doimiy ravishda takomillashtirib borish orqali ta'minlanadi [1].

Oliy ta'lim muassasalari oldida turgan asosiy vazifa nafaqat talabalarga chuqur va ongli bilim berish, balki ularni mustaqil ravishda bilim olishga o‘rgatish, ularning intellektual va ma'naviy jihatdan rivojlanishiga yordam berishdan iboratdir. Natijada talabalarda bilish faolligi shakllanadi va shundagina shaxsning kelajakdagi o‘z o‘rni haqida gapirish mumkin bo‘ladi [2].

Hozirgi kunda axborot texnologiyalaridan foydalanishning moddiy va intellektual asoslari jadal rivojlanmoqda, inson esa global axborot makonida yashash sharoitlariga psixologik jihatdan moslashmoqda. Ta'limni axborotlashtirish jarayoni yaratilayotgan axborot-ta'lim muhitiga asoslanib, faqat texnik ta'minot bilan cheklanmaydi, balki yangi o‘quv rejalari yaratish, elektron o‘quv-uslubiy resurslar shakllantirish, ma'lumotlar bazalari va tahlil vositalarini yaratish hamda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalariga ega mutaxassislarni tayyorlashni ham nazarda tutadi [3].

METODOLOGIYA.

Ta'lim muassasalarini bosqichma-bosqich kompyuterlashtirish zamonaviy ta'lim tizimining muhim belgilaridan biridir. O‘quv jarayonini kompyuter yordamida qo‘llab-quvvatlash turli shakllarda amalga oshirilishi mumkin: masalarni yechish va natijalarni kompyuter eksperimenti orqali tekshirish, kompyuter laboratoriya ishlarini bajarish, tibbiy-biologik jarayonlarning modellarini yaratish, animatsiyalar, mantiqiy sxemalar, interaktiv jadvallar yordamida o‘quv materialini tushuntirish, test nazorati materiallarini yaratish va mavzuli taqdimotlar tayyorlash [4].

Biologik fizika va matematika kafedrasida talabalarning mustaqil ishlarda ijodiy yo‘nalishdagi topshiriqlar alohida ahamiyatga ega. Bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish maqsadida talabalarga ijodiy ishlar — tibbiy statistika va informatika fanlari bo‘yicha kompyuter slaydli taqdimotlar tayyorlash topshiriladi. Hozirgi kunda talabalarning qariyb uchdan biri biofizika va informatikaning turli bo‘limlari (gemodinamika, fizioterapiya, rentgen nurlanishi, kompyuter tomografiyasi, magnit-rezonans tomografiya, ko‘z optikasi, elektrokardiografiya, tibbiy axborot tizimlari va boshqalar) bo‘yicha slaydlar tayyorlashda ishtirok etmoqda [5].

Bu jarayon Internet orqali ma'lumot izlash, uni qayta ishlash, slaydlar va matn ko‘rinishida taqdim etishni o‘z ichiga oladi. Natijada talabalar yangi bilimlarga ega bo‘ladilar, mavzu bo‘yicha dunyoqarashlari kengayadi, masalalar chuqurroq o‘rganiladi, shuningdek, materialni tushunarli va qulay shaklda bayon

ISSN 3030-3907

etish ko‘nikmalari shakllanadi. Animatsiyalardan foydalanish ko‘rgazmalilikni oshiradi va biofizik jarayonlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

NATIJALAR.

TAT (tibbiyotda axborot texnologiyalari) deb ataladigan tizimlar odatda mutaxassislar tomonidan samarali sog‘liqni saqlash tizimini yaratishning muhim texnologik asosi sifatida qaraladi. Ular shifokorlar, bemorlar va tibbiyot muassasalarini yagona tizimga birlashtiruvchi global axborot maydonini yaratadi [6].

—**Elektron tibbiy axborot tizimlari (EMR / HIS)**

O‘zbekistonda tibbiy muassasalarni raqamlashtirish uchun yaratilgan milliy tizim — UzMedInfo amalga qo‘llanilmoqda. Asosiy tizimlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- EMR (Electronic Medical Records) — bemorlarning elektron kartasi;
- HIS (Hospital Information System) — shifoxona boshqaruv tizimi.

Bu tizimlarning asosiy vazifalari: bemor ma'lumotlarini saqlash, diagnostika natijalarini qayd qilish va shifokor ishini avtomatlashtirishdan iborat.

—**Farmatsevtika va dorixona tizimlari**

Dorixona boshqaruvi uchun PharmSoft va 1C:Apteka dasturlari qo‘llaniladi. Ular dorilar hisobini yuritish, ombor nazorati va retseptlarni boshqarish imkoniyatlarini ta'minlaydi.

—**Laboratoriya axborot tizimlari (LIS)**

Laboratoriya axborot tizimlari analiz natijalarini avtomatik kiritish, laboratoriya jarayonlarini nazorat qilish va xatoliklarni kamaytirish vazifalarini bajaradi.

—**Diagnostika va tasviriy dasturlar**

PACS (Picture Archiving and Communication System) va DICOM standartlari rentgen, MRT, KT tasvirlarini saqlash, tahlil qilish va masofadan ko‘rish imkoniyatini ta'minlaydi.

—**Telemeditsina tizimlari**

Medesk va Doctor Online kabi platformalar masofadan maslahat berish, video konsultatsiyalar o‘tkazish va qishloq hududlarida tibbiy xizmatni yaxshilash imkoniyatlarini beradi.

—**Statistik va tahliliy dasturlar**

Microsoft Excel va SPSS dasturlari statistik tahlil, epidemiologik monitoring va hisobotlar tayyorlash uchun qo‘llaniladi.

MUHOKAMA. Biofizika va informatika darslarida kompyuterdan foydalanish ta'lim jarayonini jadallashtirish, talabalarning bilish faolligini oshirish va mashg‘ulot samaradorligini kuchaytirishning muhim vositalaridan biridir. Bu

ISSN 3030-3907

bilim va malakalar kelajakda yosh mutaxassislar raqamlashtirishni tibbiyotga joriy qilishlari va qo‘llashlari orqali sohada quyidagi maqsadlarga erishadilar:

Diagnostika va davolash sifatini yaxshilashda: Tibbiyotning kompyuterlashtirilishi, shuningdek sun'iy intellektni joriy etish shifokorlarga aniqroq tashxis qo‘yish va katta ma'lumotlar tahliliga asoslangan holda individual davolash rejalarini taklif etishga yordam beradi [7].

Tibbiyot muassasalari faoliyatini optimallashtirishda: Kasallik tarixini yuritish, dori-darmonlarni belgilash va qabulini nazorat qilish kabi kundalik jarayonlarni avtomatlashtirish shifokorlarning bemorlar bilan samaraliroq ishlashi uchun vaqtni tejaydi.

Ilmiy tadqiqotlarni tezlashtirishda: Axborot texnologiyalari ilmiy ma'lumotlarni tez yig‘ish va tahlil qilish imkonini beradi, bu esa yangi dori vositalari va davolash usullarini ishlab chiqishni jadallashtiradi [8].

Tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyatini oshirishda: Telemeditsina va mobil sog‘liqni saqlash texnologiyalari uzoq va kam ta'minlangan hududlarda ham sifatli tibbiy yordam ko‘rsatishga imkon beradi [9].

Bemorlar va tibbiyot muassasalari o‘rtasidagi hamkorlikni yaxshilashda: Elektron sog‘liqni saqlash tizimlari va axborot almashish platformalari maslahat olish jarayonini soddalashtiradi hamda shifokorlar va bemorlar o‘rtasidagi muloqotni yaxshilaydi [10].

Tibbiyotda shifokorlar virtual jarrohlik amaliyotlarini o‘rganish va virusli va bakterial kasalliklarning inson tanasiga ta'sirini simulyatsiya qilish orqali o‘qitishlari va shu bilan profilaktika choralarini ishlab chiqishlari mumkin. Virtual jarrohlik kabi multimedia ilovalari ham shifokorlarga amaliy ko‘nikmalarni egallashga yordam beradi. Shuning uchun bu dasturlarning ta'lim versiyalarini ishlab chiqish va o‘quv jarayoniga tatbiq etish dolzarb vazifadir.

XULOSA. Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida axborot texnologiyalaridan foydalanish zamonaviy shifokorlar tayyorlashning ajralmas qismidir. Ta'lim jarayonida kompyuter slaydlari, animatsiyalar, interaktiv jadvallar va virtual simulyatsiyalardan foydalanish talabalarning bilish faolligini oshiradi, fanlarni chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi va amaliy ko‘nikmalarni shakllantiradi.

O‘zbekistonda tibbiyotda qo‘llanilayotgan dasturlar — elektron tibbiy hujjatlar, diagnostika va laboratoriya tizimlari, dorixona va boshqaruv tizimlari, telemeditsina xizmatlari hamda statistik tahlil vositalari — sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirishda asosiy rol o‘ynaydi. Kelajak shifokorlarining AT ko‘nikmalarini shakllantirish ularning kasbiy faoliyatida diagnostika va davolash sifatini yaxshilash, tibbiyot muassasalari faoliyatini optimallashtirish, ilmiy

ISSN 3030-3907

tadqiqotlarni tezlashtirish, tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyatini oshirish hamda bemorlar bilan hamkorlikni yaxshilash imkoniyatini beradi.

Shu sababli, tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga keng joriy etish, zamonaviy tibbiy axborot tizimlari bo‘yicha o‘quv dasturlarini takomillashtirish va talabalar amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish dolzarb vazifalar qatoriga kiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xodiev B.S., Rahimov Sh.N. Axborot texnologiyalari va ularning ta'lim tizimida qo‘llanishi. O‘zbekiston milliy universiteti axborotnomasi. — 2020. — № 3. — B. 45-52.
2. Karimov A.A. Oliy ta'limda talabalarning mustaqil bilish faolligini rivojlantirish. Pedagogika fanlari. — 2019. — № 2. — B. 78-85.
3. Toshtemirov B.M., Xalilov S.Y. Ta'lim jarayonini axborotlashtirishning zamonaviy yo‘nalishlari. Ta'lim va pedagogik texnologiyalar. — 2021. — № 4. — B. 112-120.
4. Zokirova M.Q. Kompyuter texnologiyalari yordamida biologik fizika fanini o‘qitish metodikasi. Tibbiyot ta'limi. — 2020. — № 1. — B. 34-40.
5. Akbarov A.A., Yusupov B.Y. Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biofizika va informatika fanlarini o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish. O‘zbekiston tibbiyot axborotnomasi. — 2021. — № 2. — B. 56-63.
6. Azizov S.M., Raxmatullaev M.X. Tibbiy axborot tizimlari: tushuncha, turlari va qo‘llanilishi. Sog‘liqni saqlash tizimini boshqarish. — 2022. — № 1. — B. 23-31.
7. Sun'iy intellekt tibbiyotda: tashxis va davolashda qo‘llanilishi. Zamonaviy tibbiyot texnologiyalari. — 2022. — № 5. — B. 112-120.
8. Axborot texnologiyalari tibbiy ilmiy tadqiqotlarni tezlashtirishda. Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar. — 2020. — № 2. — B. 89-97.
9. Telemeditsina va uzoq hududlarda tibbiy xizmat ko‘rsatish. Sog‘liqni saqlash siyosati. — 2022. — № 3. — B. 67-75.
10. Bemorlar va shifokorlar o‘rtasidagi raqamli aloqa tizimlari. Tibbiyot axborot tizimlari. — 2023. — № 2. — B. 45-53.

ISSN 3030-3907

PO‘LATLARDAN QUYMA MAHSULOTLAR OLISHDA QOTISHMA TARKIBIDA XOSIL BO‘LADIGAN NOMETALL QO‘SHIMCHALARGA MINERAL FLYUS TARKIBINING TA’SIRI

Nozimjon Xolmirzayev
Toshkent davlat texnika universiteti
Nodir Turaxodjayev
Toshkent davlat texnika universiteti
Jamshid Sharipov
Buxoro davlat texnika universiteti
Abdujalol Bektemirov
O‘zbekiston – Yaponiya yoshlar innovatsiya markazi
Nuriddin Yusupov
Andijon davlat texnika instituti.
Zokirjon Nurdinov
Toshkent davlat texnika universiteti
Nilufar Zufarova.
Toshkent davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda laboratoriya sharoitida A300 markali ikkilamchi metall armaturalarni qayta suyuqlantirish jarayonida $CaCO_3$–$CaSiO_3$ asosidagi flyus tarkibi o‘zgarishining suyuq metallning vannadagi fizik-kimyoviy jarayonlariga va xosil bo‘ladigan nometall qo‘shimchalarga ta’siri tadqiq qilingan. Flyus tarkibi 50–80 % gacha $CaCO_3$ va 20–50% $CaSiO_3$ diapazonida bosqichma-bosqich o‘zgartirildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, flyus asosliligining ortishi nometall qo‘shimchalarning shlak fazasiga o‘tishini yaxshilashi kuzatildi. Biroq $CaCO_3$ miqdorining ortishi natijasida suyuq qotishmada gazli g‘ovaklik va mayda dispers oksidli nometall qo‘shimchalar paydo bo‘lishiga olib kelishi ham kuzatildi.

Kalit so‘zlar: Oksidlar, nometall qo‘shimchalar, metall va shlak fazalari, reologik xossalar, metallografik, $CaCO_3$ va $CaSiO_3$.

Abstract. In this study, the effect of varying the composition of the $CaCO_3$–$CaSiO_3$-based flux on the physicochemical processes of the liquid metal in the bath and the formation of non-metallic inclusions during the reflow process of A300 grade secondary metal reinforcements under laboratory conditions was investigated. The flux composition was gradually changed in the range of 50–80% $CaCO_3$ and 20–50% $CaSiO_3$. The results of the study showed that increasing the basicity of the flux improved the transition of non-metallic inclusions to the slag phase. However, increasing the amount of $CaCO_3$ was also observed to lead to the formation of gaseous porosity and finely dispersed oxide non-metallic inclusions in the liquid alloy.

ISSN 3030-3907

Keywords: Oxides, non-metallic inclusions, metal and slag phases, rheological properties, metallographic, $CaCO_3$ and $CaSiO_3$.

Аннотация. В данном исследовании изучалось влияние изменения состава флюса на основе $CaCO_3$–$CaSiO_3$ на физико-химические процессы жидкого металла в ванне и образование неметаллических включений в процессе оплавления упрочняющих вторичных металлов марки А300 в лабораторных условиях. Состав флюса постепенно изменялся в диапазоне 50–80% $CaCO_3$ и 20–50% $CaSiO_3$. Результаты исследования показали, что повышение основности флюса улучшает переход неметаллических включений в шлаковую фазу. Однако было также замечено, что увеличение количества $CaCO_3$ приводит к образованию газовой пористости и мелкодисперсных оксидных неметаллических включений в жидком сплаве.

Ключевые слова: Оксиды, неметаллические включения, металлическая и шлаковая фазы, реологические свойства, металлографические свойства, $CaCO_3$ и $CaSiO_3$.

KIRISH.

Zamonaviy metallurgiyada po‘lat tarkibidagi nometall qo‘shimchalar miqdori, turi va morfologiyasidir uning sifatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Ikkilamchi po‘latlari qayta eritish jarayoniga duch kelganda, ularning dastlabki ishlab chiqarish bosqichida shakllangan nometall qo‘shimchalar tizimi ma’lum darajada saqlanib qoladi yoki yangi termokimyoviy sharoitlarda qayta shakllanadi.

Po‘latni suyuqlantirish jarayonida metall va shlak fazalari o‘rtasida murakkab fizik-kimyoviy o‘zaro ta’sirlar sodir bo‘ladi. Shlak nafaqat himoya muhiti vazifasini bajaradi, balki u aktiv tozalovchi faza sifatida ham ishlaydi. U metall tarkibidagi kislotali oksidlar, sulfidlar hamda boshqa nometall qo‘shimchalarni o‘ziga biriktirish orqali metallni tozalaydi. Ushbu jarayon samaradorligi esa, birinchi navbatda, shlakning asoslilik darajasi, qovushqoqligi, eruvchanligi va termodinamik faolligiga bog‘liq [1-3].

Shlak asosliligi bu uning tarkibidagi asos oksidlarning (asosan CaO, MgO) kislotali oksidlarga (SiO_2, Al_2O_3 va boshqalar) nisbatini ifodalovchi parametr bo‘lib, metallni tozalash qobiliyatini belgilovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri. Asosli shlaklar kislotali tabiatga ega bo‘lgan oksidli nometall qo‘shimchalarni kimyoviy bog‘lash va ularni metall fazasidan ajratib olish qobiliyatiga ega [4, 5]. Aksincha, kislotali yoki past asosli shlaklar bunday nometall qo‘shimchalarni yetarlicha samarali yuta olmaydi. Natijada ular metall matritsasida saqlanib qoladi va mexanik xossalarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

ISSN 3030-3907

Ikkilamchi metallarni qayta eritish jarayonida $CaCO_3$ asosidagi flyuslardan foydalanish keng tarqalgan amaliy yondashuv hisoblanadi. $CaCO_3$ yuqori haroratda parchalanib, CaO va CO_2 hosil qiladi. Hosil bo‘lgan CaO kuchli asos oksid sifatida shlak tarkibiga kiradi va uning asoslilik darajasini oshiradi. CO_2 gazining ajralishi esa metall vannada aralashtirish effektini yuzaga keltirib, nometall qo‘shimchalar ko‘chishini tezlashtirishi mumkin. Biroq, ortiqcha gaz ajralishi metall ichida g‘ovakliklar hosil bo‘lishiga va ikkilamchi oksidlanish jarayonlarining kuchayishiga sabab bo‘lishi ham mumkin [6-8].

Qisman $CaCO_3$ bilan almashtirilgan $CaSiO_3$ esa shlakning strukturaviy komponenti sifatida muhim rol o‘ynaydi. U shlakning qovushqoqligini va suyuqlanish haroratini tartibga soladi hamda silikatli fazaning barqarorligini ta’minlash uchun xizmat qiladi. Shlakning optimal reologik xossalari nometall qo‘shimchalarning ko‘tarilib chiqishini va shlak fazasiga o‘tishini osonlashtiradi [9, 10]. Demak, $CaCO_3$ va $CaSiO_3$ o‘rtasidagi nisbat shlakning kimyoviy va fizik xossalarini kompleks tarzda belgilab beradi.

Nometall qo‘shimchalar po‘lat mikrostrukturasi va mexanik xossalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ular, odatda, oksidlar (FeO, SiO_2, Al_2O_3), sulfidlar (MnS) yoki murakkab oksidli fazalar ($CaO–Al_2O_3–SiO_2$ tizimi) ko‘rinishida uchraydi. Nometall qo‘shimchalar shakli (burchakli yoki sferik), o‘lchami va taqsimlanishi po‘latning plastikligi, zarbga va charchoqga chidamliligini belgilaydi [11, 12]. Masalan, burchakli va cho‘zilgan nometall qo‘shimchalar kuchlanish konsentratsiyasi manbai bo‘lib xizmat qiladi. Sferik shaklli nometall qo‘shimchalar esa metall matritsasiga nisbatan kamroq salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Yuqori asoslilik sharoitida CaO ning Al_2O_3 va SiO_2 bilan o‘zaro ta’siri natijasida past erish haroratiga ega bo‘lgan murakkab kaltsiyli aluminat-silikatlar hosil bo‘ladi. Bu jarayon nometall qo‘shimchalarni modifikatsiyalash deb ataladi. Modifikatsiyalangan nometall qo‘shimchalar ko‘proq sferik shaklga ega bo‘lib, metall fazasidan ajralib chiqishi osonlashadi. Shuning uchun shlak tarkibini boshqarish orqali nometall qo‘shimchalar harakatini nazorat qilish mumkin [13].

Shu bilan birga, $CaCO_3$ miqdorining ortishi har doim ham ijobiy natija bermaydi. Yuqori haroratda CO_2 ajralishi metallning oksidlanishini oshirishi va mayda dispers oksidli zarrachalar hosil bo‘lishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, haddan tashqari yuqori asoslilik shlakning barqarorligini buzishi yoki uning metall bilan o‘zaro ta’sir mexanizmini o‘zgartirishi mumkin. Shuning uchun optimal nisbatni aniqlash ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb vazifa hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan omillar shuni ko‘rsatadiki, $CaCO_3–CaSiO_3$ asosidagi flyus nisbatining o‘zgarishi nafaqat shlakning asoslilik darajasini, balki uning reologik xossalarini, gaz ajralish intensivligini va termodinamik faolligini ham


ISSN 3030-3907

o‘zgartiradi. Bu esa o‘z navbatida nometall qo‘shimchalarning hosil bo‘lishi, modifikatsiyalanishi va metall fazasidan chiqarilish jarayonlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi [14-16].

Shu sababli mazkur tadqiqotning maqsadi laboratoriya sharoitida A300 markali po‘latni qayta suyuqlantirish jarayonida $CaCO_3$ va $CaSiO_3$ nisbatining o‘zgarishi shlak asosliligi hamda nometall qo‘shimchalarning miqdori, turi va morfologiyasiga qanday ta’sir ko‘rsatishini kompleks ravishda tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot natijalari qayta eritish jarayonlarida optimal flyus tarkibini tanlash, metall sifatini oshirish va nometall qo‘shimchalar miqdorini kamaytirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

TADQIQOT USULLARI.

Tadqiqot obyekti sifatida qurilish amaliyotida ishlatilgan A300 markali armatura tanlandi. Eritishdan oldin armatura yuzasidagi zang, oksid qatlamlari va mexanik iflosliklar metall cho‘tka yordamida tozalandi, so‘ngra organik erituvchi bilan yog‘sizlantirildi. Bu bosqich tashqi iflosliklarning eritish jarayoniga va nometall qo‘shimchalar shakllanishiga qo‘shimcha ta’sir ko‘rsatishini kamaytirish maqsadida bajarildi. Har bir tajriba uchun bir xil massa miqdoridagi metall ishlatildi, bu esa natijalarni o‘zaro taqqoslash imkonini berdi. Flyus komponentlari sifatida kimyoviy toza $CaCO_3$ va $CaSiO_3$ dispers mayda bo‘laklari qo‘llanildi (1-rasm). Tajriba oldidan ular 110–120 °C haroratda quritilib, namlikdan xoli qilindi. Namlikning mavjudligi yuqori haroratda qo‘shimcha gaz ajralishiga va eritma barqarorligining buzilishiga olib kelishi mumkinligi sababli, ushbu bosqich muhim ahamiyatga ega.



1-rasm. Tadqiqot uchun shixta tarkibi. a) ikkilamchi A300 markali armatura; b) $CaCO_3$ maydalangan flyus sifatida; c) $CaSiO_3$ maydalangan flyus sifatida.

Flyus aralashmalari to‘rt xil nisbatda massaviy tarkibda tayyorlandi. Komponentlar analitik tarozida yuqori aniqlikda tortilib, mexanik aralashtirish orqali bir jinsli massa holatiga keltirildi. Flyus miqdori umumiy metall

ISSN 3030-3907


yuklamasiga nisbatan doimiy foizda saqlandi, bu esa shlak hosil bo‘lish sharoitining bir xil bo‘lishini ta’minladi.

1-jadval

Taklif etilgan flyuslarning yangi tarkiblari

№	Mineral	Flyusning yangi tarkiblari			
		F1	F2	F3	F4
1.	$CaCO_3$, %	50	60	70	80
2.	$CaSiO_3$, %	50	40	30	20

Eritish jarayoni laboratoriya induksion pechida amalga oshirildi. Metall yuklama pech tigeliga joylashtirilib, 1550–1600 °C harorat oralig‘ida suyuqlantirildi. Harorat optik pirometr yordamida nazorat qilindi (2-rasm). Metall to‘liq suyuqlangach, tayyorlangan flyus metall yuzasiga bir tekis qo‘shildi. $CaCO_3$ ning yuqori haroratda parchalanishi natijasida CaO va CO_2 hosil bo‘lishi kuzatildi. Eritish jarayonida metall va shlak fazalarining o‘zaro ta’siri uchun yetarli vaqt ta’minlandi.



2-rasm. Tadqiqot jarayonlari. a) 10 kg elektr induksion pechda suyuqlantirish jarayoni; b) suyuq metallni qizdirilgan kovshga quyish; c) suyuq metall haroratini o‘lchash uchun pirometr; d) namunalarni quyib olish uchun tayyorlangan qum-gilli qolip.

Har bir tajribada eritish vaqti, maksimal harorat, metall massasi hamda sovitish sharoiti bir xil saqlandi. Bu metodik yondashuv flyus tarkibining shlak asosliligi va nometall qo‘shimchalar shakllanishiga ta’sirini izolyatsiyalangan holda o‘rganish imkonini berdi.

Eritish jarayoni yakunlangach, metall oldindan qizdirilgan qoliplarga quyildi. Har bir nisbat bo‘yicha 5 tadan takroriy namuna tayyorlandi. Namunalarning sovishi havoda tabiiy sovitish orqali amalga oshirildi.

Metallografik tahlil uchun namunalardan shliflar tayyorlandi. Namuna yuzasi mexanik usulda kesilib, bosqichma-bosqich silliqlash va sayqallash jarayonidan o‘tkazildi. Yuzani ochish maqsadida nital eritmasida travleniya qilindi. Mikrostrukturaviy kuzatuvlar optik mikroskop yordamida turli kattalashtirish

ISSN 3030-3907

darajalarida olib borildi. Nometall qo‘shimchalar soni, o‘lchami, shakli va taqsimlanishi maydon birligiga nisbatan baholandi.


Shlak tarkibi asosida uning asoslilik darajasi hisoblab chiqildi. $CaCO_3$ ning parchalanishi natijasida hosil bo‘lgan CaO miqdori stexiometrik hisob-kitob asosida aniqlashtirildi. Shlak asosliligi asosli va kislotali oksidlar nisbatiga ko‘ra baholandi. Zarur hollarda nometall qo‘shimchalar tarkibini aniqlash uchun kimyoviy tahlil usullari qo‘llanilib, ularning oksidli yoki sulfidli ekanligi belgilandi.

Eksperimentlarning takrorlanuvchanligini ta’minlash maqsadida har bir nisbat bo‘yicha tajribalar bir necha marta takrorlandi. Olingan natijalar o‘rtacha qiymat sifatida qayd etildi va o‘zaro taqqoslandi.

Shu tariqa ishlab chiqilgan metodika $CaCO_3$–$CaSiO_3$ nisbatining o‘zgarishi natijasida shlak asosliligi, gaz ajralish intensivligi va nometall nometall qo‘shimchalar evolyutsiyasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni kompleks baholash imkonini berdi. Ushbu yondashuv flyus tarkibini optimallashtirish va qayta suyuqlantirilgan po‘lat sifatini oshirish bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish uchun metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

TADQIQOT NATIJALARI.

Ushbu bo‘limda $CaCO_3$–$CaSiO_3$ flyus nisbatining o‘zgarishi natijasida hosil bo‘lgan shlak fazasi, qotishma mikrostrukturasi, nometall qo‘shimchalar evolyutsiyasi hamda fazaviy tarkib (XRD) natijalari kompleks ravishda tahlil qilindi. Tahlil optik metallografik, mikrostrukturaviy kuzatuvlar, rentgen-difraktsiya tahlili (XRD) va eksperimental grafiklarga asoslandi 3-rasm.



3-rasm. Tadqiqot natijalarining Optik mikroskop va XRD tahlillarini olish jarayoni

Optik metallografik tahlil natijalari. Laboratoriya sharoitida $CaCO_3$–$CaSiO_3$ asosidagi flyus tarkibi o‘zgartirilgan holda olingan tadqiqot namunalari optik metallografik tasvirlari o‘rganildi. Tahlillar X20 dan X500 gacha kattalashtirishlarda amalga oshirildi. Kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, flyus

ISSN 3030-3907

tarkibidagi $CaCO_3$ miqdorining oshishi shlak asosliligini sezilarli darajada o‘zgartiradi va bu o‘z navbatida qotishma mikrostrukturasi hamda uning tarkibidagi nometall qo‘shimchalar morfologiyasiga ta’sir ko‘rsatadi.

50% $CaCO_3$ va 50% $CaSiO_3$ nisbatida olingan namunalar mikrostrukturasi ferrit–perlit iborat, Ferrit donalari chegaralarida ko‘plab burchakli va notekis shakldagi oksidli fazalar kuzatildi. Ushbu fazalar asosan $FeO–SiO_2$ tipidagi kislotali oksidlardir. Ular metall matritsasida dispers holda joylashgan. Bunday mikrostruktura shlak asosliligining pastligi bilan bog‘liq. Past Asoslilik sharoitida shlak kislotali oksidlarni samarali yuta olmaydi va natijada nometallar metall fazasida saqlanib qoladi.

60% $CaCO_3$ va 40% $CaSiO_3$ nisbatida olingan namunalar tahlili metall mikrostrukturasi yanada bir jinsli bo‘lib borayotganini ko‘rsatdi. Ferrit–perlit strukturasining umumiy ko‘rinishi saqlangan bo‘lsa-da, nometall qo‘shimchalar soni kamaygani kuzatildi. Bundan tashqari, qo‘shimchalar morfologiyasi burchakli shakldan sferik yoki yarim sferik shaklga o‘ta boshlagan. Bu esa CaO miqdorining ortishi bilan bog‘liq bo‘lib, shlak asosliligining ortishi natijasida qo‘shimchalar modifikatsiyasi jarayoni boshlanishini ko‘rsatadi.

70% $CaCO_3$ va 30% $CaSiO_3$ tarkibida olingan namunalarda metall mikrostrukturasi eng toza ko‘rinishda kuzatildi. Optik mikroskop natijalari nometall qo‘shimchalar sonining minimal darajaga tushganini ko‘rsatdi. Qolgan qo‘shimchalar asosan sferik shaklda bo‘lib, metall matritsasida bir tekis taqsimlangan. Ferrit–perlit ancha barqaror bo‘lib, donalar chegaralarida yirik oksid zarrachalar deyarli kuzatilmadi. Bu holat shlak asosliligining optimal darajaga yetganligini ko‘rsatadi.

80% $CaCO_3$ va 20% $CaSiO_3$ tarkibida olingan namunalarda esa boshqa turdagi mikrostrukturaviy o‘zgarishlar kuzatildi. Qo‘shimchalar soni yana ortgan bo‘lib, ular mayda dispers oksidli zarrachalar ko‘rinishida namoyon bo‘ldi. Ayrim joylarda mikrog‘ovakliklar ham aniqlangan. Bu holat $CaCO_3$ ning ko‘pligi natijasida parchalanish jarayonida CO_2 gazining intensiv ajralishi bilan bog‘liq bo‘lib, metall vannada gazli g‘ovakliklar hosil bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

XRD tahlil natijalari. Metall va shlak namunalari fazaviy tarkibini aniqlash maqsadida rentgen-difraktsion tahlil o‘tkazildi. Olingan difraktogrammalar flyus tarkibining o‘zgarishi bilan shlak tizimida yuzaga keladigan fazaviy siljishlarni aniqlash imkonini berdi.

50% $CaCO_3$ tarkibida olingan shlak namunalari difraktogrammasida FeO, SiO_2 va Al_2O_3 fazalariga tegishli difraktsion piklar ustunlik qildi. Bu natija shlakning nisbatan kislotali xususiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Kislotali shlak

ISSN 3030-3907


sharoitida oksidli qo‘shimchalar shlak tomonidan to‘liq yutilmaydi va metall matritsasida saqlanib qoladi.

60% $CaCO_3$ tarkibida olingan namunalar XRD tahlilida yangi fazalar paydo bo‘lishi kuzatildi. Asosan $CaO \cdot Al_2O_3$ va $CaO \cdot SiO_2$ tipidagi kaltsiyli aluminat va silikat fazalari aniqlangan. Bu fazalar CaO ning Al_2O_3 va SiO_2 bilan reaksiyaga kirishishi natijasida hosil bo‘ladi. Ushbu fazalar qo‘shimchalar modifikatsiyasi jarayonida muhim rol o‘ynaydi.


70% $CaCO_3$ tarkibida esa Ca_2SiO_4 va $CaO \cdot Al_2O_3$ fazalarining intensiv difraktsion piklari qayd etildi. Bu shlak tizimining optimal asoslilik darajasiga yetganligini ko‘rsatadi. Bunday sharoitda oksidli qo‘shimchalar murakkab kaltsiyli fazalarga aylanishi va shlak fazasiga o‘tishi osonlashadi.

80% $CaCO_3$ tarkibida olingan shlak namunalari difraktogrammasida esa erkin CaO fazasining piklari ham kuzatildi. Bundan tashqari CaS fazasining izlari ham aniqlangan. Bu holat shlak tizimida ortiqcha asoslilik mavjudligini va kimyoviy muvozanatning buzilishini ko‘rsatadi.


Grafik tahlil natijalari. Eksperimental natijalar asosida flyus tarkibi va qotishma sifat ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik grafik ko‘rinishda tahlil qilindi.




a)



b)



c)



d)

4-rasm. Flyus tarkibi o‘zgarishining bog‘liqlik grafiklari.

ISSN 3030-3907

a) $CaCO_3$ miqdorining shlak asosliligiga ta’siri; b) Shlak asosliligi va nometall qo‘shimchalar soni o‘rtasidagi bog‘liqlik; c) $CaCO_3$ miqdorining gaz ajralish intensivligiga ta’siri; d) $CaCO_3$ miqdorining nometall qo‘shimchalar o‘lchamiga ta’siri.

a) flyus tarkibida $CaCO_3$ miqdorining ortishi bilan shlak asosliligi deyarli chiziqli ravishda ortgan. 50% $CaCO_3$ nisbatida asoslilik B ≈ 1.2 qiymatni tashkil etib, tizim past-asosli xarakterga ega ekanligi kuzatildi. 60% va 70% nisbatlarda asoslilik mos ravishda B ≈ 1.6 va B ≈ 1.8 gacha ortdi. Bu interval shlakning metall bilan kimyoviy o‘zaro ta’siri uchun optimal sharoit yaratadi. 80% $CaCO_3$ holatida asoslilik B ≈ 2.3 qiymatga yetib, tizim yuqori asoslilikka erishdi. Bunday keskin ortish shlak tarkibida CaO ulushining sezilarli ko‘payishi bilan bog‘liq. Shunday qilib, $CaCO_3$ miqdori shlak asosliligini asosiy omili bo‘lib, u to‘g‘ridan-to‘g‘ri CaO konsentratsiyasi bilan proporsional bog‘langan.

b) asoslilik va 1 mm^2 maydondagi nometall qo‘shimchalar soni o‘rtasida parabolik bog‘liqlik aniqlandi. Past asoslilik sharoitida (B ≈ 1.2) qo‘shimchalar soni maksimal qiymat (≈120 dona/mm^2) ni tashkil etdi. Bu sharoitda qo‘shimchalar modifikatsiyasi sust kechadi. Asoslilik B ≈ 1.6–1.8 intervaliga yetganda qo‘shimchalar soni keskin kamayib, minimal qiymat (≈55 dona/mm^2) 70% $CaCO_3$ nisbatida kuzatildi. Bu holat shlakning optimal kimyoviy faolligi bilan izohlanadi. Biroq B ≈ 2.3 (80% $CaCO_3$) qiymatida qo‘shimchalar soni yana ortib (≈95 dona/mm^2), ikkilamchi oksidlanish va gazli g‘ovakliklar xosil bo‘lishi kuchayganini ko‘rsatdi. Ya’ni, juda yuqori asoslilik metall tozaligini yaxshilamasligini ko‘rsatadi.

c) $CaCO_3$ miqdorining ortishi bilan gaz ajralish intensivligi deyarli chiziqli ravishda ortib bordi. 50% $CaCO_3$ da gaz ajralishi minimal bo‘lishi kuzatildi. 60–70% nisbatlarda gaz ajralishi ortib borib, bu metall vannada aralashtirishni kuchaytirib, qo‘shimchalardan tozalanishini tezlashtiradi. 80% $CaCO_3$ da esa gaz ajralishi maksimal qiymatga yetgan. Bu holat CO_2 ajralishining ortishi bilan bog‘liq bo‘lib, metallning ikkilamchi oksidlanishi va gaz g‘ovakliklari hosil bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Ya’ni, $CaCO_3$ miqdori gaz hosil bo‘lishining asosiy manbai ekanini ko‘rsatdi.

d) qo‘shimchalar o‘lchami $CaCO_3$ miqdorining ortishi bilan dastlab ortgan, so‘ngra esa kamaygan. 50% $CaCO_3$ da o‘rtacha o‘lcham ≈6 μm bo‘lib, ko‘p sonli mayda dispers qo‘shimchalar ustunlik qilgan. 60% va 70% nisbatlarda o‘lcham mos ravishda ≈9 μm va ≈11 μm gacha ortgani kuztildi. Bu nometall qo‘shimchalarning sferiklashganini ko‘rsatadi. 80% $CaCO_3$ da esa o‘lcham yana ≈5 μm gacha kamaygan. Bu ikkilamchi oksidlanish natijasida mayda zarrachalarning qayta hosil bo‘lishi bilan sababli yuz bergan.

ISSN 3030-3907

Termodinamik tahlil. Shlak–qotishma tizimida yuz beradigan jarayonlar asosan termodinamik muvozanat va diffuziya jarayonlari bilan belgilanadi. $CaCO_3$ parchalanishi natijasida hosil bo‘lgan CaO shlak tizimining asosliligini oshiradi va kislotali oksidlar bilan reaksiyaga kirishadi.

Asosiy reaksiyalar quyidagicha:

$$CaO+SiO_2 \rightarrow CaO \cdot SiO_2$$

$$CaO+Al_2O_3 \rightarrow CaO \cdot Al_2O_3$$

Ushbu reaksiyalar natijasida hosil bo‘lgan murakkab kaltsiyli fazalar qo‘shimchalar modifikatsiyasini ta’minlaydi. Modifikatsiyalangan qo‘shimchalar sferik shaklga ega bo‘lib, metall fazasidan shlakka o‘tishi osonlashadi.

Biroq $CaCO_3$ miqdori haddan tashqari ortganda CO_2 gazining ajralishi metallning oksidlanish potensialini oshiradi. Natijada quyidagi reaksiyalar sodir bo‘ladi:

$$Fe+CO_2 \rightarrow FeO+CO$$

Hosil bo‘lgan FeO keyinchalik boshqa oksidlar bilan reaksiyaga kirishib ikkilamchi qo‘shimchalar hosil qiladi.

Shu sababli shlak asosliligi ma’lum bir optimal intervalda bo‘lishi zarur. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, qo‘llanilgan flyusning yangi tarkiblarda $CaCO_3$ miqdori 60–70% oralig‘ida bo‘lganda shlak tizimi eng barqaror bo‘ladi. Shu bilan birga, metall tarkibidagi nometall qo‘shimchalar minimal darajaga kamayishi uchun xizmat qiladi.

XULOSA.

Laboratoriya sharoitida A300 markali ikkilamchi armatura po‘latini qayta suyuqlantirish jarayonida $CaCO_3$–$CaSiO_3$ asosidagi mineral kompozit flyus tarkibi shlak asosliligini va qotishma tarkibidagi nometall qo‘shimchalar evolyutsiyasini sezilarli darajada o‘zgartirishi aniqlandi.

Flyus tarkibidagi $CaCO_3$ miqdorining ortishi natijasida shlak tizimida CaO miqdori oshib, shlak asosliligi ortadi va kislotali oksidli nometall qo‘shimchalar shlak fazasiga o‘tishi faollashadi.

Optik metallografik tahlillar natijasida flyus tarkibi 50% $CaCO_3$ bo‘lgan holatda metall mikrostrukturasi ferrit–perlit tuzilishga ega bo‘lib, unda burchakli FeO–SiO_2 tipidagi oksidli nometall qo‘shimchalar ko‘p miqdorda saqlanib qolishi aniqlandi.

$CaCO_3$ miqdori 60–70% oralig‘iga yetkazilganda nometall qo‘shimchalar modifikatsiyasi jarayoni faollashib, ularning soni kamayishi hamda morfologiyasining sferik shaklga o‘tishi kuzatildi.

ISSN 3030-3907

Eng optimal natijalar 70% $CaCO_3$ va 30% $CaSiO_3$ nisbatida kuzatilib, metall mikrostrukturasi eng toza holatda shakllangan va nometall qo‘shimchalar minimal miqdorda qayd etilgan.

Flyus tarkibida $CaCO_3$ miqdori 80% ga yetkazilganda CO_2 gazining intensiv ajralishi natijasida metall vannada mayda gazli g‘ovakliklar va mayda dispers oksidli qo‘shimchalar hosil bo‘lishi kuzatildi.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы моделирования гибридной энергетической системы и анализа алгоритмов управления. Взаимодействие солнечных панелей, ветровых генераторов, дизельного генератора и аккумуляторов в составе гибридной системы, а также неопределенность их рабочих параметров создают трудности при использовании традиционных методов управления. В связи с этим предложена модель управления на основе искусственного интеллекта, учитывающая неопределенные взаимосвязи между источниками энергии и нагрузкой. Данная модель направлена на оптимизацию распределения энергии, повышение устойчивости системы и улучшение энергетической эффективности.

Ключевые слова: гибридная энергетическая система, искусственный интеллект, моделирование, алгоритмы управления, возобновляемая энергия, распределение энергии, Arduino, нечеткая логика, энергетическая эффективность.

ISSN 3030-3907

Abstract. This article discusses the modeling of hybrid energy systems and the analysis of control algorithms. The interaction of solar panels, wind turbines, diesel generators, and batteries, along with the uncertainty of their operating parameters, makes traditional control methods less effective. Therefore, an artificial intelligence-based control model is proposed, which considers uncertain relationships between energy sources and load. The proposed model aims to optimize energy distribution, improve system stability, and enhance energy efficiency.

Keywords: hybrid energy system, artificial intelligence, modeling, control algorithms, renewable energy, energy distribution, Arduino, fuzzy logic, energy efficiency**.**

KIRISH.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanish va energiya tizimlarini avtomatlashtirish bugungi kunda dolzarb ilmiy-texnik masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, gibrid elektr energiya tizimlarida quyosh, shamol va boshqa energiya manbalarining birgalikda ishlashi jarayonida yuzaga keladigan noaniqliklar an’anaviy boshqaruv usullari yordamida samarali hal etilmaydi.

Gibrid energiya tizimlarining ishlash jarayoni ko‘plab tashqi va ichki omillarga bog‘liq bo‘lib, bu jarayonlar murakkab, dinamik va nochiziqli xarakterga ega. Shu sababli, tizimni modellashtirish va boshqarishda sun’iy intellekt usullaridan, xususan neyron tarmoqlar va noravshan mantiqdan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Neyro-noravshan modellar murakkab jarayonlarni tavsiflashda yuqori aniqlik va moslashuvchanlikka ega bo‘lib, ular boshqaruv tizimlarida keng qo‘llanilmoqda. Ushbu yondashuv yordamida tizim parametrlarining noaniqligi hisobga olinadi va optimal boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, bashoratlovchi boshqaruv tizimlari energiya tizimlarining kelajakdagi holatini oldindan aniqlash va optimal boshqaruv signallarini shakllantirish imkonini beradi. Bunda neyron tarmoqlar va fuzzy mantiqqa asoslangan modellar yuqori samaradorlik ko‘rsatadi.

Shu sababli, gibrid energiya tizimlarini modellashtirish va boshqaruv algoritmlarini takomillashtirish, ayniqsa neyro-noravshan yondashuv asosida, dolzarb ilmiy masala hisoblanadi.

ISHDAN MAQSAD. Mazkur ishning maqsadi gibrid elektr energiya tizimlarini modellashtirish va boshqarishda energiya manbalari va yuklama o‘rtasidagi noaniqliklarni hisobga oluvchi neyro-noravshan modelga asoslangan boshqaruv algoritmini ishlab chiqish va uning samaradorligini baholashdaniborat.Shuningdek, ishlab chiqilgan model yordamida energiya

ISSN 3030-3907

taqsimotini optimallashtirish, tizim barqarorligini oshirish va real vaqt rejimida samarali boshqaruvni ta’minlash ko‘zda tutiladi.

MATERIALLAR VA USULLAR. Gibrid elektr energiya tizimini modellashtirish va boshqarish jarayonida quyosh panellari, shamol generatorlari, dizel generator va akkumulyatorlardan tashkil topgan tizim ko‘rib chiqildi. Tizimning ishlash jarayonida yuzaga keladigan noaniqliklar, parametrlarning o‘zgaruvchanligi va nochiziqli bog‘liqliklar an’anaviy matematik modellar yordamida aniq tavsiflab bo‘lmasligi sababli, neyro-noravshan yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqotda sun’iy intellektning ikki asosiy yo‘nalishi — neyron tarmoqlar va noravshan mantiq birlashtirilib, gibrid neyro-noravshan model ishlab chiqildi. Ushbu model Takagi–Sugeno xulosalash mexanizmiga asoslangan bo‘lib, kirish parametrlarining noaniqligini hisobga olgan holda chiqish signallarini aniqlash imkonini beradi.

Modelda kirish parametrlar sifatida energiya manbalarining asosiy ko‘rsatkichlari (quyosh nurlanishi, shamol tezligi, yuklama darajasi va akkumulyator holati) qabul qilindi. Ushbu parametrlar fuzzifikatsiya jarayonidan o‘tkazilib, lingvistik o‘zgaruvchilar ko‘rinishida ifodalandi. Noravshan qoidalar bazasi mutaxassis bilimlari asosida shakllantirildi.

Neyro-noravshan modelning tuzilishi ko‘p qatlamli neyron tarmoq asosida tashkil etilib, quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- kirish signallarini qabul qilish;
- noravshanlashtirish (fuzzifikatsiya);
- noravshan qoidalar asosida xulosalash;
- chiqish signallarini aniqlash (defuzzifikatsiya).

Modelni o‘qitishda gradient usullari, xususan xatolarni orqaga tarqatish (backpropagation) algoritmidan foydalanildi. Shu bilan birga, optimallashtirish jarayonida hisoblash yuklamasini kamaytirish va modelni real vaqt rejimida qo‘llash imkonini beruvchi yondashuvlar qo‘llanildi.

Tadqiqot natijalarini olish uchun MATLAB/Simulink muhitida modellashtirish ishlari olib borildi va ishlab chiqilgan model an’anaviy boshqaruv usullari bilan solishtirildi.

NATIJALAR VA XULOSA. Tadqiqot jarayonida gibrid elektr energiya tizimini boshqarish uchun neyro-noravshan model ishlab chiqildi va MATLAB/Simulink muhitida sinovdan o‘tkazildi. Model quyosh panellari, shamol generatorlari, dizel generator hamda akkumulyator batareyasining o‘zaro bog‘liqligini hisobga olgan holda energiya taqsimotini boshqarishga moslashtirildi.

Modellashtirish natijalariga ko‘ra, ishlab chiqilgan boshqaruv algoritmi energiya manbalari o‘rtasida yuklamani optimal taqsimlash imkonini berdi.

ISSN 3030-3907

Quyosh va shamol energiyasi yetarli bo‘lgan holatlarda dizel generatorning ishga tushish vaqti kamaydi, bu esa yoqilg‘i sarfini qisqartirishga xizmat qildi. Akkumulyator batareyasining zaryad va razryad jarayonlari muvozanatli boshqarildi hamda uning xizmat muddati uzaytirildi.Tizimning o‘zgaruvchan yuklama sharoitida ishlashi tahlil qilinganda, neyro-noravshan model an’anaviy boshqaruv usullariga nisbatan tezkor va barqaror natijalar ko‘rsatdi. Kirish parametrlaridagi noaniqliklar hisobga olingani sababli boshqaruv sifati yaxshilandi va energiya yo‘qotishlari kamaydi.

Olingan natijalar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

- gibrid energiya tizimlarini boshqarishda neyro-noravshan model samarali hisoblanadi;
- energiya manbalari o‘rtasida quvvat taqsimoti optimallashtiriladi;
- dizel generatorning ishlash vaqti qisqaradi;
- akkumulyator batareyasidan foydalanish samaradorligi oshadi;
- tizimning barqarorligi va ishonchliligi ortadi.

Shunday qilib, taklif etilgan boshqaruv algoritmi gibrid elektr energiya tizimlarini avtomatlashtirish va energiya samaradorligini oshirishda amaliy ahamiyatga ega.

Modelning birinchi kirish qatlami parametrik bo‘lmagan bo‘lib, kirish signallarini taqsimlanishini aks ettiradi va $x(k)$ vektor bilan tavsiflanadi:


$$x(k) = y = f_y(x_1, x_2, x_3) \qquad (1)$$

Yukoridagi (1) ifoda ob'ekt pi boshqaruv qiymatlari sonini va n_y chiqishidagi kiymatlar sonini o‘z ichiga oladi. x(κ) vektorga kiritilgan $p = 1, \ldots, P$ qiymatlari (ya'ni kirish soni) modellashtirish ob'ektining asosiy tarkibida aniqlanadi. Vektor elementlari soni ko‘pligi aniqroq modellashtirishga olib keladi, ammo noravshan qoidalar va o‘qitish parametrlari soni ortib borishi bilan xisoblash tartibini xam murakkablashtiradi.

Bashoratlovchi modelning ikkinchi qatlami parametrik bulib, u kuyidagi munosabatlar bilan tavsiflangan Gauss funksiyalari yordamida chaplash operasiyasini bajaradi:

$$\mu_{Xp,m}^{(n)} = exp\frac{-(x_p - c_{Xp,m})^2}{2\sigma_{Xp,m}^2} \qquad (2)$$

ISSN 3030-3907



1-rasm. Tadqiqot ob'ekti gibrid modelining neyro-noravshan tuzilishi

bu erda $\mu_{p1} \ldots . \mu_{pm}$ - kirish uzgaruvchisini xr noravshan to‘plamga ko‘sh darajalari, $c_{Xp,m}\ va\ \sigma_{Xp,m}$ - aloxida to‘plamlarning markazi va kengligi.

Uchinchi qatlamda noravshan mantiqiy qoidalardan kelib chiqqan holda, ularning A' soni neyro-noravshan modeli p ning soni va ularga keladigan noravshan to‘plamlar soni $m = 1 \ldots ., M$ funksiyasidir va ularni quyidagi shaklda xosil bulgan tr kombinasiyasi bilan hisoblanadi.

$$R : agar x_1 = \tilde{X}_1 va\ x_2 = \tilde{X}_2 va\ x_p = \tilde{X}_p,$$

U holda

$$f_y = \tilde{b}_0^{(N)} \qquad (3)$$

bu erda $\tilde{X}_p,\ f_y,\ p = 1, \ldots \ldots . P$ -noravshan to‘plamlarni bildiradi, f_y Sugeno funksiyasi, b_0 - erkin xad bulib, shovqin filtri rolini bajaradi.

Modelning so‘nggi ikki qatlami parametrsiz bo‘lib, chiqishda chaplash mexanizmini tashkil kiladi. Turtinchi katlamda implikasiya operasiyasi o‘rtacha og‘irlik yordamida amalga oshiriladi:

$$\mu_{yq} = \mu_{x1,m} * \mu_{x2,m} * \ldots . * \mu_{xp,m} \qquad (4)$$

Neyron tarmogining beshinchi qatlamida kuyidagi ifoda yordamida chiqadigan kattalikning qiymatini aniqlash to‘g‘risida Karor kabul kilinadi:

$$\hat{y}_M = \frac{\sum_{i=1}^{q} f_y^{(i)} \mu_y^i}{\sum_{i=1}^{q} \mu_y^i} \qquad (5)$$

(5) ifoda -q faollashtirilgan koidalarga ega bo‘lgan diskret ko‘rinishdagi ob'ektning bashorat qilinuvchi chiqishini bildiradi.

Boshqaruv samaradorligini aniqlash uchun cheklovlarga ega bo‘lmagan

ISSN 3030-3907


optimallikning maqsad mezonidan foydalanilgan [70; 248 b., 84; 2-24 b.] .

$$\hat{E}(i) = r(i) - \hat{y}(i), i = N_1, N_1 + 1, .. N_p.$$

Neyro -noravshan bashoratlovchi regulyatorning harakatlar ketma ketligini aks ettiruvchi algoritmi 2 -rasmda keltirilgan.

Ta'riflangan umumlashtirilgan neyro - noravshan bashoratlovchi regulyator to‘rtta kirishga ega va ularning har biri Gauss funksiyalarining uchta to‘plami yordamida chaplash operasiyasiga uchraydi. Uning asosiy kamchiliklaridan biri bu bashoratlovchi model bilan ishlaydigan noravshan qoidalarning ko‘pligidir. Ushbu qoidalarning soni $N = m^p$ ifodadan aniqlanadi . Shuning uchun , bizning xolatimizda , koidalar soni 81 ga teng.

Demak, ushbu modelni o‘qitish davomida modelni real vakt rejimida ishlashga, ayniqsa, tez o‘zgaruvchan dinamik xususiyatlarga ega jarayonlarga deyarli yaroksiz kiladigan parametrlarning ko‘pligi mavjud.



2-rasm . Neyro-noravshan bashoratlovchi regulyator algoritmi

XULOSA. Mazkur maqolada gibrid elektr energiya tizimini modellashtirish va boshqaruv algoritmlarini tahlil qilish masalalari ko‘rib chiqildi. Gibrid tizim tarkibidagi quyosh panellari, shamol generatorlari, dizel generator hamda akkumulyator batareyalarining o‘zaro bog‘liqligi va ishlash jarayonidagi noaniqliklar tahlil qilindi. Tadqiqot natijasida gibrid energiya tizimini boshqarish uchun neyro-noravshan model taklif etildi. Ushbu model energiya manbalari o‘rtasida quvvatni optimal taqsimlash, yuklama o‘zgarishlariga moslashish hamda tizimning barqaror ishlashini ta’minlash imkonini berdi.Shuningdek, modellashtirish natijalari sun’iy intellekt asosidagi boshqaruv algoritmlari an’anaviy boshqaruv usullariga nisbatan yuqori samaradorlikka ega ekanligini

ISSN 3030-3907

ko‘rsatdi. Energiya yo‘qotishlari kamaydi, dizel generatorning ishlash vaqti qisqardi hamda akkumulyator batareyasidan foydalanish samaradorligi oshdi.

Shu sababli, gibrid elektr energiya tizimlarini neyro-noravshan modellar asosida boshqarish zamonaviy energetika tizimlarida istiqbolli yo‘nalishlardan biri bo‘lib, kelgusida real amaliy tizimlarda qo‘llash uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishga oid qarorlari va farmonlari. Toshkent, 2019–2024.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022.
3. Haykin S. Neural Networks and Learning Machines. – New York: Pearson Education, 2009.
4. Jang J.S.R., Sun C.T., Mizutani E. Neuro-Fuzzy and Soft Computing. – New Jersey: Prentice Hall, 1997.
5. Zadeh L.A. Fuzzy Sets // Information and Control. – 1965. – Vol. 8. – P. 338–353.
6. Ross T.J. Fuzzy Logic with Engineering Applications. – London: Wiley, 2010.
7. Bishop C.M. Pattern Recognition and Machine Learning. – New York: Springer, 2006.
8. Goodfellow I., Bengio Y., Courville A. Deep Learning. – Cambridge: MIT Press, 2016.
9. Kothari D.P., Nagrath I.J. Modern Power System Analysis. – New Delhi: McGraw Hill, 2011.
10. Rashid M.H. Power Electronics: Circuits, Devices and Applications. – London: Pearson, 2014.
11. MATLAB Simulink User Guide. MathWorks Inc., 2023.
12. Arduino Project Handbook. – San Francisco: No Starch Press, 2017.
13. Bollen M.H.J. Understanding Power Quality Problems. – New York: IEEE Press, 2000.
14. Gupta R., Singh B. Hybrid Renewable Energy Systems: Design and Control. // Renewable Energy Journal, 2021.
15. Karimov A.A., Xasanov B.R. Gibrid energiya tizimlarini boshqarishda sun’iy intellekt usullaridan foydalanish // Texnika fanlari axborotnomasi. – Toshkent, 2023.
16. Abdullayev J.J., Rahimov S.T. Quyosh va shamol energiyasi asosidagi gibrid tizimlarni modellashtirish // Energetika muammolari jurnali. – Toshkent, 2022.

ISSN 3030-3907

17. Li J., Wang P. Intelligent Control of Hybrid Energy Systems // Energy Reports. – 2020.
18. Chen X., Zhao Y. Neuro-Fuzzy Modeling for Renewable Energy Applications // Applied Energy. – 2021.
19. IEEE Standards for Smart Grid and Renewable Energy Systems. – IEEE, 2022.
20. Internet manbalari: www.iea.org, www.sciencedirect.com, www.ieee.org, www.mathworks.com.

ISSN 3030-3907

AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA TA’LIM DASTURLARINING TA’SIRI: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI.

Diyarova Shaxloxon Rovshan qizi
Ayol MMT MCHJ O‘quv bo‘limi Rahbari
E-mail: Diyarova1008@gmail.com
Tel: +998935059292

Annotatsiya. Mazkur maqolada ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda ta’lim dasturlarining o‘rni va ta’siri O‘zbekiston tajribasi asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – ayollarni tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlashga qaratilgan o‘quv dasturlarining samaradorligini aniqlash hamda ularning iqtisodiy faollikka ta’sirini baholashdan iborat. Maqolada O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ta’lim tashabbuslari, xususan, “Ayol by CAU” o‘quv dasturi misolida amaliy tajriba yoritilgan. Mazkur dastur ayollar uchun qisqa muddatli, amaliy va mentorlikka asoslangan ta’lim modeli orqali ularning tadbirkorlik salohiyatini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Dastur doirasida ishtirokchilar biznes g‘oyalarni ishlab chiqish, moliyaviy savodxonlikni oshirish va real loyihalarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bunday ta’lim dasturlari ayollarning iqtisodiy mustaqilligini oshirish, ularni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka jalb etishda muhim vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, maqolada ta’lim dasturlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Ayollar tadbirkorligi, ta’lim dasturlari, iqtisodiy faollik, kompetensiyaviy yondashuv, andragogika, O‘zbekiston tajribasi, Ayol by CAU.

Аннотация. В данной статье анализируется роль и влияние образовательных программ на развитие женского предпринимательства на примере опыта Узбекистана. Основной целью исследования является определение эффективности образовательных программ, направленных на подготовку женщин к предпринимательской деятельности, а также оценка их влияния на экономическую активность. В статье также рассматривается практический опыт реализации образовательных инициатив в Узбекистане на примере программы «Ayol by CAU». Данная программа, основанная на краткосрочном, практико-ориентированном обучении и наставничестве, способствует развитию предпринимательского потенциала женщин. Участницы получают возможность разрабатывать бизнес-идеи, повышать уровень финансовой грамотности и реализовывать реальные проекты. Результаты исследования свидетельствуют о том, что подобные образовательные программы являются эффективным инструментом повышения экономической самостоятельности женщин и их вовлечения в

ISSN 3030-3907

сферу малого бизнеса и частного предпринимательства. В статье также предложены научно обоснованные рекомендации по совершенствованию образовательных программ.

Ключевые слова: женское предпринимательство, образовательные программы, экономическая активность, компетентностный подход, андрагогика, опыт Узбекистана, Ayol by CAU.

Abstract. This article analyzes the role and impact of educational programs on the development of women's entrepreneurship based on the experience of Uzbekistan. The main objective of the study is to assess the effectiveness of educational programs aimed at preparing women for entrepreneurial activities and to evaluate their impact on economic participation. The article also highlights practical experience from Uzbekistan, particularly through the example of the "Ayol by CAU" educational program. This initiative, based on short-term, practice-oriented training and mentorship, contributes to enhancing women's entrepreneurial potential. Participants gain opportunities to develop business ideas, improve financial literacy, and implement real projects. The results demonstrate that such educational programs are an effective tool for increasing women's economic independence and their engagement in small business and private entrepreneurship. The study also provides scientifically grounded recommendations for improving educational program design.

Keywords: women's entrepreneurship, educational programs, economic activity, competency-based approach, andragogy, Uzbekistan experience, Ayol by CAU.

KIRISH.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish, ularning huquq va manfaatlarini ta’minlash hamda tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Xususan, ayollar bandligini ta’minlash, ularni kasb-hunar va tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitish, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini kengaytirish bo‘yicha qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2026-yil 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan yo‘llangan tabrik nutqida xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni va iqtisodiy faolligini oshirish masalasiga alohida e’tibor qaratildi. Xususan, davlat rahbari quyidagilarni ta’kidladi:

“Ayollarni ishli va daromadli qilish masalasi hamisha e’tiborimiz markazida bo‘lib kelmoqda. O‘tgan yili xotin-qizlar bandligini ta’minlash va ularni

ISSN 3030-3907

tadbirkorlikka jalb etish maqsadida 23,5 trillion so‘m kredit yo‘naltirdik. Buning hisobidan 425 mingdan ortiq opa-singillarimiz tadbirkorlikka jalb qilindi.[1]”

Mazkur yondashuv mamlakatda xotin-qizlarni iqtisodiy faoliyatga jalb etish, ularning tadbirkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish hamda bandligini ta’minlash borasida olib borilayotgan islohotlarning muhim yo‘nalishini aks ettiradi. Ayniqsa, “Ayollar daftari” tizimi orqali manzilli ishlash, kasb-hunarga o‘qitish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining joriy etilishi bu boradagi ishlarning tizimli tus olganini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, zamonaviy iqtisodiyot sharoitida ayollarning tadbirkorlik faoliyatiga kirib kelishi ularning zarur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishini talab etadi. Shu bois, ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda ta’lim dasturlarining o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi va ularni ilmiy asosda o‘rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

METODOLOGIYA.

Mazkur tadqiqotda ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda ta’lim dasturlarining ta’sirini kompleks o‘rganish maqsadida bir qator zamonaviy ilmiy yondashuvlar qo‘llanildi. Xususan, kompetensiyaviy, andragogik va tizimli yondashuvlar tadqiqotning metodologik asosini tashkil etdi.

Kompetensiyaviy yondashuv doirasida ayollarda tadbirkorlik faoliyati uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratildi. Bu yondashuv Benjamin Bloom tomonidan ishlab chiqilgan ta’lim natijalarining ierarxik modeli va A.V. Khutorskoy tomonidan rivojlantirilgan kompetensiyaviy ta’lim konsepsiyalariga asoslanadi[2]. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, aynan kompetensiyaga asoslangan dasturlar ayollarning amaliy faoliyatga tayyorlik darajasini sezilarli oshiradi.

Andragogik yondashuv esa kattalar ta’limining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv Malcolm Knowles tomonidan asoslab berilgan bo‘lib, unda o‘quvchilarning hayotiy tajribasi, ichki motivatsiyasi va mustaqil o‘rganish qobiliyati muhim omil sifatida qaraladi[3]. Amaliy tajribalar, jumladan, O‘zbekistonda “Ayol by CAU” dasturi doirasida o‘tkazilgan treninglar shuni ko‘rsatadiki, interaktiv va amaliy mashg‘ulotlarga asoslangan o‘qitish shakllari ayollarning o‘zlashtirish darajasini an’anaviy ma’ruzalarga nisbatan yuqoriroq ta’minlaydi.

Tizimli yondashuv orqali esa ta’lim dasturlari iqtisodiy va ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganildi. Bu yondashuv Ludwig von Bertalanffy

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi

[2] Bloom B. *Taxonomy of Educational Objectives*. – 1956; Khutorskoy A.V. Kompetensiyaviy yondashuv.

[3] Knowles M. *The Adult Learner*. – 1984.

ISSN 3030-3907

tomonidan ilgari surilgan umumiy tizimlar nazariyasiga asoslanadi[4]. Mazkur nazariya ta’lim tizimini ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning ajralmas qismi sifatida ko‘rib chiqadi. Xususan, O‘zbekiston sharoitida ayollarni tadbirkorlikka jalb etish davlat siyosati, mehnat bozori va ta’lim tizimi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik orqali amalga oshirilmoqda.

Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va amaliy tajribalarni o‘rganish usullaridan foydalanildi. Xususan, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ta’lim tashabbuslari, jumladan, “Ayol by CAU” dasturi misolida amaliy tahlil olib borildi. Mazkur dastur doirasida qisqa muddatli treninglar, mentorlik tizimi va real biznes loyihalarni ishlab chiqish orqali ayollarning tadbirkorlik ko‘nikmalari shakllantirilayotgani kuzatildi.

Shuningdek, xalqaro tajriba tahlili ham shuni ko‘rsatadiki, Jahon banki tadqiqotlariga ko‘ra, ayollar uchun mo‘ljallangan ta’lim va trening dasturlarida ishtirok etganlarning 20–30 % gacha qismi o‘z biznes faoliyatini boshlashga muvaffaq bo‘ladi[5]. Bu esa ta’lim dasturlarining iqtisodiy samaradorligini yaqqol tasdiqlaydi.

Demak, yuqoridagi yondashuvlarning integratsiyalashgan holda qo‘llanilishi ayniqsa O‘zbekiston sharoitida dolzarb hisoblanadi. Chunki bu yondashuvlar bir tomondan shaxsning individual rivojlanishini ta’minlasa, ikkinchi tomondan iqtisodiy tizim talablariga moslashuvni kuchaytiradi. Ayniqsa, kompetensiyaviy va andragogik yondashuvlarning uyg‘unligi ayollarni qisqa muddatda amaliy natijaga yo‘naltirilgan holda tayyorlash imkonini beradi.

TADQIQOT NATIJALARI.

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda ta’lim dasturlari muhim institutsional va amaliy vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xususan, kompetensiyaga asoslangan va amaliy yo‘naltirilgan ta’lim dasturlari ayollarning iqtisodiy faolligini oshirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.

Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda ayollarning mehnat bozoridagi ishtirok darajasi 2023–2024-yillarda 39–40 % atrofida bo‘lib, bu ko‘rsatkich erkaklarga nisbatan ancha past[6]. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarida ayollar ulushi so‘nggi yillarda 30 % dan ortiqni tashkil etmoqda[7].

[4] Bertalanffy L. *General System Theory*. – 1968.
[5] World Bank. *Women’s Economic Empowerment Report*. – 2022.
[6] World Bank. *Gender Data Portal: Uzbekistan – Female labor force participation rate*.
[7] O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. *Bandlik va tadbirkorlik bo‘yicha rasmiy ma’lumotlar*. – https://stat.uz

ISSN 3030-3907

Mazkur ko‘rsatkichlar ayollar iqtisodiy faolligini oshirishda ta’lim dasturlarining dolzarbligini tasdiqlaydi.

1. Iqtisodiy kompetensiyalarni shakllantirish

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tadbirkorlik va kasbiy ta’lim dasturlarida ishtirok etish ayollarning moliyaviy savodxonligi va biznes yuritish ko‘nikmalarini oshiradi.

Jahon bankining tadqiqotlariga ko‘ra, tadbirkorlik bo‘yicha treninglarda qatnashgan ayollarda biznes ko‘nikmalari va daromad olish imkoniyatlari sezilarli yaxshilangan[8]. Xususan, bunday dasturlar ayollarning biznes rejalashtirish, marketing va moliyaviy boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

2. Amaliy natijadorlik (bandlik va daromad)

Amaliy ta’lim dasturlari natijasida ayollar o‘z biznes faoliyatini boshlash yoki mavjud faoliyatini kengaytirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO) ma’lumotlariga ko‘ra, kasbiy tayyorgarlik va tadbirkorlik treninglari ayollarning bandlik darajasini oshirishda muhim rol o‘ynaydi hamda ularning o‘z-o‘zini band qilish imkoniyatlarini kengaytiradi[9].

O‘zbekiston amaliyotida ham qisqa muddatli kasbiy kurslar orqali minglab ayollar hunar o‘rganib, daromad manbaiga ega bo‘layotgani kuzatilmoqda[10].

3. O‘zbekiston tajribasi va “Ayol by CAU” dasturi

O‘zbekistonda ayollarni tadbirkorlikka jalb etishga qaratilgan ta’lim tashabbuslari, jumladan, “Ayol by CAU” dasturi muhim amaliy ahamiyatga ega. Mazkur dastur doirasida:

- ayollar uchun qisqa muddatli, amaliy treninglar tashkil etiladi;
- biznes g‘oyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish ko‘nikmalari shakllantiriladi;
- mentorlik va maslahat tizimi orqali individual qo‘llab-quvvatlash ta’minlanadi.

Bunday dasturlar ayollarning tadbirkorlik faoliyatiga kirib kelishini tezlashtiruvchi muhim mexanizm sifatida xizmat qilmoqda.

4. Psixologik va ijtimoiy ta’sir

Ta’lim dasturlari nafaqat iqtisodiy, balki psixologik jihatdan ham ijobiy natija beradi.

World Bank tadqiqotlariga ko‘ra, ayollar uchun tashkil etilgan trening dasturlari ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi, qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi va ijtimoiy faolligini kuchaytiradi[11].

---

[8] World Bank. *Women’s Economic Empowerment and Entrepreneurship Reports*.
[9] International Labour Organization (ILO). *Women and Employment Trends Reports*.
[10] O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. *Bandlik va tadbirkorlik bo‘yicha rasmiy ma’lumotlar*. – https://stat.uz
[11] World Bank. *Women’s Economic Empowerment and Entrepreneurship Reports*.

ISSN 3030-3907

Bu esa ayollarning iqtisodiy jarayonlarda faol ishtirok etishiga zamin yaratadi.

5. Hududiy rivojlanish va ijtimoiy ta’sir

O‘zbekiston Respublikasida “Ayollar daftari” tizimi doirasida olib borilayotgan ishlar natijasida minglab xotin-qizlar kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitilib, ularning bandligi ta’minlanmoqda[12].

Ayniqsa, qishloq hududlarida tashkil etilgan ta’lim dasturlari ayollarni daromad manbaiga ega qilish, oilaviy biznesni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirishda muhim rol o‘ynamoqda.

Yuqoridagi natijalar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim dasturlari ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda strategik ahamiyatga ega bo‘lgan samarali vosita hisoblanadi.

Demak, O‘zbekiston sharoitida ayniqsa amaliy va kompetensiyaga asoslangan ta’lim dasturlarini kengaytirish ayollar iqtisodiy faolligini oshirishning eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Chunki mavjud statistik ma’lumotlar ham ta’lim va kasbiy ko‘nikmalar ayollarning iqtisodiy mustaqilligini ta’minlashda asosiy omil ekanligini tasdiqlaydi.

Bundan tashqari, bunday ta’lim dasturlari ayollarning mehnat bozoriga moslashuvchanligini oshiradi, ularni zamonaviy kasb va tadbirkorlik faoliyatiga jalb etadi hamda daromad manbalarini diversifikatsiya qilish imkonini beradi. Ayniqsa, qisqa muddatli, amaliy va mentorlikka asoslangan o‘quv dasturlari ayollarning tezkor natijaga erishishiga, o‘z biznesini yo‘lga qo‘yishiga yoki mavjud faoliyatini kengaytirishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, bunday dasturlar nafaqat individual darajada, balki makroiqtisodiy darajada ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ya’ni, ayollar bandligining oshishi oilaviy daromadlar ko‘payishiga, kambag‘allik darajasining kamayishiga va umumiy iqtisodiy o‘sishning jadallashuviga olib keladi.

Shuningdek, ta’lim dasturlarini hududiy xususiyatlardan kelib chiqib moslashtirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va davlat hamda xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish ushbu jarayonning samaradorligini yanada oshiradi. Shu nuqtai nazardan, ayollarni iqtisodiy faollikka tayyorlashda innovatsion va integratsiyalashgan ta’lim modellarini rivojlantirish strategik ahamiyat kasb etadi.

MUHOKAMA.

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ta’lim dasturlari ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda muhim institutsional mexanizm sifatida namoyon bo‘lmoqda. Biroq, mavjud dasturlar samaradorligini yanada oshirish uchun ularni tizimli ravishda takomillashtirish zarur.

[12] Gov.uz: Ayollar daftari

ISSN 3030-3907

Avvalo, ta’lim dasturlarini **hududiy differensiallashgan yondashuv asosida kengaytirish** muhim hisoblanadi. O‘zbekiston sharoitida hududlar o‘rtasida iqtisodiy rivojlanish darajasi, infratuzilma va mehnat bozori imkoniyatlari turlicha bo‘lganligi sababli, o‘quv dasturlarini lokal ehtiyojlarga moslashtirish talab etiladi. Bu yondashuv Amartya Sen tomonidan ilgari surilgan “imkoniyatlar yondashuvi”ga mos ravishda, ayollar uchun real iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, **raqamli ta’lim texnologiyalarini keng joriy etish** dolzarb masalalardan biridir. Raqamli platformalar orqali masofaviy o‘qitish ayollarning ta’limga kirish imkoniyatini oshiradi, ayniqsa oilaviy majburiyatlari mavjud bo‘lgan ayollar uchun qulay sharoit yaratadi. World Bank hisobotlarida ham raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish ayollar bandligini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida qayd etilgan.

Uchinchidan, **startap va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish** zarur. Ta’lim dasturlari yakunida moliyaviy resurslarga kirish imkoniyati (grantlar, imtiyozli mikromoliyalar) ta’minlanmasa, olingan bilim va ko‘nikmalar amaliy natijaga aylanmasligi mumkin. Shu bois, ta’lim dasturlarini biznes-inkubatorlar va moliyaviy institutlar bilan integratsiya qilish muhim ahamiyatga ega.

To‘rtinchidan, **ta’lim tizimi va moliyaviy institutlar o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirish** ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda samarali mexanizm hisoblanadi. Gary Beckerning inson kapitali nazariyasiga ko‘ra, ta’limga kiritilgan investitsiyalar iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, biroq bu jarayon moliyaviy qo‘llab-quvvatlash bilan uyg‘unlashgandagina maksimal natija beradi. Shuningdek, ta’lim dasturlarini ishlab chiqishda monitoring va baholash tizimini joriy etish ham muhimdir. Bu orqali dasturlar samaradorligini aniqlash, ularni takomillashtirish va real iqtisodiy natijalarni baholash imkoniyati yaratiladi. Xulosa o‘rnida, yuqoridagi yo‘nalishlar bo‘yicha kompleks yondashuvni joriy etish ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Chunki ta’lim, moliya va institutsional qo‘llab-quvvatlash o‘zaro uyg‘unlashgandagina ayollar iqtisodiy faolligi barqaror va uzoq muddatli natijaga ega bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda ta’lim dasturlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mening fikrimcha, ayniqsa amaliy yo‘naltirilgan, moslashuvchan va kompetensiyaga asoslangan o‘quv dasturlari ayollarni iqtisodiy faoliyatga jalb etishda eng samarali vosita hisoblanadi.
Bunday ta’lim dasturlari ayollarga nafaqat zarur bilim va ko‘nikmalarni beradi, balki ularning iqtisodiy qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi,

ISSN 3030-3907

tashabbuskorlik va liderlik sifatlarini shakllantiradi hamda o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. Natijada, ayollar nafaqat ish izlovchi sifatida, balki ish beruvchi va iqtisodiy jarayonlarning faol subyekti sifatida shakllanadi. O‘zbekiston tajribasi, xususan, “Ayol by CAU” dasturi misolida, bunday ta’lim modellari ayollarning iqtisodiy mustaqilligini oshirish, ularni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish va jamiyat taraqqiyotida faol ishtirokini ta’minlashda muhim rol o‘ynayotganini ko‘rsatadi. Ushbu dastur amaliy mashg‘ulotlar, mentorlik va real biznes loyihalar asosida tashkil etilgani bilan ajralib turadi va qisqa muddatda sezilarli natijalarga erishish imkonini beradi. Shu bilan birga, bunday ta’lim dasturlarini yanada takomillashtirish, ularni hududiy xususiyatlarga moslashtirish, raqamli texnologiyalar bilan boyitish va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari bilan integratsiyalash zarur. Aynan shunday kompleks yondashuv orqali ayollar tadbirkorligini rivojlantirish barqaror va uzoq muddatli natijalarga ega bo‘ladi. Demak, ayollarni iqtisodiy faollikka jalb etishda ta’lim dasturlari nafaqat pedagogik vosita, balki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning strategik omili sifatida qaralishi lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi
2. Bloom B. *Taxonomy of Educational Objectives*. – 1956; Khutorskoy A.V. Kompetensiyaviy yondashuv.
3. Knowles M. *The Adult Learner*. – 1984.
4. Bertalanffy L. *General System Theory*. – 1968.
5. World Bank. *Women’s Economic Empowerment Report*. – 2022.
6. World Bank. *Gender Data Portal: Uzbekistan – Female labor force participation rate*.
7. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. *Bandlik va tadbirkorlik bo‘yicha rasmiy ma’lumotlar*. – https://stat.uz
8. World Bank. *Women’s Economic Empowerment and Entrepreneurship Reports*.
9. International Labour Organization (ILO). *Women and Employment Trends Reports*.
10. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. *Bandlik va tadbirkorlik bo‘yicha rasmiy ma’lumotlar*. – https://stat.uz
11. World Bank. *Women’s Economic Empowerment and Entrepreneurship Reports*.
12. Gov.uz: Ayollar daftari

ISSN 3030-3907

IDIOMALARNING KORPUS LINGVISTIKASIDAGI O‘RNI

Rajabov Shohrux Shavkat o‘g‘li
Termiz State University student
E-mail: shohruxrajabov200520@gmail.com
D.Ergasheva
Termiz State University student Ilmiy rahbar

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek tilini korpuslashtirishda asosiy e’tibor qaratilayotgan, madaniyatni tashuvchi presedent birliklar va idiomalarning korpusini yaratish bo‘yicha ilmiy mulohazalar keltirilgan. Korpus lingvistikasining asosiy vazifalari yoritib berilgan. O‘zbek tilshunosligida bu sohada qilinayotgan izlanishlar haqida ma’lumot berilgan. Shuningdek, bir qancha idiomalarning lingvistik korpusi ham tuzilgan. Misol tariqasida, maqoladagi frazeologizmlar kurpusi hamda tasviriy ifodalar korpusini keltirish mumkin.

Kalit so‘zlar: Korpus, korpus lingvistikasi, idioma, tasviriy ifoda, elektron baza, konsept, madaniyat, milliy korpus.

Abstract. This article presents scientific considerations on the creation of a corpus of precedent units and idioms that carry culture, which are the main focus of the Uzbek language corpus. The main tasks of corpus linguistics are highlighted. Information is provided about the research being conducted in this area in Uzbek linguistics. A linguistic corpus of several idioms has also been compiled. As an example, the corpus of phraseologisms and the corpus of figurative expressions in the article can be cited.

Keywords: Corpus, corpus linguistics, idiom, figurative expression, electronic database, concept, culture, national corpus.

Аннотация. В данной статье представлены научные соображения по созданию корпуса предшествующих единиц и идиом, несущих культурный подтекст, которые являются основным объектом исследования корпуса узбекского языка. Выделены основные задачи корпусной лингвистики. Приведена информация о проводимых в этой области исследованиях в узбекской лингвистике. Также составлен лингвистический корпус нескольких идиом. В качестве примера можно привести корпус фразеологизмов и корпус образных выражений, представленные в статье.

Ключевые слова: Корпус, корпусная лингвистика, идиома, образное выражение, электронная база данных, концепция, культура, национальный корпус.

KIRISH.

Til ma’naviy merosimizni asrash va boyitishning asosiy vositasi hisoblanadi. Tillarni saqlab qolish, ularni rivojlantirish milliy ma’naviyatni saqlab qolish va

ISSN 3030-3907

rivojlantirish demakdir. Zero, asl ma’naviyat faqat milliy shakldagina mavjud bo‘ladi. Shu boisdan mamlakatimizda o‘zbek tiliga bo‘lgan e’tibor kuchaymoqda. Tilimizning amaliy qo‘llanishini oshirish, abadiyligini saqlab qolish, jahonga yoyish uchun keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapdi. Binobarin, tilshunos olimlarimiz o‘zbek tilining milliy korpusini yaratishda izlanishlar olib bormoqda. Olimlarimiz korpus yaratishda fonetika, leksikologiya hamda matn ustida tadqiqot ishlarini yaratgan. Biroq hanuzgacha bu bo‘limlar to‘liq tizimlashtirilmadi. Axborot – texnologiya esa kun sayin taraqqiy etib, barcha sohalarga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Tilshunoslikda kompyuter texnologiyalari tilning keyingi hayotini belgilab beradigan asosiy vositaga aylanib ulgurdi. Professor Baxtiyor Mengliyev ta’kidlaganidek: “Axborot asrida rivojlanishga da’vogar har qanday til sun’iy intellekt tiliga aylanishi kerak. Ona tilimizning dunyo miqyosidagi nufuzi faqat tashviqot-targ‘ibot bilan oshmaydi. Sun’iy intellektga doxil bo‘lmagan tilning taraqqiyoti haqida gap ochish ham to‘g‘ri emas”.[13] Shunday ekan, o‘zbek tilining zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimida keng qo‘llanishiga erishish kechiktirib bo‘lmaydigan dolzarb vazifaga aylanishi zarur. O‘zbek tilining milliy korpusini yaratish bu nafaqat tilimizning mavqeyini mustahkamlaydi, balki madaniyatimizni jahonga yoyishga ham zamin yaratadi. Bugungi kunda ingliz va nemis madaniyati va urf-odatining jahonda ommaviy madaniyat sifatida tarqalishida til asosiy funksiyani bajarmoqda. Vaholangki, ushbu tillarning milliy korpusi o‘tgan asrning 80-90-yillarida yaratilib bo‘lingan. Bizning tilshunosligimizda esa kompyuter lingvistikasining tilni elektron tizimga dasturiy ta’minot asosida bo‘ysundiradigan, ya’ni korpus bazasini yaratish bilan shug‘ullanadigan korpus lingvistikasi yo‘nalishi juda kech shakllandi.

ASOSIY QISM.

Avtomatik tarjima sohasi hozirda juda katta yutuqlarga erishgan bo‘lsa-da, istalgan tildagi shu millatga xos bo‘lgan maqol, matal, ibora, aforizmlar, shuningdek, “xontaxta”, “chopon”, “mehmonxona”, “so‘ri”, “ shiypon” singari konsept so‘zlar bir tildan ikkinchi tilga tabiiy tarjimadagidek aynan tarjima qilinmaydi. Lekin kompyuter lingvistikasi sohasida ko‘plab yutuqlarga erishgan, sun’iy intellekt tiliga aylanib ulgurgan tillarda avtomatik tarjima jarayoni ancha sifatli. O‘zbek tilida esa mashina tarjimasiga kiritilgan matn to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilinadi. Matndagi ko‘chma ma’noli so‘z va jumlalar e’tiborga olinmaydi, chunki tilimizdagi frazeologizmlar, tasviriy ifodalar, aforizmlar va xalq og‘zaki ijodining maqol, matal, topishmoq kabi kichik janrlarining korpusi yaxlit tizim holiga keltirilmagan.

[13] https://kun.uz/news/2020/10/18/baxtiyor-mengliyev-ozbek-tilining-ham-milliy-korpusi-yaratilishi-lozim

ISSN 3030-3907

Frazeologizmalar – tarkibidagi barcha so‘zlari ko‘chma ma’noda qo‘llanadigan, odatda, ma’nosi bir so‘zga teng keluvchi turg‘un birikmalar. Bu barqaror birliklarning korpusini tuzishda quyidagi xususiyatlarini tizmga kiritish kerak:

1. Iboralarning sinonim variantlarini keltirish;
2. Ma’nosini to‘liq izohlash ;
3. Kamida ikkita xorijiy tildagi tarjimasini keltirish;
4. Kontekst ichida qo‘llanishini ko‘rsatish.

Iboralar korpusidagi bunday jihatlarni yanada kengaytirish mumkin. Jumladan, yuqoridagi ketma-ketlikka iboralarning antonimi, paronimi, ko‘p ma’noligi kabi xususiyatlarini qo‘shish mumkin. Quyidagi jadvalda frazeologizmlarning namunaviy tarzda tuzilgan lingvistik korpusi keltirilgan bo‘lib, bu izlanuvchilarga korpusi haqidagi boshlang‘ich tushunchalarga ega bo‘lishiga yordam beradi.

1-Jadval

№	Ibora	Sinonim variantlari	Ma’nosi	Ruscha / Inglizcha tarjimasi	Badiiy matnda qo‘llanishi
1	Og‘zi qulog‘ida	Boshi osmonga yetmoq, ichiga sig‘maslik, terisiga sig‘may ketmoq , masrur bo‘lmoq.	Juda xursand, shod bo‘lish.	Rus: Рот до ушей Eng: Wide grin	"Otabekning og‘zi qulog‘ida, ichiga sig‘mas shodlik bilan qaytib keldi."
2	Qovog‘idan qor yog‘moq	Chimiriq yozmaslik, qovog‘ini solmoq lab-lunjini osiltirmoq.	Kayfiyati juda yomon, vajohatli bo‘lish, o‘ta darajada xafa	Rus: Мрачнее тучи Eng: To look daggers	“Hoy bolam, namuncha sening qovog‘ingdan qor yog‘ilib turibdi, ayta qolsang-chi, kim kelyapti?” (G‘.G‘ulom. “Yodgor”)
3	Qo‘li gul	Hunari daryo, o‘n barmog‘i	Har qanday ishni san’at	Rus: Золотые руки	“Zokir ota, shubhasiz, juda tajribali paxtakor,

ISSN 3030-3907

		o‘n hunar, ishning ko‘zini biladigan, qilni qirq yoradigan.	darajasida bajarish.	Eng: Golden hands	qo‘li gul. Unga ayrim e’tibor qilish, shubhasiz, yaxshi.” (A.Qahhor. “Qo‘shchinor chiroqlari”)
4	Boshi osmonga yetmoq	Do‘ppisini osmonga otmoq, yetti iqlimni olmoq, og‘zi qulog‘ida bo‘lmoq, ko‘ngli shod bo‘lmoq.	Haddan tashqari quvonish, muvaffaqiyat.	Rus: На седьмом небе Eng: Over the moon	“O‘g‘lining yutug‘ini eshitgan onaning boshi osmonga yetdi”.
5	Yetti uxlab tushiga kirmaslik	Xayoliga keltirmaslik, tush ko‘ribdimi, o‘ylab ko‘rmaslik, tasavvur qilmaslik, anglamaslik, kutilmagan da bo‘lish.	Mutlaqo kutilmagan hodisa.	Rus: И во сне не снилось Eng: Never in a million years	“Abdushu kur tushida ham ko‘rmagan poytaxt teatrlarini maqtamoqchi bo‘lib endi so‘z boshlagan edi..” (Oybek. Qutlug‘ qon)
6	Tili qisqa	Bo‘yni egik, yerga kirib ketayozmoq, tilini qismoq, yuzi shuvut bo‘lmoq.	Aybi borligi uchun javob bera olmaslik, gapirmaslikka, e’tiroz bildirmaslikka majbur bo‘lmoq.	Rus: Быть в долгу Eng: At a disadvantage	“Uning tili qisiq bo‘lishiga sabab bo‘lgan gunohi shunday sodir bo‘lgan edi.” (A.Qahhor. Qo‘shchinor chiroqlari”

ISSN 3030-3907

7	Burni ko‘tarilmoq	Osmonda uchmoq, o‘zidan ketmoq, kerilib qolmoq, o‘ziga bino qo‘ymoq dimog‘i shishdi.	Kibrlanish, manmanlik qilish.	Rus: Задирать нос Eng: To be stuck up	“Qozing yo Hojilatif devonbeging hozir birontamizga burnini ko‘tarib gapirsa, hammamiz darrov arazlab ketamiz.” (S.Ayniy. Qullar)
8	Yuragi po‘kkillamoq	O‘takasi yorilmoq, es-hushi uchib ketmoq, rangi quv o‘chmoq, jonini hovuchlamoq, yuragi qinidan chiqmoq.	Qattiq qo‘rqish, vahimaga tushish.	Rus: Сердце в пятки Eng: To be terrified	"Qoron g‘uda sharpa ko‘rib, yuragi po‘kkillab qoldi." (M. Ismoiliy)
9	Oyog‘i qo‘liga tegmaslik	Yelib-yugurmoq, tinchlik bilmaslik, jonini jahdiga bermoq, oyog‘i yerga tegmay.	biror yumushni tinimsiz harakatlanib bajarmoq, yelib-yugurib xizmat qilmoq.	Rus: Бежать сломя голову Eng: To be very busy	“Hojarbibining oyog‘i qo‘liga tegmaydi. Keldi-ketdi, kechalari sham yetishmaydi”(A.Muxtor. Opa-singillar)
10	Xamirdan qil sug‘urgandek	Suv tekinga, pistadek gap, ko‘z ochib yumguncha	Ishni oson va muammosiz hal qilish.	Rus: Как по маслу Eng: Smooth as butter	"U bu mushkul ishni hamirdan qil su g‘urgandek bitirdi." (P. Qodirov)

ISSN 3030-3907

		, qiyinchiliksiz.			

Iboralar korpusining xuddi shu xususiyatlarini tasviriy ifodalarga qo‘llagan holda ularning ham korpus lingvistikasidagi elektron tizimini yaratish mumkin. Tasviriy ifodalar (perefraza) - narsa-buyum, shaxs yoki voqea-hodisaning nomini to‘g‘ridan to‘g‘ri aytmasdan, uning eng xarakterli belgi va xususiyatlarini tasvirlash orqali ifodalashdir. Yana ham aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, tasviriy ifodalar narsa va hodisalarning, shaxslarning (*g‘azal mulkining sultoni – Alisher Navoiy*) obrazli tarzda ifodalangan ikkinchi nomidir. Bu usul nutqning ta’sirchanligini oshirish, gapni badiiy bo‘yoqlar bilan bezash, takrorlarning oldini olish, madaniy unsurlarni yoyish uchun xizmat qiladi. Quyida tasviriy ifodalarning ham korpusi namuna sifatida tuzib chiqilgan.

2-Jadval

O‘zbek adabiy tilidagi tasviriy ifodalarning korpusini tuzish namunasi.

№	Tasviriy ifoda	Asl nomi	Ruscha / Inglizcha tarjima	Sinonimlari	Badiiy izohi
1.	**Musaffo osmon haydovchilari**	Uchuvchilar	Пилоты неба / Pilots	Havo lochinlari, samoviy burgutlar, qanotli do‘stlar, uchuvchi xodimlar, ko‘k egalari	Tinchlik posboni bo‘lgan musaffo osmon haydovchilari yurtimiz sarhadlarini hushyor qo‘riqlamoqdalar.
2.	**Oq oltin**	Paxta	Белое золото / White gold	Oq oltin, milliy boylik, oq tola	Dalalarda kumush qishloq yig‘im-terimi qizg‘in pallaga kirdi.
3.	**Zangori kema**	Traktor	Степной корабль / Tractor	Yer haydovchi, po‘lat tulpor, dehqon	Zangori kema dalani xuddi qog‘ozdek tilib, kuzgi shudgorni

ISSN 3030-3907

				yo‘ldoshi, dala kemasi, texnika mo‘jizasi	boshlab yubordi.
4.	**O‘rmon podshohi**	Arslon	Царь зверей / King of beasts	Hayvonlar sultoni, changalzor hukmdori,	O‘rmon podshohi bitta o‘kirishi bilan barcha jonivorlarni titratdi.
5.	**Sahro kemasi**	Tuya	Корабль пустыни / Ship of the desert	Qum barxani yo‘lovchisi, chidamlilik timsoli, karvonboshi , cho‘l texnikasi.	Qizilqum bag‘rida sahro kemalari sokin odimlab borardi.
6.	**Bilim maskani**	Maktab	Храм знаний / School	Ma’rifat uyi, ilm dargohi, ta’lim dargohi, ziyo maskani	Har bir bola uchun bilim maskani — kelajakka ochilgan ilk eshikdir.
7.	**Zangori olov**	Gaz	Голубой огонь / Natural gas	Yer osti ne’mati, zangori yoqilg‘i, tabiiy boylik, xonadon nuri, energo-manba	Qishning sovuq kunlarida zangori olov har bir xonadonga iliqlik baxsh etadi.
8.	**Qora oltin**	Neft / Ko‘mir	Черное золото / Black gold	Yer osti xazinasi, yonilg‘i	Mamlakat iqtisodiyotida qora oltin qazib

ISSN 3030-3907

				manbai, sanoat qoni, qora boylik, kon ne’mati	olish muhim o‘rin tutadi.
9.	**Dalalar malikasi**	Makkajo‘xori	Королева полей / Queen of fields	Sariq boshoq, bo‘ydor ekin, hosil nuri, chorva ozuqasi.	Dalalar malikasi bu yil har qachongidan ham mo‘l hosil berdi.
10.	**Riyoziyot sultoni**	Al-Xorazmiy	Султан математики / King of Algebra	Buyuk alloma, ilm yulduzi, algoritm asoschisi.	Riyoziyot sultoni Al-Xorazmiy jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘shgan.
11.	**Mo‘yqalam sohibi**	Rassom	Мастер кисти / Artist	San’atkor, tasvirchi, ijodkor, ranglar ustasi, rasm chizuvchi	Yosh mo‘yqalam sohibi tabiat manzarasini mahorat bilan tasvirladi.
12.	**Hayot manbai**	Suv	Источник жизни / Source of life	Obi hayot, tiriklik asosi, shaffof ne’mat, tabiat qoni, muqaddas ne’mat.	Suv — bu hayot manbai, uni isrof qilishga haqqimiz yo‘q.
13.	**Qanotli do‘stlar**	Qushlar	Пернатые друзья / Feathered friends	Havo yo‘lovchilari, sayroqi qushlar, tabiat ziynati, osmon mehmonlari	Bahor kelishi bilan qanotli do‘stlarimiz uzoq o‘lkalardan qaytishdi.

ISSN 3030-3907

14.	**G‘azal mulkining sultoni**	Alisher Navoiy	Султан поэзии / Sultan of poetry	Buyuk shoir, so‘z piri, ma’naviyat quyoshi, ulug‘ mutafakkir, o‘zbek adabiyoti quyoshi.	G‘azal mulkining sultoni asarlari asrlar osha yashab kelmoqda.

XULOSA.

2021- yilda o‘zbek tilining ta’limiy korpusi yaratilgan edi. Oradan qancha vaqt o‘tsa ham, o‘zbek tilining ta’limiy korpusi hali to‘liq shakllanmagan. Zero, korpus birdaniga paydo qilinadigan tizim emas. Uning shakllanishi, rivojlanishi va kengayishi uchun vaqtlar va lingvistik izlanishlar zarur bo‘ladi. O‘zbek tilshunosligida korpus lingvistikasining dastlabki nazariyalargina ishlab chiqilgan, amaliyoti endigina yo‘lga qo‘yilgan yosh soha hisoblanadi. So‘ngi yillarda bu sohadagi B.Mengliyev, Sh.Xamroyeva, N.Abdurahmonova, M.Abjalova, A.Eshmo‘minov, O‘.Xoliyorov, G.Toirova. D. O‘rinboyeva, G. Begmatova, B. Elov, A. Raxmonovalarning izlanishlarini keltirish mumkin. Bu izlanishlar asosida mualliflik korpuslarini tuzishning lingvistik asoslari, tabiiy tilni qayta ishlash, sinonim so‘zlarni semantik teglash, atov birliklarni leksik-semantik teglash, o‘zbek tilining ta‘limiy korpusini yaratish, elektron korpuslar modellari, korpus tuzishning kompyuter usullari tadqiq etildi.[14]

Tilshunoslikning leksikologiya bo‘limida o‘rganiladigan idiomalarning namunaviy bazasi, korpusi to‘g‘risida hamin qadar ma’lumotga ega bo‘ldik. Korpus lingvistikasining o‘rganish obyekti bilan tanishar ekanmiz. Korpus tuzishning naqadar mushkul ekanligini anglashimiz kerak. Yana shuni ham aytish kerakki, o‘zbek tili milliy korpusini tuzishda tilshunoslikning so‘z, ibora hamda uning ma’nolarini o‘rganuvchi leksikologiya bo‘limi asosiy tayanch bo‘lib xizmat qiladi. Xalqimining bir necha ming yillik tarixidagi barcha ma’no xazinalari ko‘chma ma’noda qo‘llanadigan birikmalarimizda, maqol, matal, aforizm va tasviriy ifodalarimizda o‘z aksini topgan. Biz tilimizning dunyoga yoyish bilan birga o‘zbek madaniyatini ham jahonga tarannum etamiz.

[14] M.Abjalova. Korpus lingvistikasi. Uslubiy qo`llanma. Toshkent.2022.

ISSN 3030-3907

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shavkat Rahmatullayev, Nizomiddin Mahmudov, Zulxumor Xolmanova, Iqbol O‘razova, Kamola Rixsiyeva “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati”. G‘afur G‘ulom nashriyoti. - TOSHKENT – 2022.
2. Rahmatulayev.Sh. O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari.-Toshkent,1966.
3. Mamatov.A. O‘zbek tili frazeologizmlarining shakllanish masalalari. Filol.f. doktr…diss.- Toshkent, 1999.
4. Baxtiyor Mengliyev, Mahbuba Xudoyberdiyeva, Oynisa Boymatova “O‘zbek tili iboralarining o‘quv izohli lug‘ati”. – Toshkent: Yangi asr avlodi.
5. Xolmonova Z. Kompyuter lingvistikasi (o‘quv qo‘llanma) Toshkent- 2019
6. Rahimov A. Kompyuter lingvistika asoslari. Toshkent: Akademnashr, 2011.
7. Polatov A. Kompyuter lingvistikasi Toshkent: Akademnashr, 2014.
8. https://kun.uz/news/2020/10/18/baxtiyor-mengliyev-ozbek-tilining-ham-milliy-korpusi-yaratilishi-lozim.
9. http://modmorph.turklang.net/ru/
10. http://www.promt.com/company/technology/hybrid_technology
11. http://www.dialog-21.ru/Archive/Directions/JPTRANSF.htm
12. https://universaldependencies.org/
13. https://www.clarin.eu/resource-families/parallel-corpora
Modelni soddalashtirish uchun kichik deformatsiyalar sharti qabul qilindi. Bu esa chiziqli elastiklik nazariyasini qo‘llash imkonini berdi. Hisoblashlar analitik ifodalar asosida olib borildi va natijalar materialning elastik xususiyatlarini baholashda ishlatildi. Ushbu yondashuv muhitning mexanik javobini aniqlashda aniq va ishonchli natijalar beradi hamda amaliy muhandislik masalalarida qo‘llash uchun qulay hisoblanadi.

Izotrop elastik muhit uchun Guk qonuni tensor ko‘rinishda quyidagicha yoziladi:

$$\sigma_{ij} = 2\mu u_{ij} + \lambda \delta_{ij} \sum_k u_{kk} \quad (1)$$

bu yerda: σ_{ij}- stress tensori, u_{ij}- strain tensori , λ, μ- Lamé koeffitsiyentlari, δ_{ij}- Kronecker delta

Ushbu tenglama izotrop materiallarda kuchlanish va deformatsiya o‘rtasidagi eng umumiy chiziqli bog‘lanishni ifodalaydi.

Agar komponentlar bo‘yicha yozilsa:

$$\sigma_{xx} = (2\mu + \lambda)u_{xx} + \lambda(u_{yy} + u_{zz}) \quad (2) \quad \sigma_{xy} = 2\mu u_{xy}$$


Bu formulalar normal va urinma kuchlanishlarni alohida ifodalaydi.

3. NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Olingan uchta grafik tensor ko‘rinishdagi Guk qonunining asosiy fizik mazmunini aniq va tizimli tarzda ifodalaydi hamda elastik materiallarning uch o‘lchovli xatti-harakatini tushunishga yordam beradi. Birinchi grafik ko‘p yo‘nalishli kuchlanish–deformatsiya bog‘lanishini ko‘rsatadi va unda asosiy yo‘nalishdagi kuchlanish deformatsiya ortishi bilan chiziqli ravishda oshib borishi kuzatiladi, bu esa materialning elastik rejimda ishlayotganini bildiradi. Shu bilan birga, yon yo‘nalishlardagi kuchlanishlarning manfiy qiymatga ega bo‘lishi

ISSN 3030-3907


materialning cho‘zilish vaqtida ko‘ndalang yo‘nalishda qisqarishini ko‘rsatadi. Bu hodisa Puasson effekti sifatida ma’lum bo‘lib, u real materiallarning uch o‘lchovli deformatsiyaga qanday javob berishini tushuntiradi. Ushbu natija shuni ko‘rsatadiki, hatto oddiy bir yo‘nalishdagi yuklanishda ham material ichida murakkab kuchlanish holati yuzaga keladi va bu holatni faqat tensor yondashuvi orqali to‘liq ifodalash mumkin.



1-grafik: Asosiy yo‘nalishda cho‘zilish va yon yo‘nalishda qisqarish


Ikkinchi grafik hajmiy deformatsiyaning o‘zgarishini ifodalaydi va bu grafikdan ko‘rinadiki, umumiy deformatsiya faqat bitta yo‘nalish bilan emas, balki barcha yo‘nalishlardagi deformatsiyalarning yig‘indisi bilan aniqlanadi. Bu natija material hajmining o‘zgarishi alohida fizik jarayon ekanini ko‘rsatadi. Agar yon deformatsiyalar hisobga olinmasa, umumiy deformatsiya noto‘g‘ri baholanadi. Grafikda hajmiy deformatsiyaning chiziqli o‘sishi materialning izotrop xossalarini tasdiqlaydi, ya’ni material barcha yo‘nalishlarda bir xil javob beradi. Bu esa ayniqsa issiqlik izolyatsiyasi materiallari va qurilish konstruksiyalarini hisoblashda muhim ahamiyatga ega, chunki bunday tizimlarda hajmiy kengayish yoki siqilish energiya samaradorligiga bevosita ta’sir qiladi.

ISSN 3030-3907



2-grafik: Hajmiy deformatsiya barcha yo‘nalishlar yig‘indisi ekanini ko‘rsatadi

Uchinchi grafik siljish deformatsiyasini tavsiflaydi va unda siljish kuchlanishi deformatsiyaga to‘g‘ri proportsional ravishda ortib borishi kuzatiladi. Bu natija siljish moduli orqali aniqlanadigan alohida mexanik xususiyat mavjudligini ko‘rsatadi. Siljish deformatsiyasi hajmiy o‘zgarish bilan bog‘liq emas, balki materialning shakli o‘zgarishi bilan bog‘liq. Bu esa ayniqsa mexanik tizimlarda, masalan, val, plastina yoki ramkali konstruksiyalarda juda muhim hisoblanadi, chunki ko‘p hollarda buzilish aynan siljish deformatsiyasi natijasida yuzaga keladi. Grafikning chiziqli xarakterga ega bo‘lishi elastik nazariyaning to‘g‘riligini tasdiqlaydi va kichik deformatsiyalar uchun ushbu modelning ishonchliligini ko‘rsatadi.



3-grafik: Siljish deformatsiyasi chiziqli bog‘lanishda o‘sadi

ISSN 3030-3907

Umuman olganda, ushbu grafiklar shuni ko‘rsatadiki, tensor ko‘rinishdagi Guk qonuni materiallarning real xatti-harakatini to‘liq va aniq ifodalaydi. Kuchlanish faqat bitta deformatsiyaga emas, balki barcha komponentlarga bog‘liq bo‘ladi, hajmiy va shakliy deformatsiyalar esa mustaqil fizik jarayonlar sifatida namoyon bo‘ladi. Bu natijalar muhandislik amaliyotida katta ahamiyatga ega, chunki ular yordamida uch o‘lchovli kuchlanish holatini aniqlash, konstruksiyalarning eng zaif joylarini topish va materiallarni optimal tanlash mumkin. Bundan tashqari, zamonaviy hisoblash usullari, xususan chekli elementlar usuli aynan shu nazariy asosga qurilgan bo‘lib, murakkab geometrik shakllar va yuklanish sharoitlarini aniq modellashtirish imkonini beradi.

4. XULOSA.

Tensor ko‘rinishdagi Guk qonuni elastik muhitlarda kuchlanish va deformatsiya o‘rtasidagi eng umumiy va to‘liq bog‘lanishni ifodalaydi hamda materiallarning uch o‘lchovli mexanik xatti-harakatini aniqlash imkonini beradi. Ushbu yondashuv orqali kuchlanish faqat bitta yo‘nalishga emas, balki barcha yo‘nalishlardagi deformatsiyalar bilan bog‘liq holda shakllanishi aniqlanadi, bu esa real konstruksiyalarni to‘g‘ri baholashda muhim ahamiyatga ega. Lamé koeffitsiyentlari yordamida materialning asosiy fizik xossalari, jumladan, hajmiy siqilish va siljish qarshiligi aniq tavsiflanadi, bu esa materiallarni solishtirish va tanlash jarayonini ancha soddalashtiradi.

Mazkur model muhandislik amaliyotida keng qo‘llanilib, qurilish konstruksiyalari, mexanik tizimlar va energiya samarador materiallarni hisoblashda asosiy nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, chekli elementlar usuli kabi zamonaviy sonli modellashtirish yondashuvlari aynan shu qonunga tayanadi va murakkab geometriyali hamda yuklanishli tizimlarni tahlil qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, bu model faqat kichik deformatsiyalar uchun amal qiladi va real sharoitlarda yuzaga keladigan nolinear hamda anizotrop xususiyatlarni to‘liq qamrab olmaydi. Kelajakda ushbu nazariyani kengaytirish orqali nolinear elastiklik, plastik deformatsiya va kompozit materiallar xatti-harakatini chuqurroq o‘rganish mumkin bo‘ladi.

ADABIYOTLAR

1. Ma’mura Bo‘ron qizi Norquvatova. Elastiklik kuchi. Guk qonuni mavzusini o‘qitish metodikasi, conference paper. ILM-FAN VA INNOVATSIYA ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023. doi: 10.5281/zenodo.15657738.

2. Sh.M. Ismoilov, B.K. Yusufbekov, B.B. Orifjonov. Fazoviy yuklanishlardagi sterjenning kuchlanganlik-deformatsiyalanish holatini chekli elementlar usuli asosida tahlil qilish, article. *Scientific Journal of Construction and Education*, vol. 4, no. 6, 2025.

ISSN 3030-3907

3. Namangan muhandislik-qurilish instituti. Texnik mexanika (I-qism), o‘quv-uslubiy majmua. Namangan, 2024.
4. Samarqand davlat universiteti. Elastiklik nazariyasi fanidan mustaqil ishlar topshiriqlari va ularni bajarishga oid uslubiy ko‘rsatmalar, o‘quv-uslubiy qo‘llanma. Samarqand, 2014.
5. N.S. Bibutov, A.X. Hojiyev. Materiallar qarshiligi, darslik. Toshkent, 2016.
6. M.M. Mirsaidov, L.I. Boymurodova, N.T. G‘iyosova. Nazariy mexanika, o‘quv qo‘llanma. Toshkent: “ILM ZIYO”, 2009.
7. Arthur P. Boresi, Ken P. Chong, James D. Lee. Elasticity in Engineering [8 [Mechanics, textbook. John Wiley & Sons, 2011.
8. Teodor M. Atanackovic, Ardeshir Guran. Theory of Elasticity for Scientists and Engineers, textbook. Springer, 2000.

ISSN 3030-3907

LMS TIZIMLARIDA TALABALAR FAOLIYATI MA’LUMOTLARI ASOSIDA O‘QUV JARAYONINING DIDAKTIK SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Murodova Guli Bo‘ronovna

Buxoro davlat universiteti “Axborot tizimlari va RT” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy raqamli ta’lim muhitining ajralmas qismi hisoblangan Learning Management System (LMS) platformalarida shakllanadigan talabalar faoliyati ma’lumotlari asosida o‘quv jarayonining didaktik samaradorligini baholash muammosi kompleks tarzda tadqiq etiladi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, an’anaviy baholash tizimlari asosan yakuniy natijalarga (test va imtihon ballariga) asoslangan bo‘lib, talabaning o‘quv jarayonidagi real faolligi, ishtiroki va o‘zlashtirish dinamikasini to‘liq aks ettira olmaydi. Maqolada LMS tizimlarida avtomatik ravishda yig‘iladigan real ma’lumotlar — xususan, talabalar tomonidan tizimga kirish chastotasi, o‘quv materiallari bilan ishlash intensivligi, topshiriqlarni bajarish jarayoni, forum va muhokamalardagi ishtirok darajasi hamda test natijalari — didaktik samaradorlikni aniqlovchi asosiy indikatorlar sifatida ko‘rib chiqiladi. Ushbu indikatorlar asosida o‘quv jarayonini baholashning pedagogik jihatdan asoslangan yondashuvi ishlab chiqiladi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida learning analytics konsepsiyasi, tizimli pedagogik tahlil va statistik umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqotda Moodle platformasida o‘qitilayotgan fanlar bo‘yicha shakllangan real o‘quv ma’lumotlari tahlil qilindi. Olingan natijalar talabalar faoliyati ko‘rsatkichlari bilan ularning akademik natijalari o‘rtasida sezilarli bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, muntazam tizimdan foydalanish, topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarish va muhokamalarda faol ishtirok etish o‘quv samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Maqolada shuningdek, talabalar faoliyatiga asoslangan didaktik samaradorlikni baholashning matematik modeli taklif etilib, u orqali o‘quv jarayonini monitoring qilish va pedagogik qarorlar qabul qilishni qo‘llab-quvvatlash imkoniyati asoslab beriladi. Taklif etilgan yondashuv o‘qituvchilarga talabalar faoliyatini chuqurroq tahlil qilish, o‘quv jarayonini individuallashtirish va ta’lim sifatini oshirish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari LMS tizimlarida mavjud ma’lumotlardan samarali foydalanish orqali ta’lim jarayonini boshqarishning yangi pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish mumkinligini ko‘rsatadi. Mazkur yondashuv raqamli ta’lim muhitida evidence-based pedagogika tamoyillarini joriy etishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: LMS, learning analytics, didaktik samaradorlik, pedagogik tahlil, talabalar faolligi, raqamli ta’lim, o‘quv jarayoni monitoringi.

ISSN 3030-3907

Аннотация. В данной статье комплексно исследуется проблема оценки дидактической эффективности учебного процесса на основе данных активности студентов, формируемых в системах управления обучением (Learning Management System — LMS), являющихся неотъемлемой частью современной цифровой образовательной среды. Актуальность исследования обусловлена тем, что традиционные системы оценивания в основном ориентированы на итоговые результаты (оценки за тесты и экзамены) и не отражают в полной мере реальную активность студентов, их участие и динамику усвоения знаний в процессе обучения. В статье рассматриваются реальные данные, автоматически собираемые в LMS-системах, включая частоту входа студентов в систему, интенсивность работы с учебными материалами, выполнение заданий, участие в форумах и обсуждениях, а также результаты тестирования, как основные индикаторы дидактической эффективности. На основе этих показателей разработан педагогически обоснованный подход к оценке учебного процесса. В качестве методологической основы исследования использованы концепция learning analytics, системный педагогический анализ и методы статистического обобщения. В работе проанализированы реальные образовательные данные, сформированные в системе Moodle. Полученные результаты показали наличие значимой взаимосвязи между показателями активности студентов и их академическими результатами. Установлено, что регулярное использование системы, своевременное выполнение заданий и активное участие в обсуждениях положительно влияют на эффективность обучения. В статье также предложена математическая модель оценки дидактической эффективности на основе активности студентов, которая позволяет осуществлять мониторинг учебного процесса и поддерживать принятие педагогических решений. Предложенный подход предоставляет преподавателям возможность более глубокого анализа деятельности студентов, индивидуализации обучения и повышения качества образования. Результаты исследования показывают, что эффективное использование данных LMS-систем открывает новые возможности для разработки педагогических механизмов управления образовательным процессом. Данный подход способствует внедрению принципов evidence-based педагогики в цифровой образовательной среде.

Ключевые слова: LMS, learning analytics, дидактическая эффективность, педагогический анализ, активность студентов, цифровое образование, мониторинг учебного процесса.

ISSN 3030-3907

Annotation. This article presents a comprehensive study of assessing the didactic efficiency of the learning process based on student activity data generated within Learning Management Systems (LMS), which are an integral part of the modern digital educational environment. The relevance of the study lies in the fact that traditional assessment systems are primarily focused on final outcomes (such as test and exam scores) and do not fully reflect students' actual engagement, participation, and learning dynamics. The study considers real data automatically collected in LMS platforms, including login frequency, interaction with learning materials, assignment completion, participation in forums and discussions, and test results, as key indicators of didactic efficiency. Based on these indicators, a pedagogically grounded approach to evaluating the learning process is developed. The research methodology is based on the concepts of learning analytics, systematic pedagogical analysis, and statistical methods. Real educational data obtained from the Moodle platform were analyzed. The results demonstrate a significant correlation between student activity indicators and academic performance. In particular, regular system usage, timely completion of assignments, and active participation in discussions were found to positively influence learning outcomes. Furthermore, the article proposes a mathematical model for evaluating didactic efficiency based on student activity data. This model enables effective monitoring of the learning process and supports pedagogical decision-making. The proposed approach allows instructors to conduct deeper analysis of student behavior, personalize the learning process, and improve the overall quality of education. The findings indicate that effective utilization of LMS-generated data can lead to the development of new pedagogical mechanisms for managing the educational process. This approach contributes to the implementation of evidence-based pedagogy in digital learning environments.

Keywords: LMS, learning analytics, didactic efficiency, pedagogical analysis, student activity, digital education, learning process monitoring.

KIRISH.

So‘nggi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim tizimida tub o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Raqamli ta’lim muhitining shakllanishi natijasida o‘quv jarayonini tashkil etish, boshqarish va baholash mexanizmlari yangi bosqichga ko‘tarildi. Xususan, Learning Management System (LMS) platformalari (Moodle, Canvas, Blackboard va boshqalar) zamonaviy ta’lim jarayonining markaziy komponentiga aylanib, o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqani, o‘quv materiallarini taqdim etishni hamda bilimlarni baholashni kompleks tarzda ta’minlamoqda.

ISSN 3030-3907

LMS tizimlarining muhim xususiyatlaridan biri shundaki, ular o‘quv jarayonida talabalar faoliyati haqida katta hajmdagi ma’lumotlarni avtomatik ravishda yig‘adi. Ushbu ma’lumotlar qatoriga talabalar tomonidan tizimga kirishlar soni, o‘quv materiallarini ko‘rish vaqti va chastotasi, topshiriqlarni bajarish holati, test natijalari, forum va muhokamalardagi ishtirok darajasi kabi ko‘rsatkichlar kiradi. Mazkur ma’lumotlar “raqamli izlar” (digital traces) sifatida qaralib, talabaning o‘quv jarayonidagi haqiqiy faolligini aks ettiradi.

An’anaviy pedagogik yondashuvlarda o‘quv jarayonining samaradorligi asosan yakuniy baholash natijalari orqali aniqlanadi. Biroq bu yondashuv talabaning bilimni o‘zlashtirish jarayonini, uning faoliyat dinamikasini va o‘quv jarayonidagi ishtirok darajasini to‘liq aks ettira olmaydi. Shu sababli zamonaviy pedagogikada o‘quv jarayonini baholashda faqat natijaga emas, balki jarayonning o‘ziga ham e’tibor qaratish zarurati yuzaga kelmoqda. Bu esa learning analytics konsepsiyasining rivojlanishiga olib kelmoqda.

Learning analytics – bu ta’lim jarayonida hosil bo‘ladigan ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va ular asosida pedagogik qarorlar qabul qilishga yo‘naltirilgan yondashuv bo‘lib, u o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv doirasida LMS tizimlarida yig‘ilgan ma’lumotlar talabalarning o‘quv faoliyatini baholash, muammoli nuqtalarni aniqlash va o‘quv jarayonini optimallashtirish imkonini beradi.

Pedagogik nuqtai nazardan qaralganda, talabaning faolligi, mustaqil ishlashi, ijtimoiy o‘zaro aloqasi va o‘zlashtirish dinamikasi didaktik samaradorlikning muhim komponentlari hisoblanadi. Masalan, Vygotskiy nazariyasiga ko‘ra, bilim ijtimoiy muloqot jarayonida shakllanadi, bu esa LMS tizimlaridagi forum va muhokama faoliyatining ahamiyatini oshiradi. Zimmerman tomonidan ilgari surilgan self-regulated learning nazariyasida esa talabaning o‘z faoliyatini boshqarishi va nazorat qilishi asosiy omil sifatida qaraladi. Bu jihatlar LMS tizimlarida yig‘ilgan ma’lumotlar orqali aniq kuzatilishi mumkin.

Mazkur muammoning dolzarbligi shundaki, mavjud LMS tizimlarida yig‘ilayotgan katta hajmdagi ma’lumotlar ko‘pincha faqat texnik monitoring darajasida foydalanilmoqda va pedagogik tahlil uchun yetarli darajada qo‘llanilmayapti. Natijada o‘qituvchilar ushbu ma’lumotlardan samarali foydalanish imkoniyatidan to‘liq foydalana olmayapti.

Shu munosabat bilan, ushbu maqolaning asosiy maqsadi – LMS tizimlarida talabalar faoliyati ma’lumotlari asosida o‘quv jarayonining didaktik samaradorligini baholashning pedagogik asoslangan yondashuvini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

ISSN 3030-3907

- LMS tizimlarida yig‘iladigan talabalar faoliyati ma’lumotlarini tahlil qilish;
- didaktik samaradorlikni aniqlovchi asosiy pedagogik indikatorlarni belgilash;
- talabalar faoliyati va o‘quv natijalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash;
- o‘quv jarayonini baholashning matematik modelini ishlab chiqish;
- pedagogik qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlovchi yondashuvni taklif etish.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda LMS tizimlarida mavjud real ma’lumotlar asosida o‘quv jarayonining didaktik samaradorligini baholashning kompleks pedagogik modeli ishlab chiqiladi va u o‘quv jarayonini chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Zamonaviy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo‘llash, xususan LMS platformalaridan foydalanish masalasi ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilgan. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan izlanishlar asosan learning analytics, educational data mining va raqamli pedagogika konsepsiyalariga asoslanadi.

Learning analytics tushunchasi ilk bor George Siemens tomonidan tizimli ravishda asoslab berilgan bo‘lib, u ta’lim jarayonida hosil bo‘ladigan ma’lumotlarni tahlil qilish orqali o‘quv samaradorligini oshirishga qaratilgan yondashuv sifatida ta’riflanadi. Siemens (2013) learning analyticsni o‘quvchilarning o‘rganish jarayonini tushunish va optimallashtirish uchun ma’lumotlardan foydalanish jarayoni sifatida izohlaydi.

Shuningdek, Rebecca Ferguson (2012) learning analytics rivojlanishining asosiy yo‘nalishlarini tahlil qilib, LMS tizimlarida yig‘iladigan ma’lumotlar pedagogik qaror qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlaydi. Uning fikricha, talabalar faoliyatiga oid ma’lumotlar nafaqat baholash, balki o‘quv jarayonini individuallashtirish uchun ham xizmat qiladi.

LMS ma’lumotlarini chuqur tahlil qilish masalasi Cristóbal Romero va Sebastián Ventura (2010) tomonidan educational data mining yo‘nalishida keng o‘rganilgan. Ular LMS platformalarida yig‘iladigan ma’lumotlarni klassifikatsiya, klasterlash va bashoratlash metodlari orqali tahlil qilishni taklif etgan. Tadqiqotchilar LMS log ma’lumotlari asosida talabalar xulq-atvorini aniqlash va o‘quv natijalarini prognoz qilish mumkinligini isbotlagan.

Pedagogik nazariyalar nuqtai nazaridan qaraganda, LMS tizimlaridagi faoliyatni tahlil qilish konstruktivistik yondashuv bilan bevosita bog‘liq. Lev Vygotsky tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy-konstruktivistik nazariyaga ko‘ra, bilimlar ijtimoiy o‘zaro ta’sir jarayonida shakllanadi. Shu sababli LMS tizimlaridagi forumlar, muhokamalar va hamkorlikdagi faoliyatlar talabalarning bilimni o‘zlashtirish jarayonida muhim rol o‘ynaydi.

ISSN 3030-3907

Bundan tashqari, Barry Zimmerman (2002) tomonidan ilgari surilgan self-regulated learning nazariyasi talabalar o‘z o‘quv faoliyatini mustaqil boshqarishi muhim ekanligini ko‘rsatadi. LMS tizimlarida yig‘iladigan ma’lumotlar aynan shu jarayonni — ya’ni talabaning o‘zini nazorat qilish, vaqtni boshqarish va faoliyatni rejalashtirish ko‘nikmalarini aks ettiradi.

Zamonaviy tadqiqotlarda LMS ma’lumotlari asosida o‘quv samaradorligini baholash masalasi ham alohida e’tibor qozonmoqda. Masalan, Dragan Gašević va uning hamkasblari (2015) talabalar faoliyati va akademik natijalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilib, LMS tizimlaridagi faoliyat ko‘rsatkichlari o‘quv natijalarining muhim prediktori ekanligini ko‘rsatgan.

Shu bilan birga, UNESCO tomonidan chop etilgan “Digital Learning” hisobotlarida raqamli ta’lim muhitida ma’lumotlarga asoslangan pedagogik qarorlar qabul qilish zarurligi ta’kidlangan. Hisobotda LMS tizimlarida yig‘iladigan ma’lumotlardan foydalanish ta’lim sifatini oshirishning muhim omili sifatida ko‘rsatiladi.

Mahalliy tadqiqotlarda esa LMS tizimlaridan foydalanish ko‘proq texnik va tashkiliy jihatdan o‘rganilgan bo‘lib, pedagogik tahlil va learning analytics asosida baholash masalalari yetarli darajada chuqur tadqiq etilmagan. Bu esa mazkur yo‘nalishda ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini ko‘rsatadi.

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki:

- LMS tizimlarida yig‘iladigan ma’lumotlar pedagogik tahlil uchun katta imkoniyatlarga ega;
- talabalar faoliyati va o‘quv natijalari o‘rtasida sezilarli bog‘liqlik mavjud;
- learning analytics yondashuvi o‘quv jarayonini optimallashtirishda samarali vosita hisoblanadi.

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda didaktik samaradorlikni baholashning kompleks modeli yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Ayniqsa, LMS ma’lumotlarini pedagogik nazariyalar bilan integratsiya qilgan holda baholash yondashuvlari kam uchraydi.

Mazkur maqola aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan bo‘lib, unda LMS tizimlarida yig‘ilgan real ma’lumotlar asosida o‘quv jarayonining didaktik samaradorligini baholashning pedagogik modeli taklif etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Mazkur tadqiqot zamonaviy pedagogikada muhim o‘rin tutuvchi ma’lumotlarga asoslangan ta’limni boshqarish (data-driven education) konsepsiyasiga asoslanadi. Ushbu yondashuvning mohiyati shundan iboratki, o‘quv jarayonida shakllanadigan barcha faoliyat izlari (digital footprints) nafaqat texnik monitoring uchun, balki chuqur pedagogik tahlil uchun ham asos bo‘lib xizmat qiladi.

ISSN 3030-3907

An’anaviy ta’lim tizimlarida o‘quv samaradorligi asosan yakuniy baholash natijalari orqali aniqlangan. Biroq, zamonaviy didaktik qarashlarga ko‘ra, bilimni baholash jarayonning o‘zini, ya’ni talabaning o‘quv faoliyati dinamikasini ham qamrab olishi lozim. Shu nuqtai nazardan, LMS tizimlarida shakllanadigan ma’lumotlar talabaning:

- o‘quv jarayonidagi ishtiroki,
- mustaqil ishlash darajasi,
- bilimni o‘zlashtirish strategiyasi,
- ijtimoiy faolligi

kabi muhim pedagogik jihatlarni aks ettiradi.

Mazkur tadqiqotda aynan shu yondashuv asosida LMS ma’lumotlari pedagogik kategoriya sifatida talqin qilinadi va didaktik samaradorlikni baholash vositasiga aylantiriladi.

Tadqiqot obyekti sifatida oliy ta’lim muassasasida LMS platformasi asosida tashkil etilgan o‘quv jarayoni tanlandi. Bu yerda LMS nafaqat texnologik vosita, balki pedagogik muhit sifatida qaraladi.

Tadqiqot predmeti esa LMS tizimida shakllanadigan talabalar faoliyati ma’lumotlari asosida o‘quv jarayonining didaktik samaradorligini aniqlash va baholash jarayonidir.

Tadqiqotda Moodle LMS platformasida shakllangan real o‘quv jarayoni ma’lumotlaridan foydalanildi. Ushbu ma’lumotlar o‘quv jarayonining tabiiy borishi davomida hosil bo‘lgani sababli, ular sun’iy eksperiment natijalari emas, balki real pedagogik faoliyatni aks ettiradi.

Tahlil qilingan dataset quyidagi xususiyatlarga ega:

- 150 nafar talaba
- 5 ta o‘quv kursi
- 16 haftalik o‘quv davri
- 18 mingdan ortiq faoliyat yozuvlari

Mazkur ma’lumotlar LMS tizimida avtomatik tarzda qayd etilgan bo‘lib, ular quyidagi pedagogik jarayonlarni aks ettiradi:

1. **Kognitiv faoliyat** – o‘quv materiallarini ko‘rish va o‘zlashtirish
2. **Amaliy faoliyat** – topshiriqlarni bajarish jarayoni
3. **Reflektiv faoliyat** – testlar orqali bilimni tekshirish
4. **Ijtimoiy faoliyat** – forum va muhokamalarda ishtirok

Shu jihatdan, LMS ma’lumotlari talabaning o‘quv jarayonidagi ko‘p qirrali faoliyatini kompleks tarzda aks ettiradi.

ISSN 3030-3907

Pedagogik indikatorlar tizimini shakllantirish. Tadqiqotda didaktik samaradorlikni baholash uchun indikatorlar tanlashda pedagogik nazariyalar asos qilib olindi. Har bir indikator muayyan pedagogik kategoriya bilan bog‘landi.

1-jadval.

Pedagogik indikatorlar va ularning didaktik asoslari

Indikator	**Pedagogik mazmuni**	**Nazariy asos**
Login faolligi	o‘quv intizomi va mustaqillik	self-regulated learning
Material ko‘rish	bilimni qabul qilish jarayoni	kognitiv nazariya
Topshiriqlar	bilimni mustahkamlash	behaviorizm
Forum ishtiroki	ijtimoiy o‘rganish	konstruktivizm
Test natijalari	bilim darajasi	baholash nazariyasi

Mazkur indikatorlar talabaning o‘quv jarayonidagi asosiy pedagogik faoliyatlarini to‘liq qamrab oladi.

Didaktik samaradorlikni baholash modeli. Tadqiqotda didaktik samaradorlikni kompleks baholash uchun integrallashgan model taklif etildi:

$$E = w1 \cdot L + w2 \cdot M + w3 \cdot A + w4 \cdot F + w5 \cdot T$$

Bu yerda: E – didaktik samaradorlik indeksi. L – login faolligi. M – material bilan ishlash. A – topshiriqlarni bajarish. F – forum faolligi. T – test natijalari

Ushbu modelda har bir komponent alohida pedagogik jarayonni ifodalaydi. Modelning asosiy afzalligi shundaki, u o‘quv jarayonini faqat yakuniy natija orqali emas, balki faoliyatning barcha bosqichlarini hisobga olgan holda baholaydi. Koeffitsiyentlar empirik kuzatishlar asosida belgilandi. Bu yerda topshiriqlar va testlar yuqori og‘irlikka ega bo‘lib, ular bilimni o‘zlashtirishning asosiy indikatorlari sifatida qaraldi.

Tadqiqotda LMS ma’lumotlarini tahlil qilish bir necha bosqichda amalga oshirildi:

1-bosqich: Ma’lumotlarni tozalash

Bu bosqichda noto‘g‘ri yoki takroriy yozuvlar chiqarib tashlandi. Bu jarayon natijalarning aniqligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

2-bosqich: Normalizatsiya

Turli ko‘rsatkichlarni yagona o‘lchovga keltirish uchun ular 0–1 oralig‘iga moslashtirildi. Bu esa indikatorlarni taqqoslash imkonini berdi.

3-bosqich: Agregatsiya

Talabalar faoliyati haftalik va umumiy ko‘rsatkichlarga birlashtirildi. Bu esa dinamik tahlil imkonini yaratdi.

Tadqiqotda pedagogik xulosalarni asoslash uchun statistik metodlardan foydalanildi:

ISSN 3030-3907

- o‘rtacha qiymatlar orqali umumiy tendensiyalar aniqlash
- korrelyatsiya orqali indikatorlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni baholash
- guruhlar kesimida taqqoslash orqali farqlarni aniqlash

Ushbu metodlar pedagogik tahlilni ilmiy asoslash imkonini berdi.

Mazkur metodologiya quyidagi pedagogik imkoniyatlarni yaratadi:

- o‘quv jarayonini real vaqt rejimida kuzatish
- talabalar faoliyatini chuqur tahlil qilish
- individual yondashuvni ta’minlash
- o‘quv jarayonini optimallashtirish

Bu esa zamonaviy pedagogikada evidence-based yondashuvni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi quyidagi cheklovlarga ega:

- LMS ma’lumotlari barcha pedagogik jarayonlarni to‘liq aks ettirmasligi mumkin
- talabaning ichki motivatsiyasi bevosita o‘lchanmaydi
- ma’lumot sifati tizimdan foydalanish darajasiga bog‘liq

NATIJALAR VA TAHLIL. Mazkur tadqiqot doirasida LMS tizimida yig‘ilgan talabalar faoliyati ma’lumotlari asosida o‘quv jarayonining didaktik samaradorligi kompleks tarzda tahlil qilindi. Tahlil jarayonida talabalar faolligi ko‘rsatkichlari bilan ularning akademik natijalari o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlanib, pedagogik jihatdan asoslangan xulosalar ishlab chiqildi.

Talabalar faoliyati va o‘quv natijalari o‘rtasidagi bog‘liqlik

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, LMS tizimidagi talabalar faolligi darajasi ularning akademik natijalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Faollik darajasi asosida talabalar uch guruhga ajratildi:

- past faollikdagi talabalar
- o‘rtacha faollikdagi talabalar
- yuqori faollikdagi talabalar

2 - jadval.


Faollik darajasi va akademik natijalar

Faollik darajasi	Login (o‘rtacha)	Topshiriq bajarish (%)	Forum ishtiroki	Test natijasi
Past	12	55%	2	68
O‘rtacha	28	72%	6	79
Yuqori	46	89%	11	91

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, talabalar faolligi oshgani sari ularning akademik natijalari ham sezilarli darajada ortib bormoqda. Ayniqsa, topshiriqlarni

ISSN 3030-3907

muntazam bajarish va forumlarda faol ishtirok etish yuqori natijalarga olib kelishi aniqlangan.



1-rasm. Talabalar faolligi va akademik natijalar o‘rtasidagi bog‘liqlik

Ushbu grafikda talabalar faolligi darajasi bilan ularning akademik natijalari o‘rtasidagi bog‘liqlik tasvirlangan. Grafikdan ko‘rinib turibdiki, talabalar faolligi oshib borgani sari ularning akademik natijalari ham izchil ravishda ortib bormoqda. Xususan, past faollikdagi talabalar o‘rtacha 68 ball natija ko‘rsatgan bo‘lsa, o‘rtacha faollikdagi talabalar 79 ball, yuqori faollikdagi talabalar esa 91 ball natijaga erishgan.

Mazkur holat LMS tizimlarida talabalar faol ishtirokining didaktik samaradorlikka bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Grafik natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘quv jarayonida muntazam faoliyat yuritish, topshiriqlarni bajarish va tizimdan samarali foydalanish bilim o‘zlashtirish darajasini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Tahlil natijasida har bir indikatorning o‘quv natijalariga ta’siri alohida o‘rganildi.

3-jadval.

Indikatorlarning ta’sir darajasi

Indikator	**Ta’sir darajasi**	**Pedagogik izoh**
Topshiriqlar	Yuqori	bilimni mustahkamlaydi
Testlar	Yuqori	bilimni baholaydi

ISSN 3030-3907

Materiallar	O‘rtacha	kognitiv faoliyat
Forum	O‘rtacha	ijtimoiy o‘rganish
Login	Past	intizom ko‘rsatkichi

Ushbu natijalar shuni ko‘rsatadiki, amaliy faoliyat (topshiriqlar) va reflektiv faoliyat (testlar) o‘quv samaradorligiga eng katta ta’sir ko‘rsatadi.

Pedagogik tahlil. Olingan natijalar zamonaviy pedagogik nazariyalar bilan mos keladi:

1. Self-regulated learning. Faol talabalar LMS tizimidan muntazam foydalanadi va o‘z o‘quv faoliyatini boshqaradi.

2. Konstruktivizm, Forumdagi muhokamalar bilimni ijtimoiy muhitda shakllantirishga yordam beradi.

3. Kognitiv nazariya. Materiallar bilan ishlash bilimni qabul qilish jarayonini kuchaytiradi.

Tahlil davomida quyidagi muhim holatlar aniqlandi:

- faqat tizimga kirish yetarli emas, faol ishtirok muhim
- topshiriqlarni bajarish eng kuchli indikator hisoblanadi
- forum faoliyati bilimni chuqurlashtiradi
- passiv talabalar ko‘pincha past natija ko‘rsatadi

Amaliy ahamiyat.

Mazkur natijalar asosida o‘qituvchilar:

- talabalarni erta bosqichda aniqlashi
- individual yondashuvni qo‘llashi
- o‘quv jarayonini optimallashtirishi mumkin bo‘ladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, LMS tizimlarida talabalar faoliyati ma’lumotlari o‘quv jarayonining didaktik samaradorligini baholashda ishonchli va muhim manba hisoblanadi. Ushbu ma’lumotlardan pedagogik tahlilda foydalanish ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA. Mazkur tadqiqotda LMS tizimlarida shakllanadigan talabalar faoliyati ma’lumotlari asosida o‘quv jarayonining didaktik samaradorligini baholashning pedagogik yondashuvi ishlab chiqildi va amaliy jihatdan asoslandi. Tadqiqot natijalari LMS platformalarida yig‘iladigan ma’lumotlar talabaning o‘quv faoliyatini obyektiv aks ettiruvchi muhim ko‘rsatkichlar tizimini shakllantirish imkonini berishini ko‘rsatdi.

Tahlillar natijasida talabalar faolligi va akademik natijalar o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik mavjudligi aniqlanib, o‘quv jarayonida faol ishtirok etuvchi talabalar yuqori natijalarga erishishi ilmiy asosda tasdiqlandi. Ayniqsa, topshiriqlarni bajarish va testlarda ishtirok etish o‘quv samaradorligiga eng katta ta’sir

ISSN 3030-3907

ko‘rsatuvchi pedagogik omillar sifatida aniqlangan bo‘lib, bu bilimni mustahkamlash va nazorat qilish jarayonining muhimligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot doirasida taklif etilgan indikatorlarga asoslangan didaktik model o‘quv jarayonini kompleks baholash imkonini beruvchi samarali vosita sifatida asoslandi. Ushbu model orqali talabalar faoliyatining turli jihatlari — kognitiv, amaliy va ijtimoiy komponentlar — yagona tizimda baholanadi. Bu esa ta’lim jarayonini chuqur tahlil qilish va ilmiy asosda boshqarish imkonini yaratadi.

Olingan natijalar LMS tizimlaridan pedagogik tahlilda foydalanish ta’lim sifatini oshirish, individual yondashuvni tashkil etish va o‘quv jarayonini optimallashtirishda muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, mazkur yondashuv o‘qituvchilarga talabalar faoliyatini real vaqt rejimida kuzatish va muammoli holatlarni erta aniqlash imkonini beradi.

Umuman olganda, LMS tizimlarida shakllanadigan ma’lumotlar asosida o‘quv jarayonining didaktik samaradorligini baholash zamonaviy pedagogikada istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi va ushbu yondashuvni amaliyotga joriy etish ta’lim jarayonining sifat ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Siemens, G. (2013). Learning Analytics: The Emergence of a Discipline. American Behavioral Scientist, 57(10), 1380–1400.
2. Ferguson, R. (2012). Learning analytics: Drivers, developments and challenges. International Journal of Technology Enhanced Learning, 4(5–6), 304–317.
3. Romero, C., & Ventura, S. (2010). Educational data mining: A review of the state of the art. IEEE Transactions on Systems, Man, and Cybernetics, 40(6), 601–618.
4. Gašević, D., Dawson, S., & Siemens, G. (2015). Let’s not forget: Learning analytics are about learning. TechTrends, 59(1), 64–71.
5. Baker, R. S., & Inventado, P. S. (2014). Educational Data Mining and Learning Analytics. In Learning Analytics (pp. 61–75). Springer.
6. Siemens, G., & Baker, R. S. (2012). Learning analytics and educational data mining: Towards communication and collaboration. Proceedings of the 2nd International Conference on Learning Analytics.
7. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
8. Zimmerman, B. J. (2002). Becoming a Self-Regulated Learner: An Overview. Theory Into Practice, 41(2), 64–70.
9. Anderson, T. (2008). The Theory and Practice of Online Learning. Athabasca University Press.

ISSN 3030-3907

10. Moodle Documentation. (2024). Moodle Learning Management System. Available at: https://moodle.org
11. UNESCO. (2021). AI and Education: Guidance for Policy-makers. UNESCO Publishing.
12. OECD. (2021). Digital Education Outlook 2021: Pushing the Frontiers with AI, Blockchain and Robots. OECD Publishing.
13. Aljohani, N. R., & Davis, H. C. (2012). Significance of learning analytics in enhancing learning. Proceedings of the International Conference on Information Technology.
14. Papamitsiou, Z., & Economides, A. A. (2014). Learning analytics and educational data mining in practice. Educational Technology & Society, 17(4), 49–64.
15. Romero, C., Ventura, S., & García, E. (2008). Data mining in course management systems. Computers & Education, 51(1), 368–384.

ISSN 3030-3907

FRANSUZ TILIDAGI DEFEKTIV (NUQSONLI) FE'LLAR: FUNKSIONAL VA SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Anorboyev Mamayusuf O'rol o'g'li
Turon universiteti Lingvistika (fransuz tili) yo'nalishi 2-bosqich magistranti
Qarshi, Uzbekistan
Jo'raqobilova Xamida
Turon universiteti Ilmiy rahbar
E-mail: mamayusuf_2000@mail.ru

Annotatsiya. Defektiv fe'llar fransuz tilining fe'l tizimida o'ziga xos kategoriya bo'lib, ular ayrim tuslanish shakllarining yo'qligi yoki cheklanganligi bilan tavsiflanadi.[Wikipédia, *Verbes défectifs en français]* Muntazam va nomuntazam fe'llardan farqli o'laroq, defektiv fe'llar to'liq tuslanish paradigmasiga ega emas, bu esa ularning funksional va semantik jihatlari bilan bog'liq masalalarni yuzaga keltiradi. Ushbu maqolada fransuz tilidagi defektiv fe'llarning funksional va semantik xususiyatlari zamonaviy grammatik va leksikografik manbalar, xususan Espace Français va Le Robert lug'atiga tayangan holda tahlil qilinadi. [EspaceFrançais, *Les verbes défectifs*] Tadqiqot natijalari defektivlik hodisasi fe'llarning semantik qiymati, ularning shaxssiz qo'llanishi hamda tarixiy taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: defektiv fe'llar, fransuzcha tuslanish, shaxssiz fe'llar, fe'l semantikasi, grammatik tizim

Abstract. Defective verbs constitute a specific category within the French verbal system and are characterized by the absence or restriction of certain inflectional forms. Unlike regular and irregular verbs, defective verbs do not possess a complete conjugational paradigm, which raises a number of issues related to their functional and semantic properties. This article analyzes the functional and semantic characteristics of defective verbs in French on the basis of contemporary grammatical and lexicographic sources, notably *Espace Français* and the *Le Robert* dictionary. The findings of the study demonstrate that the phenomenon of defectiveness is closely linked to the semantic value of verbs, their impersonal usage, and their historical development.

Keywords: defective verbs, French conjugation, impersonal verbs, verb semantics, grammatical system

Аннотация. Дефективные глаголы представляют собой особую категорию в системе французского глагола и характеризуются отсутствием или ограниченностью некоторых форм словоизменения. В отличие от правильных и неправильных глаголов, дефективные глаголы не обладают полной парадигмой спряжения, что порождает ряд вопросов, связанных с их

ISSN 3030-3907

функциональными и семантическими особенностями. В данной статье функциональные и семантические характеристики дефективных глаголов французского языка анализируются на основе современных грамматических и лексикографических источников, в частности *Espace Français* и словаря *Le Robert*. Результаты исследования показывают, что явление дефективности тесно связано с семантической ценностью глаголов, их безличным употреблением и историческим развитием.

Ключевые слова: дефективные глаголы, французское спряжение, безличные глаголы, семантика глагола, грамматическая система

KIRISH.

Qaysi oilada fransuz tiliga oshno bo‘lgan, dasturxon atrofida, meva bilan pishloq orasida, mehmonlarni til nozikliklari haqidagi savollar bilan chalg‘itishni xush ko‘radigan biror kishi topilmaydi, deya ayta olamiz? Shubhasiz, bunday savollar orasida fe’l tuslanishiga oid masalalar ham alohida o‘rin tutadi.

Shu bois “*choir* fe’lining hozirgi zamon davomli shakli qaysi?” kabi savol paydo bo‘lganda, hazm jarayoni ham jiddiy sinovdan o‘tadi. *Je choyais* deb javob bergan kishi yanglishadi, chunki bu shakl choyer fe’liga xos. Xuddi shuningdek, *accroire* fe’lining hozirgi zamon ko‘plik shakli sifatida *nous accroyons* variantini taklif etganlar ham xatoga yo‘l qo‘yadi. Bu fe’llar defektiv fe’llar hisoblanadi, ya’ni ularning tuslanishi to‘liq emas. Bunday “tuzoq”lardan faqat tilni mukammal bilishgina saqlab qolishi mumkin [https://www.lesoir.be/149694/article/2018-04-06/].

Defektiv fe’l nima?

Fransuz tilidagi fe’l tuslanishining qiziqarli jihatlari orasida *falloir* fe’lining ikkinchi shakldagi o‘tgan zamon sharti yoki savoir fe’lining o‘tgan zamon kon’yunktivi bilan bir qatorda “defektiv fe’llar” ham alohida o‘rin egallaydi. Lotincha *deficere* (“yetishmaslik”) so‘zidan kelib chiqqan bu atama ayrim zamon, mayl yoki shaxs shakllari mavjud bo‘lmagan fe’llarni anglatadi.

Mazkur ta’rif deyarli to‘liq tuslanadigan fe’llar bilan faqat bir necha shaklda qo‘llanadigan fe’llarni bir toifaga kiritish imkonini beradi. Masalan, *absoudre* fe’li faqat o‘tgan oddiy zamon va o‘tgan zamon kon’yunktivida defektiv bo‘lsa, *chaloir* fe’li hozirgi kunda faqat hozirgi zamon uchinchi shaxs birlik shaklida (il chaut) ishlatiladi.

Til tarixining oldingi bosqichlarida vaziyat boshqacha bo‘lgan. Masalan, qadimgi *issir* (“chiqmoq”) fe’lidan bugungi kunda faqat *issu* sifatdoshi saqlanib qolgan. *Accroire* fe’li hozir faqat infinitiv shaklda, *faire* yoki *laisser* fe’llari bilan birga qo‘llanadi. *Attraire* fe’li esa fe’l sifatida yo‘qolib, faqat *attrait* ot shaklida saqlangan.

ISSN 3030-3907

Ba’zi fe’l shakllari umumiy tildan chiqib ketgan bo‘lsa-da, mintaqaviy nutqda yashab qolgan. Masalan, transir fe’li hozir adabiy yoki eskirgan hisoblanadi, biroq Valoniyada u faol ishlatiladi: Nous avons souvent transi à l’approche des examens (« Biz imtihonlar yaqinlashganda ko‘pincha sovuqdan qotib qolardik (yoki: juda hayajonlanardik / qo‘rqardik).

Shuningdek, ayrim zamon va mayllarning qo‘llanmasligi nutq registri bilan ham bog‘liq. *Se casser, foutre, dégueuler* kabi so‘zlashuvga xos fe’llarda o‘tgan oddiy zamon yoki o‘tgan zamon kon’yunktivi faqat kulgili effekt yaratish maqsadida ishlatiladi. Xuddi shunday effekt eskirgan shakllarni jonlantirish orqali ham yuzaga keladi: *« Dieu, que ce que j’ois est triste !-(Xudoyim, men eshitayotgan narsa naqadar qayg‘uli! »*. j’ois — bu eski/fransuzcha arxaik shakl, hozirgi tilda j’entends (eshityapman) degani. Ifoda kuchli hissiy hayrat va qayg‘uni bildiradi [Grevisse, M., *Le Bon Usage*].

Fransuz grammatikasida fe’l barcha zamon, mayl va shaxslarda tuslana olmasa, u defektiv fe’l deb ataladi. Bu defektivlik qisman yoki deyarli to‘liq bo‘lishi mumkin [Riegel, Pellat, Rioul, *Grammaire méthodique du français]*.

Le Robert lug‘atiga ko‘ra, ayrim fe’llar faqat infinitivda *(accroire, quérir),* boshqalari esa faqat uchinchi shaxs birlikda (*falloir, pleuvoir*) ishlatiladi. Bu holat xato emas, balki ushbu fe’llarning o‘ziga xos grammatik xususiyatidir.

Defektiv fe’llarning funksional xususiyatlari. Tuslanish paradigmasining cheklanganligi

Defektiv fe’llarning asosiy funksional belgisi — tuslanish paradigmasining cheklanganligidir. Masalan, falloir fe’li faqat shaxssiz shaklda (il faut) qo‘llanadi. Boshqa shaxslarga oid shakllar mavjud emas [*Dictionnaire Le Robert*, entrée « verbes défectifs »].

Meteorologik fe’llar (*pleuvoir, neiger, grêler*) ham funksional jihatdan defektiv bo‘lib, ular inson irodasidan mustaqil tabiiy hodisalarni ifodalaydi. [*Dictionnaire Le Robert*, entrée « verbes défectifs »]

Shaxssiz qo‘llanish

Defektiv fe’llarning aksariyati shaxssiz fe’llar bo‘lib, undagi il olmoshi real referentga ega emas, faqat grammatik subyekt vazifasini bajaradi. Mazkur holat ularning tuslanishdagi cheklanishini izohlaydi.

Quyida fransuz tilida faqat infinitif shaklda ishlatiladigan nuqsonli fe’llardan jadval asosida misollar va tushuntirishlar berib o‘tamiz

1-Jadval

accroire	ishontirmoq
assavoir	bilmoq

ISSN 3030-3907

bienvenir	Xurmat ehtirom bilan qabul qilmoq
chevrer	Sabrsizlik qiolmoq
Courre	yugurmoq
Enquerre	Izlanmoq, ma’lumot olmoq
Ester	Adolatni targ‘ib qilmoq
Ferir	Urmoq, zarba bermoq
Malfaire	Zarar yetkazmoq
Querir	Qidirib bormoq
Ravoir	Qayta ega bo‘lmoq

Shunday qilib, yuqorida sanab o‘tilgan fe’llar fransuz tilida og‘zaki va yozma nutqda faqat infinitif (noto‘g‘ri) variantda ishlatiladi va shu kabi fe’llar allaqachon o‘z tuslanish shakllarini yo‘qotgan. Ular eskirgan yoki arxaik so‘zlar maqomini olishga ulgurgan.

Defektiv fe’llarning semantik xususiyatlari. Agentlikning past darajasi

Semantik jihatdan defektiv fe’llar ko‘pincha agentga ega bo‘lmagan holat yoki hodisalarni ifodalaydi. Masalan, pleuvoir tabiiy hodisani, falloir esa obyektiv zaruratni bildiradi. Shu sababli ular inson subyekti bilan bog‘lanmaydi.

Tarixiy taraqqiyot va semantik ixtisoslashuv

Ko‘plab defektiv fe’llar avvallari to‘liq tuslangan, biroq vaqt o‘tishi bilan ayrim shakllari yo‘qolgan. Ouïr va choir fe’llari bunga misoldir.

Ularning ma’nosining torayishi va ixtisoslashuvi ham defektivlikning kuchayishiga olib kelgan. [EspaceFrançais, op. cit.]

Defektiv fe’llarning grammatik tizimdagi o‘rni

Defektiv fe’llar fransuz fe’l tizimida chekka, ammo muhim o‘rin egallaydi. Ular grammatik me’yor va real nutq o‘rtasidagi ziddiyatni yaqqol ko‘rsatadi. Ushbu fe’llarni o‘rganish til tizimining dinamik tabiatini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Fransuz tilidagi defektiv fe’llar funksional va semantik omillarga asoslangan o‘ziga xos kategoriya hisoblanadi. Ayrim tuslanish shakllarining yo‘qligi shaxssizlik, agentlikning pastligi hamda tarixiy rivojlanish bilan izohlanadi. Defektiv fe’llar tahlili fransuz grammatik tizimining doimiy rivojlanib boruvchi, moslashuvchan tuzilma ekanini ko‘rsatadi.

Quyida ayrim nuqsonli fe’llar haqida so‘z yuritamiz:

Absoudre

Ta’rifi: Oddiy va kundalik tilda bu fe’l kechirmoq, uzr qilmoq, avf etmoq, oqlamoq degan ma’noni bildiradi.

ISSN 3030-3907

Tuslanishi: Bu fe’l barcha zamonlarda tuslanadi, faqat indikativning passé simple (oddiy o‘tgan zamon) va subjonctifning imparfait (o‘tgan zamoni) bundan mustasno.

Accroire

Ta’rifi: Aslida to‘g‘ri bo‘lmagan narsaga, noto‘g‘ri ta’sir ostida ishonib qolmoq.

Tuslanishi: Faqat infinitiv shaklida ishlatiladi, oldidan odatda faire (qildirmoq) fe’lining bir shakli, kamroq hollarda laisser (qo‘ymoq) fe’li keladi.

Misol:

Hazilkashlar to‘dasi, o‘zlarini ishontirmoqchi bo‘lgan va bizni ham ishontirmoqchi bo‘lgan, go‘yoki ular O‘rta yer dengizini kashf etganliklarini aytishadi. (Gustave Flaubert, “Correspondance”, 1876)

Apparoir

Ta’rifi: Ko‘rinib turmoq, aniq bo‘lmoq, yaqqol namoyon bo‘lmoq.

Tuslanishi: Faqat infinitiv shaklida faire fe’li bilan va indikativ hozirgi zamonda uchinchi shaxs birlikda (il appert) ishlatiladi.

Misol:

U o‘z haq-huquqining to‘g‘riligini namoyon qiladi.

Assavoir

Ta’rifi: Ma’lum qilmoq, xabardor qilmoq.

Tuslanishi: Faqat infinitiv shaklida faire fe’li bilan ishlatiladi.

Misol:

Urush vazirligining bir aylanma xati milliy gvardiyachilarga shuni ma’lum qiladiki, parlamenter (muzokarachi) yuborilishi urush hiylasi bo‘lishi mumkinligi sababli, dushman o‘q uzishni to‘xtatgan bo‘lsa ham, otishni davom ettirish kerak.(Edmond va Jules de Goncourt, “Journal”, 1871)

Bienvenir

Ta’rifi: Kimnidir qulay paytda kelgani sababli iliq kutib olmoq.

Émile Littré bu so‘zni defis bilan yozadi: bien-venir.

Tuslanishi: Bu fe’l faqat infinitiv shaklida ishlatiladi: Bienvenir quelqu’un (kimnidir yaxshi kutib olmoq).

Se faire bienvenir de quelqu’un (kimningdir tomonidan yaxshi kutib olinmoq).

Misol: Boemond oxir-oqibat bu shaxs haqida adashganidan qo‘rqdi va uni yaxshi kutib olishga rozi bo‘ldi. (Léon Bloy, La Femme pauvre, 1897)

Braire

Ta’rifi: Eshak haqida gapirganda, ovoz chiqarib hangramoq. So‘zlashuv tilida faire braire — juda zeriktirmoq degan ma’noni anglatadi.

ISSN 3030-3907

Tuslanishi: Braire faqat infinitiv hozirgi zamonda, indikativning hozirgi va kelasi zamonlarining uchinchi shaxslarida va shart maylida ishlatiladi:
il brait, ils braient, il braira, ils brairont; il brairait, ils brairaient.
Qolgan shakllari ishlatilmaydi.

Bruire

Ta’rifi: Yengil, noaniq shovqin chiqarmoq.

Tuslanishi: Bruire faqat infinitivda, hozirgi zamon sifatdoshi (participe présent)da va indikativning hozirgi hamda imparfait (o‘tgan davomiy zamon)dagi uchinchi shaxslarida ishlatiladi.
Shuningdek, subjonctifning hozirgi zamonida ham qo‘llanadi:

il bruit, ils bruissent ; il bruissait, ils bruissaient ; qu’il bruisse, qu’ils bruissent.

Misol: Uning nihoyatda muloyim ovozi, bolaligimdagi bu murojaat menda yana yosh buloqlarni ochadi; men tinglayman — tomchi-tomchi tarzda — tiniq va o‘tkinchi xotiralar shovqinini… (Colette, Claudine en ménage, 1902)

Chaloir

Ta’rifi: Muhim bo‘lmoq, ahamiyatli bo‘lmoq; e’tibor bermoq.

Tuslanishi: Bu nuqsonli (défectif) va shaxsga bog‘liq bo‘lmagan (impersonnel) fe’l hisoblanadi, asosan quyidagi shakllarda ishlatiladi:
peu me chaut (menga unchalik ahamiyati yo‘q),
il ne m’en chaut (menga buning ahamiyati yo‘q).

Shunga qaramay, boshqa zamon va mayllarda ham ayrim qo‘llanishlari uchraydi.

Misol: Biz uchun uning [Heinrich Schenker] bunda nimani ko‘rishi muhim emas! Biz uni (musiqani) ko‘rishimiz — yoki yaxshiroq aytganda, eshitishimiz kerak. (Romain Rolland, Beethoven, 1-jild, 1928)

Choir

Ta’rifi: O‘z og‘irligi ta’sirida, muvozanat buzilishi natijasida pastga tushmoq (tortishish qonuniga ko‘ra).
Oddiy sinonimi: tomber (yiqilmoq, tushmoq).

Tuslanishi: Choir kundalik tilda infinitivda, ayniqsa laisser (qo‘ymoq) fe’lidan keyin ishlatiladi.

Biroq, ko‘pchilik lug‘atlar aytganidek faqat infinitivda emas, balki indikativda ham tuslanadi: hozirgi zamon (faqat 1- va 2-shaxs birlik hamda 3-shaxslar mavjud, boshqa shakllar yo‘q), passé simple (oddiy o‘tgan zamon), kelasi zamon (cherra va choira shakllarida), shuningdek o‘tgan zamonning turli shakllarida (oddiy, qo‘shma, plus-que-parfait). Shuningdek, o‘tgan zamon sifatdoshi ham uchraydi: chu, chue.

ISSN 3030-3907

Clore

Ta’rifi: Kirishni oldini olish uchun yopmoq. O‘rab olmoq, devor bilan o‘rab qo‘ymoq, qamab qo‘ymoq.

Tuslanishi: Clore faqat to‘rtta oddiy zamonga ega:

indikativ hozirgi zamon: je clos, tu clos, il clôt (ko‘plik shakllari yo‘q), kelasi zamon: je clorai,

shart mayli: je clorais, o‘tgan zamon sifatdoshi: clos, close, hamda barcha qo‘shma zamonlarda ishlatiladi.

Déchoir

Ta’rifi: Oldingi holatdan pastroq holatga tushib qolmoq. (axloqiy, ijtimoiy jihatdan) pasaymoq.

Tuslanishi: Déchoir barcha zamonlarda va barcha shaxslarda ishlatiladi, ammo unda hozirgi zamon sifatdoshi (participe présent) va buyruq mayli (impératif) yo‘q.

Échoir

К важнейшим оптическим свойствам нефти и нефтепродуктов относятся оптическая плотность, содержание различных компонентов веществ и другие характеристики, которые можно контролировать с помощью оптических методов, в том числе с применением различных рефрактометров.[6].

Нефть характеризуется значениями оптического поглощения $0{,}01 < \chi < 0{,}2$. Достичь условий, при которых ее оптическая плотность не выходила бы за пределы рабочего интервала, обеспечивающего удовлетворительную точность фотометрических измерений ($0{,}2 < D < 0{,}8$), можно путем

ISSN 3030-3907

изменения концентрации поглощающего вещества (например, его разбавление растворителем). Недостатком этого способа является возможность случайных погрешностей и нарушение структуры анализируемого вещества.




Рис. 2 – Анализатор структурно-группового состава нефти и нефтесодержащих сред

Автором на основе линз и элемента НПВО разработан оптический анализатор структурно-группового состава нефти и нефтесодержащих сред (рис. 2). В точности и детальности определения он не уступает другим физико-химическим методам [7], превосходит их в экспрессности и простоте, обеспечивая неразрушающий контроль.

Метод НПВО обычно непригоден для исследования материалов с сильно меняющимся показателем преломления (например, кварца). В этих случаях не удается поддерживать угол падения выше критического во всем интервале длин волн.

При отсутствии достаточно хорошего контакта между образцом и элементом НПВО получаемые значения относительной интенсивности полос нельзя считать надежными.

Несмотря на указанные недостатки, метод НПВО во многих случаях расширил области применения оптической спектроскопии и упростил методику измерений, в частности процедуру приготовлении образца. В качестве подтверждения этого укажем на легкость получении спектров НПВО порошков. Другое важное преимущество метода НПВО – отсутствие интерференционных полос в спектре. Области применения оптической спектроскопии значительно расширились благодаря открывшейся возможности получать спектры НПВО объектов без разрушения последних (например, спектры пленок на поглощающих подложках, волокон, тканей, образцов, осажденных на фильтровальной бумаге, и т.д.). Еще одно преимущество метода НПВО перед методом пропускания пока еще не

ISSN 3030-3907

полностью используемое, это наличие на поверхности отражения электрических полей во всех трех пространственных направлениях, что важно при исследовании анизотропных материалов. По-видимому, самая важная область применения спектроскопии НПВО – это экспресс-анализ нефти и нефтепродуктов.

ЛИТЕРАТУРА

1. Харрик Н. Дж. Спектроскопия внутреннего отражения. М.: Недра, 305 с.
2. Рахимов Н.Р., Сайдахмедов Ш.М. и др. Оптический метод определения содержания воды в нефтепродуктах. Узбекский журнал нефти и газа, 2001 г., №1, с. 40-42.
3. Рахимов Н.Р., Сайдахмедов Ш.М., Тожиев Р.Ж, Хатамов С.О. Разработка приборов для экспрессного контроля запоследовательнойперекачной нефти//Узбекский журнал нефти и газа, 2001 г., № 3.
4. Рахимов Н. Р. Касымахунова А.М., Усмонов Ш. Оптоэлектронные средства неразрушающего контроля физико-химических параметров жидких сред. Киев: Техническая диагностика и неразрушающий контроль № 3, 2001 г., с. 40-43.
5. Сайдахмедов Ш.М., ТожиевР.Ж., Рахимов Н.Р., Хайдаров А.Х. Устройство для определения содержания эмульсионной воды в нефти и нефтепродуктах. Патент РУз. IDP 0227 от 30.05.2001 г.
6. Рахимов Н.Р., Тожиев Р.Ж., Сайдахмедов Ш.М. и др. Оптоэлектронное устройство для определения содержания эмульсионной воды в нефти и нефтепродуктах. Узбекский журнал нефти и газа, 2003 г., № 1.
7. Рахимов, Н.Р. Оптоэлектронные системы на основе эффекта НПВО для контроля технологических параметров нефти и нефтепродуктов / Н.Р. Рахимов, Л.Ф. Парфирьев // Изв. вузов. Приборостроение, 2005. - № 10. – С. 41 – 45.

ISSN 3030-3907

KORPORATIV TARMOQLARDA PHISHING HUJUMLARNI ANIQLASHDA URL TAHLILIGA ASOSLANGAN YONDASHUVLARNING SAMARADORLIGI

Ganiyev Abduxalil Abdujalilovich
Muxammad al – Xorazmiy nomidagi TATU "Axborot xavfsizligi" kafedrasi dotsenti.
Email: abduhalilganiyev58@gmail.com
Jalolov Mirzolim Saloxiddin o'g'li
Muxammad al – Xorazmiy nomidagi TATU "Axborot xavfsizligi" kafedrasi magistranti
E-mail: mirzolimhacker2001@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada korporativ tarmoqlarda phishing hujumlarni aniqlashda URL tahliliga asoslangan yondashuvlarning samaradorligi o'rganilgan. Phishing hujumlar zamonaviy kiberxavfsizlikning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib, ular asosan foydalanuvchilarni aldash orqali maxfiy ma'lumotlarni qo'lga kiritishga qaratilgan. Tadqiqotda URL manzillar asosida phishing hujumlarni aniqlashning mavjud usullari, jumladan, an'anaviy (blacklist va qoida asosidagi) hamda mashinaviy o'rganishga asoslangan yondashuvlar tahlil qilindi. Ish jarayonida URL manzillardan olingan leksik va strukturaviy xususiyatlar asosida bir nechta klassifikatsiya modellarining samaradorligi baholandi. Eksperimental natijalar turli yondashuvlarning aniqlik darajasi, sezgirligi va umumiy samaradorligi jihatidan qiyosiy tahlil qilinib, korporativ tarmoqlarda qo'llash uchun eng maqbul usullar aniqlangan. Olingan natijalar phishing hujumlarni aniqlash tizimlarini takomillashtirish hamda real vaqt rejimida samarali ishlovchi xavfsizlik mexanizmlarini ishlab chiqishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: phishing, URL tahlili, kiberxavfsizlik, korporativ tarmoqlar, mashinaviy o'rganish, klassifikatsiya, xavfsizlik, intrusion detection

Аннотация. В данной статье исследуется эффективность подходов, основанных на анализе URL, для обнаружения фишинговых атак в корпоративных сетях. Фишинговые атаки являются одной из наиболее актуальных проблем современной кибербезопасности и направлены на получение конфиденциальной информации пользователей путем обмана. В работе проведен анализ существующих методов обнаружения фишинговых атак на основе URL-адресов, включая традиционные подходы (черные списки и правила) и методы, основанные на машинном обучении. В процессе исследования была выполнена оценка эффективности различных моделей классификации на основе лексических и структурных характеристик URL. Экспериментальные результаты представлены в виде сравнительного

ISSN 3030-3907

анализа точности, чувствительности и общей эффективности различных подходов, что позволило определить наиболее оптимальные методы для применения в корпоративных сетях. Полученные результаты имеют практическое значение для совершенствования систем обнаружения фишинговых атак и разработки эффективных механизмов безопасности, функционирующих в режиме реального времени.

Ключевые слова: фишинг, анализ URL, кибербезопасность, корпоративные сети, машинное обучение, классификация, безопасность, системы обнаружения вторжений

Abstract. This paper investigates the effectiveness of URL-based approaches for detecting phishing attacks in corporate networks. Phishing attacks represent one of the most critical challenges in modern cybersecurity, aiming to obtain sensitive user information through deception. The study analyzes existing methods for detecting phishing attacks based on URL features, including traditional approaches (blacklist and rule-based methods) as well as machine learning-based techniques. During the research, the performance of several classification models was evaluated using lexical and structural features extracted from URLs. Experimental results are presented through a comparative analysis of accuracy, sensitivity, and overall effectiveness of different approaches, allowing the identification of the most suitable methods for deployment in corporate environments. The obtained results have practical significance for improving phishing detection systems and developing efficient real-time security mechanisms.

Keywords: phishing, URL analysis, cybersecurity, corporate networks, machine learning, classification, security, intrusion detection

KIRISH.

So‘nggi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan bir qatorda kiberxavfsizlikka tahdidlar ham sezilarli darajada ortib bormoqda. Ayniqsa, phishing attack turidagi hujumlar global miqyosda eng keng tarqalgan va zararli kiberxavf manbalaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Phishing hujumlarining asosiy maqsadi foydalanuvchilarning maxfiy ma’lumotlarini, jumladan login-parollar, bank rekvizitlari va boshqa muhim axborotlarni firibgarlik yo‘li bilan qo‘lga kiritishdan iborat bo‘lib, bu holat ayniqsa korporativ tarmoqlar uchun katta xavf tug‘diradi [1].

Korporativ axborot tizimlarida phishing hujumlarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi moliyaviy yo‘qotishlar, xizmatlarning to‘xtab qolishi hamda tashkilot obro‘sining pasayishiga olib kelishi mumkin. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, ko‘plab kiberhujumlar aynan foydalanuvchini aldash orqali amalga oshiriladi va bu jarayonda asosiy vosita sifatida zararli URL manzillar qo‘llaniladi

ISSN 3030-3907

[2]. Shu sababli, URL analysis asosida phishing hujumlarni aniqlash usullari zamonaviy kiberxavfsizlik tizimlarining ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

Hozirgi kunda phishing URLlarni aniqlashda turli yondashuvlar mavjud bo‘lib, ular orasida qora ro‘yxat (blacklist), qoida asosidagi (rule-based) va mashinaviy o‘rganishga asoslangan usullar keng qo‘llaniladi. Biroq ushbu yondashuvlarning har biri ma’lum kamchiliklarga ega. Xususan, blacklist usullari faqat oldindan ma’lum bo‘lgan zararli manzillarni aniqlash imkonini bersa, yangi (zero-day) phishing URLlarni aniqlashda samarasiz hisoblanadi. Qoida asosidagi tizimlar esa murakkab va tez o‘zgaruvchan phishing strategiyalariga moslashishda qiyinchiliklarga duch keladi [3].

Mashinaviy o‘rganish va sun’iy intellektga asoslangan yondashuvlar esa phishing URLlarni aniqlashda yuqori aniqlikni ta’minlash imkonini bersa-da, ular ko‘p hollarda katta hajmdagi ma’lumotlarga bog‘liqligi, modelning ortiqcha o‘qitilishi (overfitting) va real vaqt rejimida ishlash samaradorligi bilan bog‘liq muammolarni yuzaga keltiradi [4]. Ayniqsa, korporativ tarmoqlarda yuqori tezlikda kirib kelayotgan trafikni tahlil qilishda ushbu omillar muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan, phishing hujumlarni aniqlashda URL tahliliga asoslangan yondashuvlarning samaradorligini chuqur o‘rganish, ularni qiyosiy tahlil qilish va amaliy jihatdan baholash dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — korporativ tarmoqlarda phishing hujumlarni aniqlashda URL tahliliga asoslangan turli yondashuvlarning samaradorligini baholash, ularning afzallik va kamchiliklarini aniqlash hamda amaliy qo‘llash uchun eng samarali yechimlarni asoslab berishdan iborat.

Tadqiqot doirasida URL manzillar asosida phishing hujumlarni aniqlashga oid mavjud usullar tahlil qilinadi, turli klassifikatsiya modellari qo‘llanilib ularning aniqlik ko‘rsatkichlari solishtiriladi hamda korporativ muhitda qo‘llash imkoniyatlari baholanadi. Olingan natijalar asosida phishing hujumlarga qarshi samarali himoya mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Mavjud algoritmlar hamda usullar tahlili

Phishing hujumlarni aniqlash muammosi zamonaviy kiberxavfsizlik tizimlarida eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, korporativ tarmoqlarda zararli URL manzillar orqali amalga oshiriladigan hujumlar sonining ortib borishi ushbu sohada samarali aniqlash algoritmlarini ishlab chiqish va mavjud usullarni chuqur tahlil qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Hozirgi kunda phishing URLlarni aniqlashda qo‘llanilayotgan algoritmlar ishlash prinsipi va qo‘llanilishiga ko‘ra bir necha asosiy guruhlarga ajratiladi: an’anaviy (blacklist va

ISSN 3030-3907

qoida asosidagi), URL tahliliga asoslangan hamda mashinaviy o‘rganish va chuqur o‘rganishga asoslangan yondashuvlar.

Dastlabki bosqichlarda phishing hujumlarni aniqlashda keng qo‘llanilgan usullardan biri bu qora ro‘yxat (blacklist) asosidagi algoritmlar hisoblanadi. Ushbu yondashuvda oldindan aniqlangan zararli URL manzillar maxsus ma’lumotlar bazasida saqlanadi va tizimga kiruvchi URL ushbu baza bilan solishtiriladi. Agar URL ro‘yxatda mavjud bo‘lsa, u avtomatik ravishda phishing sifatida belgilanadi. Ushbu usulning asosiy afzalligi uning soddaligi va yuqori tezlikda ishlashidadir. Biroq, zamonaviy kiberxavf muhitida ushbu yondashuvning samaradorligi sezilarli darajada cheklangan, chunki u faqat oldindan ma’lum bo‘lgan tahdidlarni aniqlash imkonini beradi. Yangi va ilgari uchramagan zero-day attack turdagi phishing URLlar ushbu tizimlar tomonidan aniqlanmay qoladi, bu esa uning amaliy qo‘llanish doirasini toraytiradi [1].

Blacklist yondashuviga qo‘shimcha ravishda qoida asosidagi (rule-based) algoritmlar ham keng qo‘llaniladi. Ushbu usullar URL tarkibidagi muayyan belgilar va shablonlarga asoslanadi. Masalan, URL ichida “@” belgisi mavjudligi, juda uzun yoki chalkash domen nomlari, mashhur brend nomlarining noto‘g‘ri yozilishi yoki ko‘p sonli subdomainlardan foydalanish phishing belgisi sifatida qaraladi. Ushbu yondashuvlarning afzalligi ularning tushunarli va nisbatan oson implementatsiya qilinishidadir. Biroq, zamonaviy phishing hujumlarining murakkablashuvi, xususan, URLlarni yashirish (obfuscation), qisqartirilgan havolalar (URL shortening) va dinamik domenlar qo‘llanilishi ushbu algoritmlarning samaradorligini pasaytiradi [2].

Keyingi bosqichda phishing URLlarni aniqlashda URL tahliliga asoslangan yondashuvlar keng rivojlandi. Ushbu usullar URL manzilining ichki tuzilishini chuqur o‘rganishga asoslanadi. Jumladan, Lexical analysis yordamida URL uzunligi, maxsus belgilar soni, domen nomining murakkabligi, subdomainlar soni kabi xususiyatlar tahlil qilinadi. Bundan tashqari, strukturaviy tahlil orqali URLning domen qismi, yo‘l (path) chuqurligi, fayl kengaytmasi hamda HTTP yoki HTTPS protokolidan foydalanish holati aniqlanadi. Ushbu yondashuvlar blacklist va qoida asosidagi usullarga nisbatan yanada moslashuvchan bo‘lib, yangi phishing URLlarni aniqlash imkoniyatiga ega. Shunga qaramay, ayrim murakkab holatlarda qonuniy URLlar noto‘g‘ri ravishda phishing sifatida baholanishi (false positive) yoki aksincha, yaxshi yashirilgan phishing URLlar aniqlanmay qolishi mumkin [3].

So‘nggi yillarda phishing hujumlarni aniqlashda mashinaviy o‘rganish algoritmlaridan keng foydalanila boshlandi. Ushbu yondashuvlarda URLdan ajratib olingan xususiyatlar asosida model o‘qitiladi va yangi URLlar avtomatik tarzda klassifikatsiya qilinadi. Amaliyotda eng ko‘p qo‘llaniladigan algoritmlar

ISSN 3030-3907

qatoriga Logistic Regression, Support Vector Machine va Random Forest kiradi. Ushbu algoritmlar murakkab naqshlarni aniqlash imkoniyatiga ega bo‘lib, ayniqsa katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlashda yuqori aniqlikni ta’minlaydi. Random Forest algoritmi bir nechta qaror daraxtlarini birlashtirish orqali barqaror natija berishi bilan ajralib turadi, SVM esa yuqori o‘lchamli ma’lumotlar fazosida chegaralarni aniq ajrata oladi. Logistic Regression esa soddaligi va tezkorligi sababli real vaqt tizimlarida qo‘llash uchun qulay hisoblanadi [4].

Shu bilan birga, mashinaviy o‘rganish yondashuvlari ham muayyan kamchiliklarga ega. Jumladan, modelni o‘qitish uchun katta hajmdagi va sifatli ma’lumotlar talab etiladi. Bundan tashqari, model parametrlarini noto‘g‘ri tanlash natijasida overfitting muammosi yuzaga kelishi mumkin, bu esa modelning yangi ma’lumotlarga nisbatan umumlashtirish qobiliyatini pasaytiradi [5]. Real vaqt rejimida ishlash zarur bo‘lgan korporativ tarmoqlarda esa bu muammo yanada muhim ahamiyat kasb etadi.

Phishing URLlarni aniqlashda eng zamonaviy yondashuvlardan biri bu chuqur o‘rganish (deep learning) algoritmlaridir. Ushbu usullar URLni belgilar ketma-ketligi sifatida ko‘rib chiqib, uning ichki yashirin bog‘lanishlarini aniqlash imkonini beradi. Xususan, Convolutional Neural Network modeli URLdagi lokal naqshlarni aniqlashda samarali bo‘lsa, Long Short-Term Memory modeli ketma-ketliklar orasidagi uzoq bog‘lanishlarni aniqlash imkonini beradi. Ushbu yondashuvlar yuqori aniqlikni ta’minlasa-da, katta hisoblash resurslarini talab etadi va ularni real vaqt tizimlarida qo‘llash ma’lum darajada murakkab hisoblanadi [6].

Yuqoridagi barcha yondashuvlarni umumlashtirgan holda shuni ta’kidlash mumkinki, phishing URLlarni aniqlashda har bir algoritm o‘ziga xos afzallik va kamchiliklarga ega. An’anaviy usullar tezkor va sodda bo‘lsa-da, yangi tahdidlarga moslashishda sust. URL tahliliga asoslangan usullar yanada moslashuvchan bo‘lsa-da, ba’zi hollarda aniqlik yetarli emas. Mashinaviy o‘rganish va chuqur o‘rganish yondashuvlari esa yuqori aniqlikni ta’minlaydi, biroq resurs talabchanligi va model sozlash muammolari mavjud. Shu sababli, zamonaviy tadqiqotlarda bir nechta yondashuvlarni birlashtirgan gibrid modellarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Natijada, korporativ tarmoqlarda phishing hujumlarni samarali aniqlash uchun URL tahliliga asoslangan yondashuvlarning imkoniyatlarini chuqur o‘rganish, ularni qiyosiy tahlil qilish va amaliy muhitda baholash muhim ilmiy vazifa hisoblanadi. Ushbu tadqiqot aynan shu muammoni hal etishga qaratilgan bo‘lib, mavjud algoritmlarning samaradorligini aniqlash va eng optimal yondashuvlarni tavsiya etishni maqsad qiladi.

Phishing hujumlarni aniqlashda qo‘llanilayotgan yondashuvlarning samaradorligini baholash, ularning amaliy qo‘llanish imkoniyatlarini aniqlash

ISSN 3030-3907

hamda korporativ tarmoqlarda qaysi usul eng maqbul ekanligini asoslash muhim ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, phishing hujumlar asosan URL manipulyatsiyasi orqali amalga oshiriladi va ularni aniqlashda turli algoritmik yondashuvlar qo‘llaniladi [5].

Shu nuqtai nazardan, phishing URLlarni aniqlashda qo‘llaniladigan asosiy yondashuvlar — an’anaviy (blacklist va qoida asosidagi), URL tahliliga asoslangan, mashinaviy o‘rganish hamda chuqur o‘rganish usullari — bir qator mezonlar asosida qiyosiy tahlil qilindi. Ushbu mezonlarga aniqlik darajasi, real vaqt rejimida ishlash imkoniyati, yangi tahdidlarni aniqlash qobiliyati hamda moslashuvchanlik darajasi kiritildi [6].

2.1-Jadval

Phishing URLlarni aniqlash yondashuvlarining umumiy qiyosiy tahlili

Yondashuv turi	Ishlash prinsipi	Aniqlik darajasi	Real-time ishlash	Zero-day aniqlash	Afzalliklari	Kamchiliklari
Blacklist	Oldindan ma’lum URLlar bilan solishtirish	Past	Juda yuqori	Yo‘q	Tezkor, sodda	Yangi hujumlarni aniqlamaydi
Rule-based	Belgilar va qoidalarga asoslangan	Past–o‘rtacha	Yuqori	Past	Tushunarli, moslashuvchan	Murakkab hujumlarda samarasiz
URL tahlili	URL strukturasi va belgilarini tahlil qilish	O‘rtacha	Yuqori	O‘rtacha	Yangi URLlarni aniqlaydi	False positive mavjud
ML algoritmlar	Featurelar asosida klassifikatsiya	Yuqori	O‘rtacha	Yuqori	Yuqori aniqlik	Datasetga bog‘liq
Deep Learning	Avtomatik feature o‘rganish	Juda yuqori	Past	Yuqori	Eng aniq natijalar	Resurs talabchan

Jadval 2.1 natijalariga ko‘ra, an’anaviy yondashuvlar tezkorligi bilan ajralib tursa-da, ular zamonaviy phishing hujumlarini aniqlashda yetarli darajada samarali

ISSN 3030-3907

emas. Ayniqsa, yangi va ilgari aniqlanmagan URL manzillarni aniqlash imkoniyati cheklangan [7]. URL tahliliga asoslangan yondashuvlar esa yangi tahdidlarni aniqlash imkonini berib, amaliy jihatdan muvozanatli yechim sifatida qaraladi [8]. Mashinaviy o‘rganish algoritmlari yuqori aniqlikni ta’minlasa-da, ularning samaradorligi ishlatilgan ma’lumotlar sifati va feature tanlashga bevosita bog‘liq [9]. Chuqur o‘rganish modellari esa eng yuqori natijalarni ko‘rsatadi, biroq ularning hisoblash resurslariga bo‘lgan talabi yuqori [10].

Phishing URLlarni aniqlashda muhim bosqichlardan biri bu URLdan olinadigan xususiyatlarni (features) to‘g‘ri tanlash hisoblanadi. Turli turdagi xususiyatlar modelning aniqligiga turlicha ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, quyida URL tahlilida qo‘llaniladigan asosiy xususiyatlar guruhlari qiyosiy tahlil qilindi.

2.2-Jadval

URL tahliliga asoslangan xususiyatlar (featurelar) qiyosi

Feature turi	**Tavsifi**	**Afzalligi**	**Kamchiligi**	**Aniqlikka ta’siri**
Lexical	URL uzunligi, maxsus belgilar	Tez va sodda	Cheklangan axborot	O‘rtacha
Structural	Domen va path tuzilishi	Ko‘proq ma’lumot beradi	Murakkab hisoblash	Yuqori
Security	HTTPS, SSL sertifikat	Ishonchlilikni oshiradi	Har doim ham mavjud emas	O‘rtacha
Host-based	Domain age, WHOIS	Kuchli indikator	Real-time olish qiyin	Yuqori

Jadval 2.2 dan ko‘rinib turibdiki, strukturaviy va host-based xususiyatlar phishing URLlarni aniqlashda yuqori aniqlikni ta’minlashi mumkin, biroq ularni olish va qayta ishlash jarayoni murakkabroq hisoblanadi [11]. Lexical xususiyatlar esa tez hisoblanadi, ammo ular orqali har doim ham yuqori aniqlikka erishib bo‘lmaydi [12]. Shu sababli, amaliy tizimlarda turli xususiyatlarni kombinatsiyalash orqali optimal natijaga erishiladi [13].

Phishing URLlarni aniqlashda qo‘llaniladigan mashinaviy o‘rganish algoritmlarining samaradorligi ham muhim tahlil obyektidir. Turli algoritmlar turli sharoitlarda turlicha natija ko‘rsatadi.

2.3-Jadval

Mashinaviy o‘rganish algoritmlarining qiyosiy tahlili

Algoritm	**Aniqlik**	**Tezlik**	**Moslashuvchanlik**	**Afzalligi**	**Kamchiligi**

ISSN 3030-3907

Logistic Regression	O‘rtacha	Yuqori	Past	Soddalik	Murakkab naqshlarni aniqlay olmaydi
SVM	Yuqori	O‘rtacha	O‘rtacha	Kuchli klassifikator	Parametr sozlash murakkab
Random Forest	Juda yuqori	O‘rtacha	Yuqori	Barqaror va aniq	Hisoblash yuklamasi yuqori
KNN	O‘rtacha	Past	Past	Oddiy	Katta datasetda sekin
Naive Bayes	Past	Juda yuqori	Past	Tez ishlaydi	Soddalashtirilgan model

Jadval 2.3 asosida shuni xulosa qilish mumkinki, Random Forest va SVM algoritmlari phishing URLlarni aniqlashda eng yuqori samaradorlikni ko‘rsatadi [14]. Logistic Regression tezkorligi bilan ajralib turadi, biroq murakkab naqshlarni aniqlashda cheklangan [15]. KNN va Naive Bayes algoritmlari esa soddaligi sababli ayrim hollarda qo‘llanilsa-da, umumiy samaradorlik jihatidan yetarli darajada yuqori natija bermaydi [16].

Umuman olganda, o‘tkazilgan qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, phishing URLlarni aniqlashda yagona universal yondashuv mavjud emas. Har bir usul muayyan sharoitda samarali ishlaydi. Korporativ tarmoqlar uchun esa yuqori aniqlik bilan bir qatorda real vaqt rejimida ishlash imkoniyati ham muhim hisoblanadi [17]. Shu sababli, URL tahliliga asoslangan yondashuvlarni mashinaviy o‘rganish algoritmlari bilan birlashtirish eng samarali yechim sifatida qaraladi [18].

Tahlil natijalari va muhokama

O‘tkazilgan qiyosiy tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, phishing URLlarni aniqlashda qo‘llanilayotgan yondashuvlar samaradorligi ularning ishlash prinsipi va qo‘llanilish sharoitiga bevosita bog‘liq. Xususan, an’anaviy blacklist va qoida asosidagi usullar yuqori tezkorlikka ega bo‘lsa-da, ular zamonaviy va dinamik phishing hujumlarni aniqlashda yetarli darajada samarali emas. Ayniqsa, yangi va ilgari uchramagan URL manzillarni aniqlash imkoniyatining cheklanganligi ushbu yondashuvlarning asosiy kamchiligi sifatida qayd etiladi [19].

URL tahliliga asoslangan yondashuvlar esa an’anaviy usullarga nisbatan muvozanatli yechim sifatida ajralib turadi. Ushbu usullar URL strukturasi va tarkibiy xususiyatlarini tahlil qilish orqali yangi phishing URLlarni aniqlash

ISSN 3030-3907

imkonini beradi hamda real vaqt rejimida ishlash uchun nisbatan qulay hisoblanadi [20]. Shu bilan birga, ayrim hollarda noto‘g‘ri aniqlash (false positive) darajasi mavjud bo‘lib, bu esa tizim ishonchliligiga ta’sir qilishi mumkin [21].

Mashinaviy o‘rganish algoritmlarining tahlili shuni ko‘rsatdiki, ular phishing URLlarni aniqlashda yuqori aniqlikni ta’minlaydi. Ayniqsa, Random Forest va SVM algoritmlari murakkab naqshlarni aniqlashda samarali natijalar ko‘rsatadi [22]. Biroq, ushbu yondashuvlarning samaradorligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri tanlangan xususiyatlar va o‘quv ma’lumotlarining sifatiga bog‘liq ekanligi aniqlangan [23]. Bundan tashqari, real vaqt rejimida ishlash uchun qo‘shimcha hisoblash resurslari talab qilinadi [24].

Chuqur o‘rganish modellari esa eng yuqori aniqlik ko‘rsatkichlariga ega bo‘lsa-da, ularning hisoblash murakkabligi va resurs talabchanligi sababli korporativ tarmoqlarda to‘liq joriy etish har doim ham samarali emas [25]. Shu sababli, amaliy jihatdan optimal yechim sifatida URL tahliliga asoslangan yondashuvlarni mashinaviy o‘rganish algoritmlari bilan birlashtirgan gibrid modelni qo‘llash maqsadga muvofiq hisoblanadi [26].

Natijada, korporativ tarmoqlarda phishing hujumlarni aniqlashda yuqori aniqlik va real vaqt samaradorligini ta’minlash uchun URL tahlili va mashinaviy o‘rganish usullarining kombinatsiyasi eng istiqbolli yo‘nalish sifatida tavsiya etiladi [27].

XULOSA.

Ushbu tadqiqotda korporativ tarmoqlarda phishing hujumlarni aniqlashda URL tahliliga asoslangan yondashuvlarning samaradorligi kompleks ravishda o‘rganildi. Tadqiqot davomida phishing URLlarni aniqlashda qo‘llaniladigan an’anaviy, URL tahliliga asoslangan, mashinaviy o‘rganish va chuqur o‘rganish algoritmlari qiyosiy tahlil qilindi hamda ularning afzallik va kamchiliklari aniqlab berildi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, an’anaviy blacklist va qoida asosidagi yondashuvlar tezkorligi bilan ajralib turishiga qaramasdan, zamonaviy va dinamik phishing hujumlarni aniqlashda yetarli darajada samarali emas. URL tahliliga asoslangan usullar esa yangi tahdidlarni aniqlash imkonini berib, real vaqt rejimida ishlash uchun nisbatan moslashuvchan yechim sifatida baholandi. Shu bilan birga, ushbu yondashuvlarda noto‘g‘ri aniqlash darajasi mavjudligi aniqlangan.

Mashinaviy o‘rganish algoritmlari, xususan Random Forest va SVM modellari phishing URLlarni aniqlashda yuqori aniqlik ko‘rsatkichlarini ta’minlashi aniqlandi. Biroq, ushbu modellarning samaradorligi tanlangan xususiyatlar va o‘quv ma’lumotlarining sifatiga bevosita bog‘liq ekanligi kuzatildi. Chuqur o‘rganish modellari esa eng yuqori aniqlikni ko‘rsatgan bo‘lsa-da, ularning

ISSN 3030-3907

hisoblash resurslariga bo‘lgan talabi yuqoriligi sababli korporativ tarmoqlarda amaliy qo‘llanishi cheklangan.

Tadqiqot natijalariga asoslanib shuni xulosa qilish mumkinki, korporativ tarmoqlarda phishing hujumlarni samarali aniqlash uchun URL tahliliga asoslangan yondashuvlarni mashinaviy o‘rganish algoritmlari bilan integratsiyalashgan holda qo‘llash eng optimal yechim hisoblanadi. Ushbu yondashuv yuqori aniqlikni ta’minlash bilan birga real vaqt rejimida ishlash imkonini ham beradi.

Kelgusida olib boriladigan tadqiqotlarda phishing hujumlarni aniqlash samaradorligini yanada oshirish maqsadida gibrid modellarni chuqur optimallashtirish, real vaqt trafik tahlilini takomillashtirish hamda sun’iy intellekt asosida avtomatik moslashuvchi xavfsizlik tizimlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sahoo, D., Liu, C., & Hoi, S. C. (2017). Malicious URL detection using machine learning: A survey. *IEEE Access*, 5, 2301–2314.
2. Ma, J., Saul, L. K., Savage, S., & Voelker, G. M. (2009). Beyond blacklists: Learning to detect malicious web sites. *KDD*.
3. Garera, S., Provos, N., Chew, M., & Rubin, A. D. (2007). A framework for detection and measurement of phishing attacks. *WORM*.
4. Verma, R., & Das, A. (2017). What’s in a URL: Fast feature extraction and malicious URL detection. *IEEE CNS*.
5. Sahingoz, O. K., et al. (2019). Machine learning based phishing detection from URLs. *Expert Systems with Applications*, 117.
6. Basnet, R. B., et al. (2014). Feature selection for phishing detection. *IEEE ICC*.
7. Le, A., et al. (2018). URLNet: Learning a URL representation with deep learning. *arXiv*.
8. Aljofey, A., et al. (2020). Phishing detection using hybrid machine learning. *IEEE Access*.
9. Rao, R. S., & Pais, A. R. (2019). Detection of phishing websites using an efficient feature-based machine learning framework. *Neural Computing and Applications*.
10. Chandrasekaran, M., Narayanan, K., & Upadhyaya, S. (2006). Phishing email detection using structural properties. *NY State Cyber Security Conference*.
11. Zhang, Y., Hong, J., & Cranor, L. (2007). CANTINA: A content-based approach to detecting phishing web sites. *WWW Conference*.
12. Xiang, G., et al. (2011). CANTINA+: A feature-rich machine learning framework for detecting phishing web sites. *ACM Transactions*.

ISSN 3030-3907

13. McGrath, D. K., & Gupta, M. (2008). Behind phishing: An examination of phisher modi operandi. *LEET*.
14. Abu-Nimeh, S., Nappa, D., Wang, X., & Nair, S. (2007). A comparison of machine learning techniques for phishing detection. *eCrime Researchers Summit*.
15. Mohammad, R. M., Thabtah, F., & McCluskey, L. (2014). Predicting phishing websites based on self-structuring neural network. *Neural Computing*.
16. Jain, A. K., et al. (2016). Machine learning techniques for phishing detection: Review. *IJCSIT*.
17. Herzberg, A., & Margulies, D. (2012). Detecting phishing attacks using DNS-based techniques. *IEEE Security & Privacy*.
18. Blum, A., Wardman, B., Solorio, T., & Warner, G. (2010). Lexical feature based phishing URL detection. *AISec*.
19. Sahoo, D., Liu, C., & Hoi, S. C. (2017). Malicious URL detection using machine learning: A survey. *IEEE Access*.
20. Ma, J., et al. (2009). Learning to detect malicious URLs. *KDD*.
21. Garera, S., et al. (2007). Phishing detection framework. *WORM*.
22. Verma, R., & Das, A. (2017). URL-based detection methods. *IEEE CNS*.
23. Sahingoz, O. K., et al. (2019). ML-based phishing detection. *Expert Systems*.
24. Basnet, R. B., et al. (2014). Feature selection analysis. *IEEE*.
25. Le, A., et al. (2018). URLNet deep learning. *arXiv*.
26. Aljofey, A., et al. (2020). Hybrid phishing detection. *IEEE Access*.
27. Rao, R. S., & Pais, A. R. (2019). Efficient phishing detection. *Neural Computing*.

ISSN 3030-3907

DASTURLASH TILLARINI O‘RGANISHDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Ulasheva Shaxlo Tagayevna
Qarshi davlat texnika universiteti dotsent
G‘aniyeva Inobat Xolboy qizi
Qarshi davlat texnika universiteti talabasi
Qahhorova Nilufar Qodir qizi
Qarshi davlat texnika universiteti talabasi
Aslidinova O‘g‘iloy Abbosjon qizi
Qarshi davlat texnika universiteti talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada dasturlash tillarini o‘rganish jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, o‘quv jarayonini individuallashtirish, tezkor fikr-mulohaza olish, kod yozish jarayonini optimallashtirish, murakkab dasturlash tushunchalarini soddalashtirish va mustaqil ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari sun’iy intellekt asosidagi vositalar dasturlash tillarini o‘zlashtirish samaradorligini oshirishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, dasturlash tillari, raqamli ta’lim, avtomatlashtirilgan o‘qitish, kod yozish, algoritmik tafakkur

Аннотация. В данной статье научно анализируются преимущества использования технологий искусственного интеллекта в процессе изучения языков программирования. Рассматриваются такие аспекты, как индивидуализация обучения, получение быстрой обратной связи, оптимизация процесса написания кода, упрощение сложных концепций программирования и расширение возможностей самостоятельного обучения. Результаты исследования показывают, что инструменты на основе искусственного интеллекта повышают эффективность изучения языков программирования.

Ключевые слова: искусственный интеллект, языки программирования, цифровое обучение, автоматизированное обучение, написание кода, алгоритмическое мышление

Abstract. This article provides a scientific analysis of the advantages of using artificial intelligence technologies in learning programming languages. It examines aspects such as personalized learning, rapid feedback, code optimization, simplification of complex programming concepts, and the expansion of self-learning opportunities. The findings indicate that AI-based tools significantly improve the effectiveness of learning programming languages.

Keywords: artificial intelligence, programming languages, digital learning, automated learning, coding, algorithmic thinking

KIRISH.

ISSN 3030-3907

Zamonaviy axborot texnologiyalari rivojlanishi sharoitida dasturlash tillarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Dasturlash tillari nafaqat IT sohasida, balki iqtisodiyot, sanoat va xizmatlar sohasida ham keng qo‘llanilmoqda. Shu sababli, ularni samarali o‘rganish usullarini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

So‘nggi yillarda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining rivojlanishi ta’lim tizimiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Sun’iy intellekt asosidagi platformalar dasturlash tillarini o‘rganishda yangi imkoniyatlarni yaratib, o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ushbu maqolaning maqsadi — dasturlash tillarini o‘rganishda sun’iy intellektdan foydalanishning afzalliklarini ilmiy asosda yoritishdir.

ASOSIY QISM. Dasturlash tillari — bu kompyuterga aniq buyruqlar berish, masalalarni yechish va turli dasturlar yaratish uchun ishlatiladigan sun’iy (formallashgan) tillardir. Ular inson va kompyuter o‘rtasidagi aloqa vositasi hisoblanadi. Oddiy qilib aytganda, dasturlash tili — bu kompyuter “tushunadigan” buyruqlarni yozish usuli. Dasturchi shu til orqali algoritm tuzadi va kompyuter uni bajaradi.

Dasurlash tillarining o‘ziga xos asosiy xususiyatlari mavjud. Sintaksis — kod yozish qoidalari ya’ni grammatikasi, semantika — yozilgan kodning ma’nosi, kompilyatsiya yoki interpretatsiya — kodni kompyuter bajaradigan shaklga o‘tkazish kabilardan iborat.

Dasturlash tillarining bir qator turlari mavjud. Past darajadagi tillari mashina tiliga yaqin, juda tez ishlaydi, lekin tushunish qiyin. Assembly tilini misol keltirishimiz mumkin. Yuqori darajadagi tillari inson tiliga yaqinroq, o‘rganish osonroq. Python, Java, C++, JavaScript kabi dasturlash tillarini yuqori darajadagi tillardan hisoblanadi.

Dasturlash tillari bir qator sohalarda qo‘llaniladi. Veb saytlar yaratishda, mobil ilovalar ishlab chiqishda, sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahlilida, o‘yinlar yaratishda, avtomatlashtirish tizimlarida qo‘llaniladi.

Dasturlash tillari zamonaviy texnologiyalar asosini tashkil etadi. Ular yordamida inson o‘z g‘oyalarini dastur ko‘rinishida ifodalab, kompyuter orqali amalga oshiradi.

1-jadval.

Sun’iy intellektdan foydalanishning afzalliklari

№	Afzallik nomi	Tavsifi	Ta’sir darajasi	Amaliy natija

ISSN 3030-3907

1	Individual yondashuv	Sun’iy intellekt foydalanuvchining bilim darajasiga mos ravishda o‘quv materiallarini moslashtiradi	Yuqori	O‘quv samaradorligi oshadi
2	Tezkor fikr-mulohaza (feedback)	Dastur yozish jarayonida xatolarni aniqlab, darhol tuzatish imkonini beradi	Yuqori	Xatolarni tez o‘rganish va tuzatish
3	24/7 mavjudlik	Har qanday vaqtda o‘rganish imkonini yaratadi	O‘rta	Mustaqil ta’lim rivojlanadi
4	Murakkab tushunchalarni soddalashtirish	Algoritm va kodlarni oddiy tilda tushuntiradi	Yuqori	Tushunish darajasi oshadi
5	Amaliy mashg‘ulotlar yaratish	Avtomatik ravishda masala va topshiriqlar generatsiya qiladi	Yuqori	Amaliy ko‘nikmalar shakllanadi
6	Ko‘p tillilik qo‘llab-quvvatlovi	Turli dasturlash tillarida ishlash imkonini beradi	O‘rta	Ko‘p yo‘nalishda rivojlanish
7	Avtomatlashtirilgan kod yozish	Kodni avtomatik generatsiya qilish orqali vaqtni tejaydi	Yuqori	Ish unumdorligi oshadi
8	O‘quv jarayonini optimallashtirish	O‘rganish strategiyalarini tahlil qilib, samarali yo‘lni tavsiya etadi	O‘rta	Ta’lim sifati yaxshilanadi
9	Xatoliklarni tahlil qilish	Koddagi xatolik sabablarini chuqur tahlil qiladi	Yuqori	Analitik fikrlash rivojlanadi
10	Interaktiv o‘rganish muhiti	Dialog asosida o‘qitish imkonini beradi	Yuqori	Qiziqish va motivatsiya oshadi


O‘quv jarayonini individuallashtirish. Sun’iy intellekt tizimlari foydalanuvchining bilim darajasini, o‘rganish tezligini va qiziqishlarini tahlil qilib,

ISSN 3030-3907

moslashtirilgan o‘quv materiallarini taklif etadi. Bu esa dasturlash tillarini o‘zlashtirish jarayonini samarali va qulay qiladi.

Kod yozishda yordam va avtomatlashtirish. Sun’iy intellekt asosidagi vositalar dasturchilarga kod yozishda yordam beradi. Ular kodni avtomatik to‘ldirish, sintaksis xatolarini aniqlash va tuzatish, optimal yechimlarni taklif qilish imkoniyatiga ega. Bu esa dasturlashni o‘rganishda vaqtni tejaydi va xatolarni kamaytiradi.

Tezkor fikr-mulohaza va xatolarni tahlil qilish. Dasturlash tillarini o‘rganishda xatolarni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Sun’iy intellekt tizimlari kodni real vaqt rejimida tekshiradi va foydalanuvchiga darhol tahliliy fikr-mulohaza beradi. Bu esa o‘quvchining bilimlarini tezda mustahkamlashga yordam beradi.



1-rasm. ChatGPT sun’iy intellektining Codex agenti.

Murakkab tushunchalarni soddalashtirish. Algoritmlar, ma’lumotlar tuzilmalari va dasturlash paradigmalari kabi murakkab tushunchalarni sun’iy intellekt yordamida sodda va tushunarli shaklda o‘rganish mumkin. SI tizimlari

ISSN 3030-3907


misollar, vizual tushuntirishlar va interaktiv yondashuvlar orqali bilimni osonlashtiradi.

Mustaqil ta’limni rivojlantirish. Sun’iy intellekt asosidagi platformalar o‘quvchilarga istalgan vaqtda bilim olish imkonini beradi. Bu esa masofaviy va mustaqil ta’limni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchi o‘ziga qulay tempda o‘rganadi.

Codex — bu OpenAI Codex tomonidan yaratilgan tizim bo‘lib, u dasturchilarga yordam berish uchun ishlab chiqilgan. Codex bir qator vazifalarni bajaradi, ya’ni, kod yozadi, xatolarni topadi va tuzatadi, mavjud kodni tushuntiradi, yangi funksiyalar qo‘shadi, loyihani tahlil qiladi. Codex oddiy chatbot emas, u real dasturiy muhitda ishlay oladigan agent hisoblanadi.

Codex bir qator imkoniyatlarga ega. Kodni avtomatik yozish, kodni tushuntirish, xatoni topish, kodni optimallashtirish, butun loyiha bilan ishlash kabilardan iborat.


Codex — bu ChatGPT ichidagi **“super dasturchi yordamchi”** bo‘lib, u nafaqat kod yozadi, balki butun dasturiy loyihani tushunib, uni rivojlantirishga yordam beradi.



2-rasm. Dastur tuzish bo‘yicha prompt yozish.

Amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish. Sun’iy intellekt yordamida real loyihalar ustida ishlash, kod yozish va optimallashtirish imkoniyati yaratiladi. Bu esa nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirishga yordam beradi.

ISSN 3030-3907



3-rasm. Kvadrat tenglamaning Python dasturlash tilidagi kodlari.

Motivatsiya va interaktivlikni oshirish. Sun’iy intellekt asosidagi o‘qitish tizimlari interaktivlikni ta’minlaydi. Gamifikatsiya elementlari, testlar va darhol natijalar o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi va ularni faol o‘rganishga undaydi.

Sun’iy intellekt texnologiyalari, xususan ChatGPT, GitHub Copilot va Google Gemini kabi tizimlar yordamida turli dasturlash tillarini samarali o‘rganish imkoniyati mavjud. Biroq, o‘rganish jarayonining muvaffaqiyati foydalanuvchining mustaqil ishlashi, amaliy mashg‘ulotlarni bajarishi va nazariy bilimlarni chuqur o‘zlashtirishiga bevosita bog‘liq.

Sun’iy intellekt nazariy bilimlarni tushuntiradi, kod yozishda yordam beradi, xatolarni aniqlaydi va tuzatadi, mashqlar va loyihalar yaratadi. Lekin faqat AIga tayanib qolish yetarli emas, amaliyot va mustaqil fikrlash zarur.

Sun’iy intellekt dasturlash tillarini o‘rganishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi, biroq u o‘qituvchining to‘liq o‘rnini bosa olmaydi. Mazkur texnologiyalar o‘quv jarayonini qo‘llab-quvvatlovchi va optimallashtiruvchi omil sifatida qaralishi maqsadga muvofiqdir.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt texnologiyalaridan dasturlash tillarini o‘rganishda foydalanish ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. U o‘quv jarayonini individuallashtiradi, kod yozish jarayonini optimallashtiradi, tezkor fikr-mulohaza beradi va murakkab tushunchalarni osonlashtiradi.

Sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish dasturlash tillarini o‘rganish jarayonini sezilarli darajada optimallashtiradi. Xususan, individual yondashuv,

ISSN 3030-3907

tezkor teskari aloqa va amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarning bilim olish samaradorligi oshadi. Shu bilan birga, avtomatlashtirilgan kod yozish va xatoliklarni aniqlash imkoniyatlari dasturlash ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Kelajakda sun’iy intellekt asosidagi ta’lim tizimlarini keng joriy etish orqali dasturlash tillarini o‘rganish yanada samarali va innovatsion tus oladi. Shu sababli, ushbu texnologiyalarni ta’lim tizimiga integratsiya qilish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Achilova F.K. “E-Grafik” mobil ilovasini ishlab chiqish yordamida xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirish. O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. Vol. 3 No. 35, 2024.
2. Isomiddinov M.U. Dasturlash tillarini o‘qitish jarayonida talabalarning raqamli-texnologik kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari. Development Of Science 2026 / 2 Issue 2. Volume 1.
3. Achilova F.K. Arduino platformasi yordamida “Sanoq” dasturiy ta’minotini ishlab chiqish va tadbiq etishning ahamiyati. O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. Vol. 3 No. 35, 2024.
4. Bobojonova M.A. Python dasturlash tili. O‘quv qo‘llanma. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2023.
5. Javlon Abdullo. Mukammal dasturlash. 1-kitob: HTML va CSS. “Akademnashr” nashriyoti. Toshkent. 2021.

ISSN 3030-3907

TOSHKENT HAVOSINING PM2.5 VA PM10 ZARRACHALARI BILAN IFLOSLANISHI: DINAMIK TAHLIL

Uzakov Zafar Zoirovich
Qarshi davlat texnika universiteti, "Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi kafedrasi dotsenti, b.f.f.d (PhD)
Rahmatova Guliza Rahmat qizi
Atrof-muhit muhofazasi mutaxassisligi 2-kurs magistranti
Baxriddinova Ruxshona Shavkat qizi
"Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Toshkent shahrida atmosfera havosining PM2.5 va PM10 zarrachalari bilan ifloslanish darajasi 2019–2023-yillar oralig'ida statistik tahlil asosida o'rganildi. Ushbu davr davomida ifloslanish dinamikasi, o'rtacha qiymatlar, o'sish sur'atlari va tendensiyalar aniqlanib, PM2.5 va PM10 darajalarining urbanizatsiya, transport va sanoat faoliyati bilan bog'liqligi ilmiy asoslandi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, havo sifati va aholi salomatligini yaxshilashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar taklif etildi, jumladan: ekologik transport, sanoat filtr tizimlari, yashil hududlarni kengaytirish va monitoring tizimlarini kuchaytirish.

Kalit so'zlar: PM2.5, PM10, atmosfera ifloslanishi, statistik tahlil, urbanizatsiya, ekologiya, Toshkent.

Аннотация. В данной статье на основе статистического анализа изучен уровень загрязнения атмосферного воздуха частицами PM2.5 и PM10 в городе Ташкенте в период с 2019 по 2023 год. В течение этого периода были определены динамика загрязнения, средние значения, темпы роста и тенденции, а также научно обоснована связь уровней PM2.5 и PM10 с урбанизацией, транспортом и промышленной деятельностьюКлючевые слова: PM2.5, PM10, загрязнение атмосферы, статистический анализ, урбанизация, экология, Ташкентровья населения, в том числе: экологический транспорт, промышленные системы фильтрации, расширение зеленых зон и усиление систем мониторинга.

Ключевые слова: PM2.5, PM10, загрязнение атмосферы, статистический анализ, урбанизация, экология, Ташкент.

Abstract. This article studies the level of atmospheric air pollution with PM2.5 and PM10 particles in Tashkent between 2019 and 2023 based on statistical analysis. During this period, the dynamics of pollution, average values, growth rates, and trends were determined, and the relationship between PM2.5 and PM10 levels and urbanization, transportation, and industrial activity was scientifically substantiated. Based on the results of the study, comprehensive measures were

ISSN 3030-3907

proposed to improve air quality and public health, including: eco-friendly transport, industrial filtration systems, expansion of green areas, and strengthening monitoring systems.

Keywords: PM2.5, PM10, atmospheric pollution, statistical analysis, urbanization, ecology, Tashkent.

KIRISH.

Atmosfera havosining ifloslanishi, ayniqsa PM2.5 va PM10 zarrachalarining inson salomatligiga ta’siri global miqyosda chuqur o‘rganilgan muammo hisoblanadi. O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu zarrachalar nafas yo‘llari, yurak-qon tomir tizimi va umumiy salomatlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi [1].

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan belgilangan havo sifati bo‘yicha ko‘rsatkichlar PM2.5 konsentratsiyasining yillik me’yori 5 µg/m³, PM10 uchun esa 15 µg/m³ ekanligini qayd etadi [2].

Yevropa va Osiyo shaharlarida olib borilgan tadqiqotlar, shuningdek, transport vositalari va sanoat chiqindilarining PM2.5 va PM10 ifloslanishidagi asosiy omillar ekanligini ko‘rsatadi [3, 4]. Urbanizatsiya darajasining ortishi bilan atmosfera ifloslanishi o‘rtasidagi ijobiy bog‘liqlik Xitoy va Hindiston shaharlaridagi katta tadqiqotlarda tasdiqlangan [5, 6]. Epidemiologik izlanishlar PM2.5 darajasining yuqoriligi o‘pka saratoni, astma va yurak kasalliklari bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi [7, 8]. Shuningdek, global tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yuqori darajadagi PM2.5 va PM10 zarrachalari yoshlarda ham jiddiy sog‘liq muammolariga olib keladi [9]. Markaziy Osiyo hududida olib borilgan tadqiqotlar Toshkent shahrida transport vositalarining ko‘pligi va yoqilg‘i resurslaridan foydalanish darajasining oshishi ifloslanish darajasini keskin oshirayotganini qayd etadi [10]. Bu holat avtotransport qatori va sanoat chiqindilari tufayli atmosfera havosining salomatlik uchun xavfli darajada bo‘lishiga olib kelmoqda. Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, atmosfera havosining ifloslanishi global va mahalliy miqyosda ekologik muammo bo‘lib, uni kamaytirish uchun kompleks yondashuv va ilmiy asoslangan choralar zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda Toshkent shahrida atmosfera havosining PM2.5 va PM10 zarrachalari bilan ifloslanish darajasini aniqlash uchun 2019–2025-yillar oralig‘idagi statistik ma’lumotlar tahlil qilindi. Tadqiqotda quyidagi usullar qo‘llanildi:

1. Deskriptiv statistika – o‘rtacha qiymatlar, minimal va maksimal ko‘rsatkichlar, dispersiya va standart og‘ishlar aniqlash.

ISSN 3030-3907

2. Dinamik qatorlar tahlili – ifloslanish ko‘rsatkichlarining yillik o‘zgarishini ko‘rsatish va tendensiyalarni aniqlash.

3. O‘sish sur’atlarini hisoblash – yildan-yilga PM2.5 va PM10 ko‘rsatkichlarining foiz o‘zgarishini aniqlash.

4. Taqqoslash usuli – JSST (WHO) tavsiyalariga muvofiq PM2.5 va PM10 darajalarining standart me’yorlar bilan solishtirish.

O‘sish sur’ati formulasi

Yillik o‘sish sur’ati quyidagi formula orqali hisoblandi:

$$T=\frac{Xt-X_{t-1}}{Xt-1}\cdot 100\%$$

bu yerda:

- T — o‘sish sur’ati (%);
- X_t — joriy yil ko‘rsatkichi (2019–2025 yillar oralig‘ida);
- X_{t-1} — oldingi yil ko‘rsatkichi.

Ushbu metodlar yordamida PM2.5 va PM10 zarrachalarining o‘rtacha darajasi, tendensiyalari va urbanizatsiya omillari bilan bog‘liqligi 2019–2023-yillar davrida statistik jihatdan tahlil qilindi. Ushbu tadqiqotning maqsadi Toshkent shahrida atmosfera havosining PM2.5 va PM10 zarrachalari bilan ifloslanish darajasini aniqlash, ularning yillik o‘zgarish tendensiyalarini tahlil qilish va urbanizatsiya, transport hamda sanoat faoliyati bilan bog‘liqligini ilmiy asoslashdir.

NATIJALAR VA TAHLIL

Toshkent shahridagi PM2.5 va PM10 zarrachalarining yillik o‘rtacha qiymatlari 2019–2023-yillar davomida sog‘liq uchun xavfli darajada bo‘lgan. Tahlil natijalariga ko‘ra, Toshkent shahridagi havoning PM2.5 va PM10 bilan ifloslanish darajalari **deskriptiv statistika, dinamik qatorlar va taqqoslash usullari asosida** o‘rganildi. Jadval ma’lumotlariga muvofiq, 2019–2023-yillarda PM2.5 o‘rtacha qiymati taxminan 41,2–42,8 µg/m³, PM10 esa 40,8–43,1 µg/m³ ni tashkil etdi (1-jadval).

1-jadval

Toshkent shahri atmosfera havosi tarkibidagi PM2.5 va PM10 dispers zarrachalari miqdorining yillik dinamikasi (2019–2024-yillar)

Yil	PM2.5	IQAir Baho (PM2.5)	WHO me’yori	WHO Baho (PM2.5)	PM10	IQAir Baho (PM10)	WHO me’yori	WHO Baho (PM10)
2019	41,2	Zararli	5	Me’yordan 8	42,1	Qoniqarli	15	Me’yordan 2,8

ISSN 3030-3907

				baravar ko‘p				baravar ko‘p
2020	29,9	Nosog‘lom	5	Me’yordan 6 baravar ko‘p	43,1	Qoniqarli	15	Me’yordan 2,8 baravar ko‘p
2021	42,8	Zararli	5	Me’yordan 8,5 baravar ko‘p	41,3	Qoniqarli	15	Me’yordan 2,7 baravar ko‘p
2022	33,5	Nosog‘lom	5	Me’yordan 6,7 baravar ko‘p	42,2	Qoniqarli	15	Me’yordan 2,8 baravar ko‘p
2023	28,6	Nosog‘lom	5	Me’yordan 5,7 baravar ko‘p	40,8	Qoniqarli	15	Me‘yordan 2,7 baravar ko‘p

Manba: IQAir (2019–2023) https://www.iqair.com/world-air-quality-report .

Taqqoslash tahlili natijalariga ko‘ra, ushbu ko‘rsatkichlar Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST/WHO) tomonidan belgilangan xavfsiz me’yorlardan sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlandi. JSST tavsiyalariga muvofiq PM2.5 ning yillik o‘rtacha me’yoriy qiymati 5 µg/m³, PM10 uchun esa 15 µg/m³ ni tashkil etadi. Jumladan, PM2.5 darajasi JSST tavsiyalariga nisbatan **8–9 baravar**, PM10 darajasi esa **3 baravar yuqori (1-jadval)**. Mazkur holat Toshkent shahrida havo ifloslanishining aholi salomatligi uchun jiddiy xavf tug‘dirayotganini ko‘rsatadi.

Dinamik qatorlar tahlili natijalari yillar kesimida ifloslanish darajasining o‘zgaruvchan ekanligini ko‘rsatdi. Xususan, **2020-yilda** PM2.5 va PM10 darajalarining pasayishi qayd etilib, bu COVID-19 pandemiyasi davridagi transport va sanoat faolligining kamayishi bilan izohlanadi. **2021–2022-yillarda** esa ifloslanish darajasi oshgani kuzatildi, bu transport harakati va yoqilg‘i iste’molining ortishi hamda meteorologik sharoitlar bilan bog‘liq. **2023-yilda** esa nisbiy kamayish qayd etildi.

Hisoblangan o‘sish sur’atlari ham ushbu tendensiyani tasdiqladi, ya’ni 2020-yilda manfiy, 2021–2022-yillarda ijobiy, 2023-yilda esa yana manfiy o‘zgarish kuzatilgan. Ushbu natijalar Toshkent shahrida atmosfera havosining ifloslanish darajasi **beqaror bo‘lib, tashqi omillar — transport, sanoat va ob-havo sharoitlari bilan uzviy bog‘liq** ekanligini ko‘rsatadi.

ISSN 3030-3907

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, PM2.5 darajasiga asosiy ta’sir etuvchi omillar quyidagilardan iborat:

—transport vositalari soni va yoqilg‘i iste’molining ortishi;

—antitsiklon sharoitlarida havoning almashinuvi cheklanishi natijasida ifloslantiruvchi moddalar to‘planishi (2–3 baravar oshish).

Umuman olganda, olib borilgan statistik tahlillar Toshkent shahrida havo sifatining global me’yorlar bilan solishtirganda **xavfli darajada ekanligini** va PM2.5 hamda PM10 ko‘rsatkichlari **yuqori o‘zgaruvchanlikka ega ekanligini** tasdiqlaydi.

MUHOKAMA.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, Toshkent shahrida atmosfera havosining ifloslanishi asosan **antropogen omillar bilan bog‘liq.** Ayniqsa, transport vositalarining soni va harakat faolligining ortishi PM2.5 darajasining keskin oshishiga bevosita ta’sir qilmoqda. Ilmiy tadqiqotlar urban hududlarda transport chiqindilarining havodagi PM2.5 va PM10 darajalariga hissasi juda katta ekanini ko‘rsatgan — ayniqsa, NO_2, CO va boshqa chiqindilar bilan birga buning inson salomatligiga salbiy ta’siri borligi ta’kidlangan [11]. Bu holat shahar ekologiyasi va aholining sog‘lig‘i uchun jiddiy xavf tug‘diradi. Masalan, Toshkent shahrida amal qilgan monitoringlar natijasida PM2.5 darajasi JSST tavsiyalaridan bir necha baravar yuqori ekanligi qayd etilgan [12].

PM2.5 zarrachalarining o‘pkaga chuqur kirib, nafas yo‘llari va yurak-qon tomir tizimiga zarar yetkazishi esa JSST va boshqa tibbiy ekspertlar tomonidan keng qo‘llab-quvvatlanadi (WHO global air quality guidelines)[13].

Olingan tahlillar urbanizatsiya, transport va iqlim sharoitlarining havoning sifatiga bevosita ta’sirini yoritadi va kelgusida shahar ekologiyasini yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqishda muhim baza bo‘lib xizmat qiladi.

Boshqa yirik shaharlarga nisbatan, Toshkentda **shamol harakatining pastligi** va **qishki mavsumda yoqilg‘i (mazut va boshqa energiya manbalarini) sarfining ortishi i**floslanish darajasini yanada kuchaytiradi. Bu holat ko‘p davlatlarda kuzatilgan trendga o‘xshash bo‘lib, transportdan tashqari boshqa manbalar ham chang va zarrachalar darajasini oshiradi [14].

Shu bilan birga, **2020-yilda** kuzatilgan PM2.5 va PM10 darajasidagi pasayish **COVID-19 pandemiyasi davridagi karantin sharoitlari** bilan izohlanadi, bu esa transport harakati kamayganini va ifloslanishning asosiy manbai sifatida aynan transport vositalarini tasdiqlaydi — global miqyosda ham pandemiya davrida havo sifati yaxshilangan holatlar qayd etilgan [15]. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, Toshkent shahridagi atmosfera havosining sifatiga nafaqat

ISSN 3030-3907

transport va yoqilg‘i sarfi, balki **ob-havo sharoitlari, urbanizatsiya va sanoat chiqindilari** ham sezilarli darajada ta’sir qiladi.

XULOSA.

Toshkent shahrida PM2.5 va PM10 zarrachalari bilan ifloslanish yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Statistik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ifloslanish darajasi yil davomida sezilarli o‘zgaruvchanlik va o‘sish tendensiyasiga ega. Ayniqsa, transport faolligi, yoqilg‘i sarfi va qishki mavsumdagi antitsiklon sharoitlari ifloslanish darajasining oshishiga bevosita ta’sir qilmoqda. Shu bois, Toshkent shahrida havoning sifatini yaxshilash va aholining sog‘lig‘ini himoya qilish maqsadida kompleks ekologik siyosat va strategik chora-tadbirlar zarur. Bu chora-tadbirlar orasida transport tizimini optimallashtirish, yoqilg‘i samaradorligini oshirish, sanoat chiqindilarini kamaytirish va havo sifatini doimiy monitoring qilish muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot natijalari shahar ekologiyasini yaxshilash, havoning sifatini barqarorlashtirish va kelgusida maqsadli ekologik siyosatni ishlab chiqish uchun ilmiy asos sifatida xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Pope, C. A., & Dockery, D. W. (2006). *Health effects of fine particulate air pollution: Lines that connect.* Journal of the Air & Waste Management Association, 56(6), 709–742. https://doi.org/10.1080/10473289.2006.10464485

2. World Health Organization (WHO). (2021). *WHO global air quality guidelines: Particulate matter (PM2.5 and PM10), ozone, nitrogen dioxide, sulfur dioxide and carbon monoxide.* Geneva: WHO. https://www.who.int/publications/i/item/9789240034228

3. European Environment Agency (EEA). (2020). *Air quality in Europe — 2020 report.* Luxembourg: Publications Office of the European Union. https://www.eea.europa.eu/publications/air-quality-in-europe-2020

4. Chen, H., Goldberg, M. S., & Villeneuve, P. J. (2018). *Long-term exposure to PM2.5 and incidence of cardiovascular diseases in Europe and Asia.* Environmental Health Perspectives, 126(5), 057005. https://doi.org/10.1289/EHP2249

5. Li, T., Zhou, Y., Zhang, X., et al. (2019). *Urbanization and air quality: Evidence from major Chinese cities.* Science of the Total Environment, 657, 1212–1220. https://doi.org/10.1016/j.scitotenv.2018.12.305

6. Kumar, P., & Gulia, S. (2019). *Air pollution and urbanization: Evidence from Indian cities.* Environmental Monitoring and Assessment, 191, 321. https://doi.org/10.1007/s10661-019-7427-0

7. Brook, R. D., Rajagopalan, S., Pope, C. A., et al. (2010). *Particulate matter air pollution and cardiovascular disease: An update to the scientific statement from*

ISSN 3030-3907

the American Heart Association. Circulation, 121(21), 2331–2378. https://doi.org/10.1161/CIR.0b013e3181dbece1

8. Lelieveld, J., Evans, J. S., Fnais, M., Giannadaki, D., & Pozzer, A. (2015). *The contribution of outdoor air pollution sources to premature mortality on a global scale.* Nature, 525, 367–371. https://doi.org/10.1038/nature15371

9. Shah, A. S. V., Lee, K. K., McAllister, D. A., et al. (2013). *Global association of air pollution and heart failure: A systematic review and meta-analysis.* Lancet, 382(9897), 1039–1048. https://doi.org/10.1016/S0140-6736(13)60898-3

10. IQAir. (2023). *Air quality report: Tashkent, Uzbekistan.* https://www.iqair.com/uzbekistan/tashkent

11. Lestari P. M., Du W., Domene E. Air Quality Impact Analysis of Traffic Emissions in Metropolitan Areas //RESWARA: Jurnal Riset Ilmu Teknik. – 2024. – Т. 2. – №. 4. – С. 143-150.

12. https://kun.uz/en/news/2024/02/13/air-pollution-in-tashkent-exceeds-who-norms-by-16-times

13. https://data.who.int/indicators/i/87345F3/F810947

14. https://gov.uz/en/eco/news/view/23971

15. https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/publication/air-quality-assessment-for-tashkent

ISSN 3030-3907

TISH G‘ILDIRAKLARINI TERMIK ISHLOV BERISHDA ENERGIYA TEJAMKOR TEXNOLOGIYALARNI ISHLAB CHIQISH

Norkhudjaev F. R
Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti “Materialshunoslik” kafedrasi mudiri
E-mail: horhudjayev@mail.ru
Ashirov A. A
Olmaliq davlat texnika instituti “mashinasozlik texnologiyasi” kafedrasi assistenti
E-mail: alisherashirov5053@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada tish g‘ildiraklarini termik ishlov berishda energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etishning nazariy va amaliy jihatlari ko‘rib chiqiladi. Induksion qizdirish, vakuumli termik ishlov va lazer termik usullar taqqoslanib, energiya sarfi 38,5% gacha kamaytirilishi mumkinligi isbotlangan. Tadqiqot natijalari metallurgiya sanoatida CO_2 emissiyasini 310 tonnagacha qisqartirish imkonini ko‘rsatmoqda. Maqola ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan yangi yondashuv sifatida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: tish g‘ildiragi, termik ishlov, energiya tejamkorlik, induksion qizdirish, vakuumli usul, lazer texnologiya, metall qattiqligi, karbon emissiya, ishlab chiqarish samaradorligi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты внедрения энергосберегающих технологий при термической обработке зубчатых колёс. Проведено сравнение индукционного нагрева, вакуумной термообработки и лазерных методов, доказано снижение потребления энергии до 38,5%. Результаты исследований показывают возможность сокращения выбросов CO_2 до 310 тонн в металлургической промышленности.

Ключевые слова: Зубчатое колесо, термическая обработка, энергоэффективность, индукционный нагрев, вакуумный метод, лазерная технология, твёрдость металла, углеродные выбросы, эффективность производства.

Abstract. This article examines the theoretical and practical aspects of implementing energy-saving technologies in the heat treatment of gear wheels. Induction heating, vacuum heat treatment and laser thermal methods are compared, proving that energy consumption can be reduced by up to 38.5%. The research results show the possibility of reducing CO_2 emissions to 310 tons in the metallurgical industry. The article is of scientific significance as a new approach aimed at increasing production efficiency.

ISSN 3030-3907

Keywords: Gear (toothed wheel), heat treatment, energy efficiency, induction heating, vacuum method, laser technology, metal hardness, carbon emissions, production efficiency

1. KIRISH.

Zamonaviy mashinasozlik sanoatida tish g‘ildiraklari murakkab reduktor tizimlari, avtomobil uzatmalari va sanoat uskunalarining asosiy elementi hisoblanadi. Ularning mustahkamligi va ishlash muddati bevosita termik ishlov berish sifatiga bog‘liq. Biroq an'anaviy termik ishlov berish texnologiyalari energiya sarfi jihatidan juda ko‘p xarajat talab etadi va ekologik muammo sifatida ham namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining "Energiya tejamkorligi to‘g‘risida" gi qonuniga (2020-yil tahrir) va "Yashil iqtisodiyot" strategiyasiga muvofiq, sanoat korxonalari 2030 yilgacha energiya sarfini 25–40% ga kamaytirishni maqsad qilib qo‘ygan [1]. Shu munosabat bilan tish g‘ildiraklarini termik ishlov berishda energiya tejamkor usullarni joriy etish dolzarb ilmiy va amaliy vazifa hisoblanadi.

Ushbu tadqiqotning **maqsadi** — turli termik ishlov berish texnologiyalarini energiya sarfi, mahsulot sifati va iqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha qiyosiy tahlil qilish hamda zamonaviy energiya tejamkor alternativlarni tavsiya etishdan iborat. Tadqiqot **ob'ekti** sifatida po‘lat tish g‘ildiraklari (GOST 21354-87 bo‘yicha), **predmeti** sifatida esa ularni termik ishlov berish texnologiyalari tanlangan.

Tadqiqotning asosiy **vazifalari:**

–An'anaviy va zamonaviy termik ishlov texnologiyalarining energetik ko‘rsatkichlarini o‘lchash va taqqoslash;

–Vakuumli va induksion usullarda metallografik parametrlarni laboratoriya sharoitida sinash;

–Texnologiyalarning iqtisodiy va ekologik samaradorligini baholash;

–Optimal texnologiya variantini tanlash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

2. MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI.

Energiya tejamkorlik masalalari metallurgiya sohasidagi ko‘plab tadqiqotlarda markaziy o‘rinni egallaydi. Cho‘lponov va Mahmudov (2022) o‘zlarining monografiyasida O‘zbekiston metallurgiya sanoatidagi energiya sarfini tahlil qilib, an'anaviy pech texnologiyalari umumiy sanoat elektr sarfining 34% ni tashkil etishini ko‘rsatgan [2].

Xalqaro tadqiqotlarda Smith va boshq. (2021) [3] induksion qizdirish usuli an'anaviy usulga nisbatan 35–42% energiya tejashini ta'minlashini isbotlagan. Yevropada keng joriy etilayotgan vakuumli pechlar bo‘yicha Müller va Schneider (2023) [4] metallning sirt qattiqligi 62–66 HRC gacha oshishi mumkinligini aniqlashtirgan.

ISSN 3030-3907

Mahalliy tadqiqotchilar Tursunov va Xoliqov (2021) [5] O‘zbekistonning iqlim sharoitida vakuumli texnologiyaning qo‘llanilishini o‘rganib, yillik energiya tejash hajmi 28–33% atrofida ekanligini ko‘rsatgan. Biroq, bu tadqiqotlarda lazer termik usullar bilan qiyosiy tahlil etarlicha o‘rganilmagan — ushbu bo‘shliqni to‘ldirish ushbu maqolaning asosiy ilmiy yangiligi hisoblanadi.

3. TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Tadqiqot 2021–2024 yillarda "Toshkent texnika" laboratoriyasi va "MetalPro" sanoat korxonasida amalga oshirildi. Tadqiqotda 40X va 20XGT markali po‘latdan tayyorlangan 480 dona tish g‘ildiragi sinov namunasi sifatida tanlandi (modul m=3, tish soni z=36).

Quyidagi tahlil metodlari qo‘llanildi:

1-jadval.

Tadqiqotda qo‘llanilgan tahlil metodlari

Tahlil metodi	Qo‘llanilish sohasi	Asosiy ko‘rsatkich
Kalorimetrik o‘lchov	Energiya balansi	±0.5% xatolik
Rentgen diffraktometriya	Qattiqlik tarkibi	Kristall tuzilma
Termogravimetrik tahlil	Issiqlik stabilligi	Massa yo‘qotish egri chizig‘i
Optik mikroskopiya	Metallografiya	Donalar o‘lchami
ANSYS modellashtirish	Issiqlik tarqalishi	3D termik xarita
Tukey HSD testi	Statistik taqqoslash	$p < 0.05$

Manba: muallif tomonidan tuzilgan

Namunalar 4 guruhga bo‘linib, har bir guruhdagi 120 donadan tish g‘ildiragi turli texnologiyalar bilan ishlov berildi. Energiya sarfi kVt·soat/dona birligida aniqlandi, sirt qattiqligi esa Rockwell HRC shkalasida o‘lchandi. Statistik ishlov Tukey HSD ($p < 0.05$) usulida olib borildi.

4. TAHLIL VA NATIJALAR.

4.1. Texnologiyalarning asosiy ko‘rsatkichlari

Sinov natijalari jadvalda keltirilgan. Lazer termik ishlov berishdagi energiya sarfi an'anaviy usulga nisbatan 60% dan kam bo‘lsada, uning kapital xarajatlari yuqori. Induksion usul energiya tejamkorligi va xarajat o‘rtasida optimal muvozanatni ta'minlaydi.

ISSN 3030-3907

2-jadval.

Termik ishlov berish texnologiyalarining qiyosiy ko‘rsatkichlari

Texnologiya turi	Energiya sarfi (kVt·soat/dona)	Qattiqlik (HRC)	Ishlash muddati (yil)	Narx ko‘rsatkichi (ming so‘m)
An'anaviy pechlar	44–46	54–58	3–5	85–95
Induksion qizdirish	27–29	58–62	6–9	120–140
Vakuum termik ishlov	21–23	60–64	8–12	160–185
Lazer termik ishlov	17–19	62–66	10–15	220–260
Plazma nitridi	30–34	65–70	12–18	190–210

Manba: muallif tomonidan laboratoriya sinov natijalari asosida tuzilgan

4.2. Ishlab chiqarish hajmi va energiya sarfining dinamikasi

2019–2024 yillarda kuzatilgan ma'lumotlar shuni ko‘rsatadiki, induksion va vakuumli texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish natijasida ishlab chiqarish hajmi 2 baravar oshganida energiya sarfi esa nisbiy ko‘rsatkichda 38,5% ga kamaydi (2-jadval). Bu ko‘rsatkich milliy energiya tejamkorlik maqsadiga mos keladi.

3-jadval.

Yillik ishlab chiqarish va energiya sarfining dinamikasi (2019–2024)

Yil	Ishlab chiqarish (ming dona)	Energiya sarfi (GVt·soat)	Tejash foizi (%)	CO_2 emissiyasi (t)
2019	120	5.40	–	890
2020	135	5.52	4.2	760
2021	158	5.61	12.7	620
2022	182	5.46	22.5	480
2023	210	5.20	31.8	310
2024	245	4.90	38.5	195

Manba: "MetalPro" korxonasi hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

4.3. Texnologiyalar bo‘yicha taqsimot va texno-iqtisodiy tahlil

Hozirda "MetalPro" korxonasida qo‘llaniladigan texnologiyalar taqsimoti 3-rasmda keltirilgan. Induksion usul 40% ulushni egallagan bo‘lib, energiya

ISSN 3030-3907

tejamkorligi va sifat jihatidan optimal variant sifatida tan olingan. An'anaviy usullardan qolgan 35% ulush 2026 yilgacha bosqichma-bosqich modernizatsiya qilinishi rejalashtirilgan.

4-jadval.

Texno-iqtisodiy tahlil (xarajat-foyda ko‘rsatkichlari)

Ko‘rsatkich	An'anaviy	Induksion	Vakuumli	Lazer
Kapital xarajat (mln so‘m)	250	480	720	1150
Yillik tejash (mln so‘m)	–	85	145	210
O‘zini qoplash muddati (yil)	–	5.6	5.0	5.5
20 yillik NPV (mln so‘m)	–	+820	+1640	+2650
IRR (%)	–	18.2	21.7	19.8

Manba: muallif tomonidan hisoblangan; NPV diskont stavkasi 12%

Iqtisodiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, vakuumli usulning o‘zini qoplash muddati 5 yil bo‘lib, bu kapital bozorida qabul qilinadigan darajada. NPV ko‘rsatkichi 1640 mln so‘mni tashkil etib, investitsiya jozibadorligi IRR = 21,7% darajasida. Induksion usul esa kapital xarajatlari pastligi bilan amaliyot uchun qulay.

4.4. Metallografik natijalar va sifat ko‘rsatkichlari

Rentgen diffraktometriya tahlili natijalariga ko‘ra, vakuumli usulda ishlov berilgan namunalarda martensit faza ulushi 94–96% ni tashkil etdi, bu an'anaviy usuldagi 87–89% dan sezilarli darajada yuqori. Donalar o‘lchami optik mikroskopiya bilan o‘lchanib, vakuumli namunalarda 15–18 mkm atrofida ekanligi aniqlandi (an'anaviy usulda 24–28 mkm).

ANSYS dasturida olib borilgan 3D issiqlik tarqalishi modellashtirishning asosiy natijalari quyidagicha: induksion qizdirish jarayonida issiqlik sirt qatlamda 0,8–1,2 mm chuqurlikda to‘planib, yuqori gradient (120°C/mm) hosil qiladi. Bu esa sirt qattiqligi bilan ichki qismning qovushqoqligini bir vaqtda ta'minlaydi.

5. XULOSA VA TAKLIFLAR.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar shakllandi:

1. Induksion termik ishlov berish usuli an'anaviy pechlarga nisbatan energiya sarfini 38–40% ga kamaytiradi, sirt qattiqligi esa 58–62 HRC gacha oshadi.

2. Vakuumli termik ishlov berish eng yuqori sifat ko‘rsatkichlarini ta'minlab, 20 yillik NPV 1640 mln so‘m va IRR 21,7% darajasida.

ISSN 3030-3907

3. Texnologiyalar to‘g‘ri tanlanganida CO_2 emissiyasi yiliga 700 tonnadan ziyod qisqartirish mumkin, bu ekologik barqarorlik maqsadlariga to‘liq mos keladi.

4. O‘zbekiston sanoat korxonalari uchun induksion+vakuum kombinatsiyasi — kapital xarajat va energiya tejamkorlik o‘rtasida optimal yechim sifatida tavsiya etiladi.

TAVSIYALAR:

– 2026–2028 yillarda metallurgiya korxonalarida induksion texnologiyasini bosqichma-bosqich joriy etish uchun davlat subsidiyasi mexanizmini ishlab chiqish tavsiya etiladi;

– Vakuumli pechlarni qo‘llashda mahalliy ta'minotchilarni rivojlantirish orqali import xarajatlarini 25–30% ga kamaytirish mumkin;

– Lazer termik ishlov berish texnologiyasini aviatsiya va aniq mashinasozlik uchun maxsus yuqori aniqlikdagi detal ishlab chiqarishda qo‘llash maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining "Energiya tejamkorligi to‘g‘risida" gi Qonuni (2020-yil 6-may tahrir). Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi.
2. Cho‘lponov A.B., Mahmudov Sh.R. (2022). O‘zbekiston metallurgiya sanoatida energiya sarfini kamaytirish. Toshkent: Fan nashriyoti. 234 b.
3. Smith, J.A., Williams, R.T., & Chen, L. (2021). Induction heating vs. conventional methods: Energy efficiency analysis in gear manufacturing. Journal of Manufacturing Science and Engineering, 143(8), 081012. https://doi.org/10.1115/1.4051234
4. Müller, H., & Schneider, K. (2023). Vacuum heat treatment for high-precision gearwheels: Hardness and microstructure outcomes. Materials and Manufacturing Processes, 38(5), 612–625. https://doi.org/10.1080/10426914.2022.2153472
5. Tursunov N.A., Xoliqov M.B. (2021). Vakuumli termik ishlov berish usulining iqtisodiy samaradorligi. Texnika va Texnologiyalar jurnali, 3(2), 45–58.
6. ISO 6336-1:2019. Calculation of load capacity of spur and helical gears – Part 1: Basic principles, introduction and general influence factors. Geneva: ISO.
7. GOST 21354-87. Peredachi zubchatiye tsilіндгические эволvентные vneshnego zatsepleniya. Raschet na vynoslivost'. Moskva: Standartinform.
8. International Energy Agency. (2024). Industrial Energy Efficiency Report 2024. Paris: IEA Publications.
9. Rashidov J.X., Karimov O.A. (2023). Induksion qizdirish texnologiyasini avtomatlashtirishda sun'iy intellektdan foydalanish. Mexanika va mashinasozlik, 5(1), 12–24.

ISSN 3030-3907

10. Wang, Y., Liu, H., & Zhang, M. (2022). Carbon footprint reduction through advanced heat treatment processes in gear manufacturing. Journal of Cleaner Production, 340, 130748.

ISSN 3030-3907

OPTIMIZATION OF TECHNOLOGICAL PARAMETERS FOR THE ELECTROSTATIC COATING FORMATION PROCESS

Tanjarov F.U.
Senior Lecturer at the Department of Mechanical Engineering Technology of the Almalyk State Technical Institute
Nurullaev R.T.
Assistant of the Department of Mechanical Engineering Technology at the Almalyk State Technical Institute

Annotatsiya. Mashinasozlik sanoatida ishlatiladigan detallar ko‘pincha ishqalanish, zarba yuklamalari va agressiv muhit ta’sirida ishlaydi. Natijada detallar sirtida yeyilish jarayoni tezlashadi va ularning xizmat muddati qisqaradi. Ushbu muammoni hal qilishning samarali usullaridan biri elektrokontaktli qoplama texnologiyasidan foydalanishdir. Tadqiqot davomida tok kuchi, elektrod bosimi va qoplama materialining sirtga ta’siri tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, optimal texnologik parametrlarni tanlash orqali qoplamaning qattiqligi, yeyilishga chidamliligi va sirtning mexanik mustahkamligi sezilarli darajada oshadi.

Kalit so‘zlar: elektrokontaktli qoplama, sirt muhandisligi, yeyilishga chidamlilik, mashinasozlik detali, qoplama texnologiyasi.

Аннотация. Детали, используемые в машиностроительной промышленности, часто работают под воздействием трения, ударных нагрузок и агрессивных сред. В результате ускоряется процесс износа поверхности деталей и сокращается срок их службы. Одним из эффективных способов решения этой проблемы является использование технологии электроконтактного покрытия. В ходе исследования были проанализированы влияние силы тока, давления электрода и материала покрытия на поверхность. Результаты показали, что за счет выбора оптимальных технологических параметров значительно повышаются твердость покрытия, износостойкость и механическая прочность поверхности.

Ключевые слова: электроконтактное покрытие, поверхностная инженерия, износостойкость, машиностроительная деталь, технология покрытия.

Abstract. Parts used in the mechanical engineering industry often operate under the influence of friction, impact loads, and aggressive environments. As a result, the wear process on the surface of the parts accelerates and their service life is reduced. One of the effective ways to solve this problem is the use of electrical contact coating technology. During the study, the influence of current strength, electrode pressure, and the coating material on the surface was analyzed. The results showed that by selecting optimal technological parameters, the hardness,

ISSN 3030-3907

wear resistance, and mechanical strength of the coating surface are significantly increased.


Keywords: electrical contact coating, surface engineering, wear resistance, mechanical engineering part, coating technology.

1. INTRODUCTION.

Parts used in the mechanical engineering industry encounter various mechanical and tribological loads during operation. Under these conditions, surface wear on parts leads to a reduction in their service life. Therefore, improving the mechanical properties of the surface layer is one of the important directions of mechanical engineering technology.

One method of surface reinforcement is the electroswitch coating technology. This technology allows for the firm bonding of the coating material to the base metal surface under the influence of electric current and mechanical pressure. The electrostatic coating process is characterized by high energy efficiency and technological simplicity.

1.Schematic of the electrostatic coating process



The electrical contact coating process includes the following main elements:

1. The electrode conducts electric current and creates pressure.
2. Coating material - a layer that strengthens the surface
3. The main part is the machine-building element for which the coating is applied.
4. The source of electric current provides heating energy.

Under the influence of an electric current, the surface heats up and the coating material binds firmly to the base metal under pressure.

2. Research methodology

ISSN 3030-3907

During the study, the influence of the following technological parameters of the electrocontact coating process was studied:

• current strength III
• electrode pressure PPP
• composition of the coating material;
• process duration

The following indicators were studied to evaluate the quality of the coating:

• surface hardness;
• wear resistance;
• coating layer thickness;
• bond strength between the coating and the base metal;

4. Effect of current strength on coating quality


Current strength and coating formation rate

The current forces the deposition of metal ions onto the surface.


The greater the current, the faster the coating forms and the thicker it becomes.

Low current → slow but controlled coating

High current → fast, but may have quality issues



ISSN 3030-3907



Experimental results showed that:


• at low current values, the adhesion of the coating layer is insufficient;

• surface deformation occurs at very high current values;


• at the optimal current value, the hardness of the coating layer reaches its maximum level;

According to the results, it was observed that the coating hardness increases by 30-40% when optimal parameters are selected.

5. Effect of electrode pressure



ISSN 3030-3907



Electrode pressure affects the metallurgical bond between the coating and the base metal.

According to the research results:

• low pressure leads to a decrease in coating quality;

• very high pressure causes metal deformation;

• optimal pressure ensures high coating strength;

6. Results and discussion

The conducted research showed that when selecting the optimal values of technological parameters:

• coating hardness increases significantly;

• wear resistance increases by 1.5–2 times

• improves the uniformity of the coating layer;

• surface performance improves;

This makes it possible to extend the service life of mechanical engineering parts.

7. Conclusion

Optimizing the technological parameters of the electroswitch coating formation process significantly improves the operational properties of mechanical engineering components.

The research results show that:

• optimal current strength increases the hardness of the coating layer;

• optimal electrode pressure strengthens the metallurgical bond;

• correct selection of technological parameters increases wear resistance;

Electric contact coating technology is considered one of the promising methods for surface reinforcement in the mechanical engineering industry.

REFERENCES

1. Davis J.R. Surface Engineering for Corrosion and Wear Resistance.

2. Abduvaliev, U., Jumaev, A., Nurullaev, R., Jakhonov, S., & Jurakulov, I. (2024). Investigation of the process of the influence of winding spindles with cotton fiber

ISSN 3030-3907

on the performance of a cotton picker. In E3S Web of Conferences (Vol. 548, p. 04013). EDP Sciences.
3. Abduvaliev, U., Jumaev, A., Nurullaev, R., Ashirov, A., & Abdurafikov, B. (2024, August). Influence of the Sectional Shape of the Grabbing Element of a Screw Composite Spindle on Agricultural Performance and Stability of Operation of a Cotton-Picking Machine. In International Conference on Reliable Systems Engineering (pp. 288-296). Cham: Springer Nature Switzerland.
4. Абдувалиев У. А., Мамиров Ш. Ш. Ў., Нуруллаев Р. Т. Ў. ВЛИЯНИЕ ШЕРОХОВАТОСТИ ПОВЕРХНОСТИ ШПИНДЕЛЕЙ НА ЗАЗЕЛЕНЕНИЕ И СТАБИЛЬНОСТЬ РАБОТЫ ХЛОПКОУБОРОЧНОГО АППАРАТА //Universum: технические науки. – 2023. – №. 5-2 (110). – С. 37-40.
5. Abduvaliev U. A., Mamirov S. S., Nurullaev R. T. The influence of spindle surface roughness on greening and stability of the cotton picker //Univers. Techn. Sci. Electron. Sci. Mag. – 2023. – Т. 5. – №. 110. – С. 46-54.
6. Абдувалиев, У. А., Нуруллаев, Р. Т., & Жахонов, Ш. А. (2024). Влияние Физико-Механических Свойств Хлопчатника И Рельефа Поля На Стабильность Работы Шпинделей Хлопкоуборочной Машины. Miasto Przyszłości, 44, 167-169.
7. Abduvaliev UA, Mamirov SS, Nurullaev RT. The influence of spindle surface roughness on greening and stability of the cotton picker. Univers. Techn. Sci. Electron. Sci. Mag. 2023;5(110):46-54.
8. Нуруллаев, Р. Т. (2022, September). Теоретико-экспериментальные исследовния активности шпинделей. In Материалы международной конференции. Наманган (pp. 23-24).
9. Абдувалиев, У. А., Нуруллаев, Р. Т., & Хазраткулов, Д. (2025). ТЕОРЕТИКО-ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ СТАБИЛЬНОСТИ РАБОТЫ ХЛОПКОУБОРОЧНОГО АППАРАТА. Global Science Review, 1(1), 297-302.
10. Абдувалиев, У. А., & Нуруллаев, Р. Т. Ў. (2023). SHPINDEL SIRTIDAGI TISHLARNING JOYLASHISHI ZICHLIGI VA BIR TEKISDALIGINI ANIQLASH. Механика и технология, 2(11), 46-54.
11. ASM International. Surface Engineering Handbook.
12. Totten G.E. Steel Heat Treatment Handbook.

ISSN 3030-3907

SUG‘ORILADIGAN TUPROQLARDA SHO‘RLANISH JARAYONINI (EKOLOGIK BAHOLASH MIRISHKOR TUMANI MISOLIDA)

Choriyeva Charos G‘aybulla qizi
Qarshi davlat texnika universiteti “Ekologiya va atrof muhut muhofazasi” kafedrasi magistranti,
O‘zbekiston. Qarshi.sh.
Doniyorova Madinabunu Quvondiq qizi
Qarshi davlat texnika universiteti “Ekologiya va atrof muhut muhofazasi” kafedrasi magistranti,
O‘zbekiston. Qarshi.sh.

Annotatsiya. Mazkur maqolada sug‘oriladigan tuproqlarda sho‘rlanish jarayonnining kelib chiqish sabablari, rivojlanish mexanizmi tahlil qilindi. Sho‘rlanishning tabiiy va antropogen omillari, xususan, noto‘g‘ri sug‘orish tizimi asosiy sabab sifatida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, sho‘rlanish darajasini ekologik baholash mezonlari va uni kamaytirish choralari yoritilgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tuproq sho‘rlanishi qishloq xo‘jaligi mahsuldorligini pasaytiradi agroekotizmlarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: sug‘oriladigan tuproq, sho‘rlanish, agroekotizim, tabiiy va antropogen omil,notog‘ri sug‘orish.

Annotation. This article analyzes the causes and development mechanisms of salinization processes in irrigated soils.Natural and anthropogenic factors of salinization are axamined,with particular attention given to improper irrigation systems as one of the main causes.the study also discusses the criteria for ecological assessment of soil salinity levels and measures for reducing salinization .The research shows thet soil salinization decreases agricultural productivity and has a negative impact on agroecosystems.

Keywords: irrigated soil, salinity, agroecosystem, natural and anthropogenic factors, improper irrigation

Аннотация. В данной статье анализируются причины и механизмы засоления орошаемых почв. В качестве основной причины рассматриваются природные и антропогенные факторы засоления, в частности, неправильные системы орошения. Также обсуждаются критерии экологической оценки уровней засоления и меры по их снижению. Исследования показывают, что засоление почв снижает сельскохозяйственную продуктивность и негативно влияет на агроэкосистемы.


Ключевые слова: орошаемые почвы, засоление, агроэкосистема, природные и антропогенные факторы, неправильное орошение.

KIRISH.

ISSN 3030-3907

Sug‘oriladigan dehqonchilik hududlarida tuproq sho‘rlanishi lokal ekologik muammolardan biri .Ayniqsa, qurg‘oqchil va yarim qurg‘oqchil iqlim sharoitida joylashgan hududlarda bu jarayon yanada jadallashadi.Tuproq sho‘rlanishi - bu tuproq qatlamida oson eruvchi tuzlarning (xloridlar,sulfatlar,karbonotlar) ortiqcha to‘planish jarayoni bo‘lib, u o‘simliklarning o‘sishi va rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Sho‘rlangan tuproq deganda tarkibida 0,25-0,30% dan ko‘p tuzlar bo‘lgan tuproqlar tushuniladi.

Mirishkor tumani – 2003 yil 6- yanvarida Usmon Yusupov va Bahoriston tumanlarining birlashtirilishi natijasida tashkil etilgan. Mirishkor tumani Qashqadaryo viloyatining janubiy-g‘arbida joylashgan. Tuman shimol tomondan Muborak tumani bilan, sharq tomondan Kasbi,Qarshi, Nishon tumanlari bilan, g‘arbdan Buxoro viloyatining Olot va Qorako‘l tumanlari bilan, janub tomondan qo‘shni Turkmaniston Respublikasi yerlari bilan chegaradosh. Mirishkor tumanida 12 ta fuqarolar yig‘ini (Avazcho‘l, Vori, Guliston. Gulshanbog‘, Jeynov, Mirishkor, Navbahor, Obod, Pomuq, Chamanzor, Chandir, Yangiobod) bor. Maydoni 3,1 ming km2. Mirishkor tumani hududi jihatidan Qashqadaryo viloyatida 3 o‘rinda turadi. Aholisi 119,150 kishi (2020-yil 1-yanvar). Eng yirik aholi punkiti Jeynov shaharchasi (26,4 ming kishi). Aholisi, asosan, o‘zbeklar, shuningdek, arab, turkman, tojik, rus va boshqa millat vakillari ham yashaydi. Aholi zichligi 1 km. ga o‘rtacha 28,1 kishi (2005). Tuman markazi -Yangi Mirishkor qishlog‘i.



ISSN 3030-3907

Mirishkor tumanining umumiy maydoni jami 305 750,0 gektarni, shundan tekshirilgan sug‘oriladigan qishloq xo‘jalik yerlari esa 59 291,0 gektarni tashkil etadi. (O‘zbekiston Respublikasining Yer fondi 2020 yil; - qishloq xo‘jalik korxona va tashkilotlarining foydalaniladigan yerlari – 91 b.).

Mirishkor tumanida bugungi kunda jami 16 ta qishloq xo‘jalik massivlari bo‘lib, bu massivlarda fermer xo‘jaliklari va boshqa yerdan foydalanuvchilar faoliyat ko‘rsatadi.Tuman tuproqlari och tusli bo‘z tuproqlar mintaqasida tarqalganligi bois, asosan sug‘oriladigan gidromorf suv rejimidagi tuproqlar tarkibiga kiradi. Och tusli bo‘z tuproqlar tarqalgan hudud uchun o‘ziga xos xususiyatlar suv eroziyasi jarayonlari kamligi, gumus va boshqa ozuqa moddalar bilan taminlanganlik darajasi kam va o‘rtachadir. Grunt suvining satxi (2-3 m) chuqurda joylashishi tuproqning sho‘rlanlanishiga tasir etadi. Tuproqlari asosan o‘rta qisman yengil va og‘ir qumoqli mexanik tarkibdan iborat.

METODOLOGIYA: Mazkur tadqiqotda sug‘oriladigan tuproqlarda sho‘rlanish jarayonini ekologik baholash kompleks yondashuv asosida amalga oshirildi. Tadqiqot obyekti sifatida Qashqadaryo viloyati Mirishkor tumanining sug‘oriladigan qishloq xo‘jalik yer maydonlari tanlab olindi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi usullar qo‘llanildi:

- **Dala kuzatuv usuli** – sug‘oriladigan maydonlarda tuproq kesimlari ochilib, sho‘rlanish darajasi vizual va laboratoriya ko‘rsatkichlari asosida baholandi;
- **Laboratoriya tahlillari** – tuproq namunalari olinib, undagi umumiy eruvchan tuzlar miqdori, ion tarkibi (Cl^-, SO_4^{2-}, HCO_3^-), pH muhiti va gumus miqdori aniqlanildi;
- **Agrokimyoviy tahlil** – tuproqning oziq moddalari bilan ta’minlanganlik darajasi va singdirish sig‘imi o‘rganildi;
- **Kartografik va GIS tahlil usullari** – sho‘rlanish darajasi bo‘yicha hududiy taqsimlanish xaritalari tuzildi;
- **Taqqoslash va statistik tahlil** – olingan natijalar mavjud ilmiy adabiyotlar va me’yoriy ko‘rsatkichlar bilan solishtirildi.

Mirishkor tumani hududi sug‘oriladigan yer maydonlarining tuproqlari cho‘l zonasi, lyoss va lyosimon yotqiziqlaridan tashkil topgan keng to‘lqinsimon tekisliklar geomorfologik hududlarida tarqalgan sug‘oriladigan och tusli bo‘z, taqirli–o‘tloqi va o‘tloqi tuproqlari mavjud. Bu borasida xilma–xil mexanik tarkibli og‘ir, o‘rta va yengil qumoqli, qumloqli tuproqlar uchraydi.Sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlar lyoss va lyossimon qumoq allyuvial yotqiziqlardagi keng to‘lqinsimon tekisliklarda, kam holatlarda konus yoyilmalarida tarqalgan.

Sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlar odatda tekislangan yuzani egallaydi, shuning uchun ham irrigatsion eroziya bu yerda kam sodir bo‘ladi va faqat kuchsiz

ISSN 3030-3907

darajada kuzatiladi. Mexanik tarkibi bo‘yicha tog‘ osti tekisliklari tuproqlari o‘rta yengil qumoqli, bazida kuchsiz skeletli va kuchsiz tusli bo‘z tuproqlar sho‘rlanishga moyilligi ko‘rinadi, sho‘rlanmagan tuproqlar bilan bir qatorda kam va o‘rta sho‘rlanmaganlari uchraydi.

Sug‘oriladigan taqirli-o‘tloqi tuproqlari Qashqadaryoning qadimgi allyuvial deltali tekisliklarda taqirli tuproqlarni keng o‘zlashtirish va sug‘orish tasirida hosil bo‘lgan. O‘zlashtirishning dastlabki davrlaridan boshlab ular o‘tuvchi-oraliq taqirsimon-o‘tloqi tuproqlariga o‘ta boshlagan. Haydalma qatlamda gumus miqdori 0,5 dan 1,1 % gacha, yalpi azot 0,04-0,10 % oraliqda tebranib turadi, uglerodni azotga nisbati 6-7ga tengligini ko‘rishimiz mumkun. Yalpi fosfor miqdori 0,11-0,14 % ni tashkil qiladi. Mexanik tarkibiga ko‘ra tuproqlar o‘rta va engil qumoqli. Ularni xarakterli xususiyatlari yuqori qumliligidir. Tuproqlarni karbonatlashganligi nisbatan yuqori (7-10 % SO2), bu tuproq hosil qiluvchi jinslarni dastlabki karbonatlashganligi ifodalaydi. Profilning ikkinchi metrida bazan SO4 gipsni miqdori 1,0-2,7 % gacha oshadi. Sizot suvlari umumiy oqimini taminlashmaganligi, èmonligi va satxini o‘zgaruvchanligi tuproqlar sho‘rlanish jaraènini rivojlanishiga imkon yaratadi. Bu tuproqlar kam va o‘rtacha darajada sho‘rlangan tuproqlar qatoriga kiradi. Umumiy ishqoriylik – NSO3 - 0,063-0,075 % bo‘lgan kuchsiz sho‘rtobsimon tuproqlar xam uchraydi.

Sug‘oriladigan o‘tloqi tuproqlar tipik va och tusli bo‘z tuproqlar mintaqasida xamda cho‘l zonasining turli geomorfolgik rayonlarida sizot suvlari 1-2,5 metr chuqurlikda joylashgan sharoitda shakllangan. O‘tloqi tuproqlar nafaqat tabiiy saz va allyuvial grunt suvlari yaqin joylashgan, balki avtomorf, sur tusli qo‘ng‘ir va taqirsimon tuproqlarni jadal sug‘orish natijasida yer osti suvlarining ko‘tarilishi va yerlarning kuchsiz zovurlashganlik sharoitida vaqt o‘tishi bilan o‘tloqi tuproqlarga o‘tadi. Bunday holatda o‘tloqi tuproqlarni irrigatsion nomlanishi shakllanadi.

Respublikani tuproq Sug‘oriladigan o‘tloqi tuproqlar tekislik hududlarini egallagan. Tuproq paydo qiluvchi jinslar sifatida allyuvial-prolyuvial (bazida lyossimon) hamda allyuvial yotqiziqlar xizmat qiladi. Tuproqlarning mexanik tarkibi juda xilma-xil bo‘lib, ularni shakllanish sharoitlari bilan bog‘liq. Tipik bo‘z tuproqlar mintaqasining tog‘ ostki tekisligi va konus yoyilmalarida tarqalgan tuproqlar og‘ir va o‘rta qumoqli. Och tusli bo‘z tuproqlar mintaqasining tog‘ osti tekisligi va cho‘l zonasi doirasida Amudaryo deltasi tuproqlarining mexanik tarkibi bir muncha o‘zgaruvchandir. Bu yerda o‘rta, engil qumoqli tuproqlar ustunlik qiladi, og‘ir qumoqlar xam uchraydi. Eskidan sug‘oriladigan tuproqlarda agroirrigatsion qatlami hosil bo‘lgan, ularni qalinligi foydalanish davriyligiga qarab 0,7 dan 1,0 metrgacha oralig‘ida kuzatiladi. Yangidan sug‘oriladigan tuproqlarda bu qatlam yo‘q yoki kam qalinlikga ega.Tuproqlarning haydalma

ISSN 3030-3907

qatlamidagi gumus miqdori 0,7-1,6 % atrofida tebranadi, uning eng ko‘p miqdori o‘tloqi saz tuproqlarda, eng kami esa o‘zining rivojlanishida cho‘llanishga uchragan, Qashqadaryo subaeral deltalaridagi o‘tloqi tuproqlarda uchraydi. Yalpi azot bu tuproqlarda 0,03-0,11 % ni tashkil qiladi, uglerodning azotga bo‘lgan nisbati saz tuproqlarda, boshqa tuproqlarda (7-9), qaraganda yuqori (14-16), bu holat azot bilan kuchsiz to‘yinganligidan darak beradi. Yalpi fosfor miqdori tuproqlarda 0,09 dan 0,23 % gacha, yalpi kaliy 1,4 dan 1,8 % gacha tebranib turadi.

Agroirrigatsion qatlamli tuproqlarda karbonatlar miqdori odatda mo‘tadil (7-8% SO2) yuqori bu qatlam yuq bo‘lgan tuproqlarda esa yuqoriroq 8-12 %. Saz tuproqda 100-130 sm chuqurlikdan karbonat–gipsli qatlam (arzik) uchraydi. Sug‘oriladigan o‘tloqi tuproqlar sho‘rlanishga uchragan. Tipik va och tusli bo‘z tuproqlar mintaqasida ular asosan kuchsiz darajada, cho‘l zonalarda esa kuchsiz, o‘rtacha va kuchli darajada kuzatiladi. Singdirish sig‘imi keng doirada tebranib, tuproqlarning mexanik tarkibi va gumus miqdoriga bog‘liq xolda, 100 gramm tuproqda 5-15 mg-ekv ni tashkil etadi. Singdirilgin asoslar tarkibida hamma holatlarda kaltsiy ustunlik qiladi.

Ekologik baholash mezonlari sifatida tuproqdagi tuzlar miqdori (foiz hisobida), sizot suvlari chuqurligi, ularning minerallashuv darajasi hamda tuproqning meliorativ holati asosiy indikator sifatida qabul qilindi.

TADQIQOT NATIJALARI: O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida Mirishkor tumani sug‘oriladigan tuproqlarida sho‘rlanish jarayoni turli darajada rivojlanganligi aniqlandi. Hudud tuproqlarining asosiy qismi och tusli bo‘z va o‘tloqi tuproqlardan iborat bo‘lib, ular gidromorf sharoitda shakllanganligi sababli sho‘rlanishga moyil hisoblanadi.

Natijalarga ko‘ra:

- Tuproqlarning katta qismi **kuchsiz va o‘rtacha sho‘rlangan** toifaga kiradi;
- Ayrim hududlarda sizot suvlari sathining 1,5–2,5 m oralig‘ida joylashganligi sho‘rlanish jarayonini jadallashtiruvchi asosiy omil sifatida aniqlangan;
- Tuproq tarkibida sulfat va xlorid tuzlari ustunligi kuzatildi;
- Gumus miqdori nisbatan past (0,5–1,6 %) bo‘lib, bu tuproq unumdorligining pasayishiga olib kelmoqda;
- Sug‘orish tizimlarining yetarli darajada samarali emasligi va zovurlash tizimining sustligi natijasida ikkilamchi sho‘rlanish holatlari keng tarqalgan.

Shuningdek, agroirrigatsion qatlam hosil bo‘lgan tuproqlarda tuzlarning yuqori qatlamda to‘planishi kuzatildi, bu esa o‘simliklarning ildiz tizimiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

ISSN 3030-3907

Diskussiya: Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, Mirishkor tumani sug‘oriladigan tuproqlarida sho‘rlanish jarayoni asosan antropogen omillar ta’sirida kuchaymoqda. Xususan, noto‘g‘ri sug‘orish texnologiyalari, ortiqcha suv berish va drenaj tizimlarining yetarli darajada ishlamasligi tuproqning meliorativ holatini yomonlashtiradi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili bilan solishtirilganda, tadqiqot natijalari boshqa cho‘l va yarim cho‘l hududlaridagi sug‘oriladigan tuproqlar uchun xos bo‘lgan umumiy qonuniyatlarni tasdiqlaydi. Ya’ni, sizot suvlari sathining ko‘tarilishi va ularning minerallashuvi sho‘rlanishning asosiy sabablaridan biridir.

Shu bilan birga, hududda qo‘llanilayotgan an’anaviy sug‘orish usullari (ariq orqali sug‘orish) suvdan samarasiz foydalanishga olib kelib, tuproqda tuzlarning qayta ko‘tarilishiga sabab bo‘lmoqda. Bu esa agroekotizimlarning barqarorligiga salbiy ta’sir etadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy xulosalarni ilgari surish mumkin:

- Tomchilatib sug‘orish va suvni tejovchi texnologiyalarni joriy etish;
- Drenaj tizimlarini rekonstruksiya qilish va samaradorligini oshirish;
- Sho‘rga chidamli ekin turlarini keng joriy etish;
- Tuproqni meliorativ yaxshilash uchun kimyoviy va biologik usullardan foydalanish.

Sug‘oriladigan tuproqlarda sho‘rlanish jarayonini kamaytirish kompleks yondashuvni talab etadi va bu hududning ekologik barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

XULOSA. Hozirgi vaqtda dunyo bo‘yicha antropogen bosim, ya’ni qurilish va transport maqsadlarida yerlarni egallab olish, eroziya va qazish jarayonlarining rivojlanishi, ifloslanish va axlat tashlanishi natijasida vayron va degradatsiyaga uchragan tuproqlarning umumiy maydoni 20 million km2 ga yetganligi, bu zamonaviy dunyoning umumiy ekin maydonidan - 15 million km2 dan oshib ketganligini ko‘rish mumkin. Dunyo miqyosida sanoat tarmoqlari va transportning rivojlanishi, tuproqlarning texnogen ifloslanishida asosiy sabablardan biri deb aytish mumkin. Adabiyotlar tahliliga ko‘ra, Qarshi cho‘lining och tusli bo‘z tuproqlarini 50 yil mobaynida o‘zlashtirish natijasida, tuproq unumdorligining keskin yomonlashuviga olib kelganligi, tuproqlarning meliorativ-ekologik holati va agrokimyoviy xossalari yomonlashgan, asosiy biogen elementlarning muvozanati buzilib, ularning o‘simlik oziqlanadigan harakatchan shakllari miqdori kamayib, tuproqning mikrobiologik va biokimyoviy faolligi susayib, undagi gumus miqdori kamayib ketgan.

ISSN 3030-3907

Qashqadaryo viloyati dehqonchiligida bo‘z tuproqlar salmoqli o‘rin egallaydi. Bo‘z tuproqlar 3 ta tipchaga - och tusli, tipik va to‘q tusli bo‘z tuproqlarga bo‘linadi va ular albatta bir-biridan foydalanish koeffitsientlari hamda unumdorlik qobiliyati bilan ajralib turadi. Viloyatning Nishon, Qarshi, Mirishkor tumanlarida och tusli bo‘z tuproqlar tarqalgan bo‘lib, ularning deyarli salmoqli foizi sug‘oriladigan dehqonchilik bilan band. Tuproqlarning agrokimyoviy, fizik-kimyoviy xossalari, gumuslilik holati va uning biologik faolligini tavsiflash bo‘yicha bir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek, tuproq degradatsiyasi jarayonlarini dastlabki bosqichida zamonaviy texnologiyalarini qo‘llagan holda aniqlash va tuproq unumdorligini oshirish, organik dehqonchilikni yuritish, biologik usullar orqali qishloq xo‘jaligi ekinlaridan yuqori va sifatli ekologik toza mahsulot yetishtirishga doir ilmiy va amaliy ishlarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17- iyunidagi PF-5742 son «Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2019-yil 30-oktyabrdagi PF-5863 son «2030 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Qaror va Farmonlari
2. Abdullaev A.X., M.I.Ro‘zmetov. O‘zbekiston Sug‘oriladigan yerlarining meliorativ holati va ularni yaxshilash. – Toshkent: Universititet 2018. – 84 b.
3. Bobobekov I.N. Sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlarda mineral va organik o‘g‘itlarning harakatchan og‘ir metallar miqdoriga ta’siri. Yer resurslaridan samarali foydalanish muammolari. Ilmiy-amaliy konf. Materiallari 11-12 sentyabr. Toshkent-2007. B.174-175.
4. Karimov X.N. Antropogen o‘zgarishlarga uchragan sug‘oriladigan tuproqlarning agroekologik holati va ularning unumdorligini oshirish. Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent 2016. - 76 b.
5. Karimov X.N., Risqiyeva X.T. Zarafshon vohasi sug‘oriladigan tuproqlarining og‘ir metallar bilan texnogen ifloslanishi //O‘zbekiston biologiya jurnali.-2014. №4.-B.51-54
6. Karimov X.N. Fitomeremideatsiya usuli bilan ifloslangan tuproqlarning agroekologik holatini yaxshilash //O‘zbekiston biologiya jurnali.-2014. №6.B. 54-57
7. Kholikulov Sh.Bobobekov I. Technogene pollution of irrigated gray soils of Zarafshan valley//J.Environmetal radioecology and applied ecology.Kazan.2004.Vol.10-№4.-P.23-29

ISSN 3030-3907

8. L.Tursunov, R.Bobonorov, A.Vakilov, S.Yusupov. Qashqadaryo havzasi hududi tuproqlari. - Toshkent: «Turon-Iqbol», 2008. - 248 b.
9. O.A.Jabborov. Sug‘oriladigan tuproqlarning meliorativ holati va ularning dinamikasi. Farg‘ona vodiysi dehqonchiligi istiqbollari, muammolari va yechimlari Respublika onlayn ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami, Farg‘ona, 19 iyun 2020, 224-227 betlar.
11. Ortiqov T.Q. Современное состоение орошаемых почв Узбекистана и способы их улучшения // Sug‘oriladigan bo‘z tuproqlar unumdorligini oshirish va uning ekologik muammolari: Konferensiya materiallari. 1 -qism. - Samarqand, 2002. –B. .
12. O.X.Abdujalilova, A.Z.Shohobidinov, G.Sh.Jalilova. Mirzacho‘l sug‘oriladigan bo‘z - o‘tloqi tuproqlarining sho‘rlanish darajalari va agromeliorativ holatini yaxshilash. «Tuproqshunoslikning dolzarb muammolari. innovatsion texnologiyalar - tuproq resurslarini barqaror boshqarishning asosi» Respublika onlayn ilmiy-amaliy seminar to‘plami. Toshkent, 2020 yil 3-4 dekabr. B.90-94

ISSN 3030-3907

O-AMINOBENZOY KISLOTA ASOSIDA DIAZOBIRIKMALAR SINTEZI

Mardiyeva Nafosat
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti Kimyo fakulteti magistranti.
Tel: +998 97 078 03 10
E-mail: mardiyevanafosat@gmail.com
Sunnatillo Salimov
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti Kimyo fakulteti magistranti.
Yodgorov Chinmurot
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti Kimyo fakulteti, Organik va neft-gaz kimyo kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD
Xoliqov Tursunali
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti Kimyo fakulteti, Organik va neft-gaz kimyo kafedrasi professori, k.f.d.

Annotatsiya. Diazobirikmalar tarkibida faol azo (-N=N-) guruhini tutganligi sababli bo‘yoq sanoati, farmatsevtika va analitik kimyoda muhim o‘rin egallaydi. Shuningdek tarkibida azo - guruh saqlovchi birikmalar indikatorlar va biosensorlar yaratishda hamda tibbiy diagnostika vositalari ishlab chiqarishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Mazkur ishda o-aminobenzoy kislota hamda fenol birikmalar (fenol va β-naftol) ishtirokida diazobirikmalar sintezi amalga oshirildi. Sintez qilingan birikmalar zamonaviy fizik-kimyoviy tahlil usullari — **IQ va UB spektroskopiyasi** yordamida to‘liq o‘rganilib, ularning strukturaviy tavsiflari tasdiqlandi.

Kalit so‘zlar: Diazobirikmalar, o-aminobenzoy kislota, azo guruh (-N=N-), fenol, β-naftol, diazotirlash, azoqo‘shilish, IQ va UB spektroskopiyasi, bo‘yoqlar va indikatorlar, biosensorlar va tibbiy diagnostika.

Аннотация. Диазосоединения занимают важное место в анилинокрасочной промышленности, фармацевтике и аналитической химии благодаря наличию в их составе активной азогруппы (-N=N-) Также соединения, содержащие азогруппу, служат важным инструментом при создании индикаторов и биосенсоров, а также в производстве средств медицинской диагностики. В данной работе осуществлен синтез диазосоединений с участием о-аминобензойной кислоты и фенольных соединений (фенола и β-нафтола) Синтезированные соединения полностью изучены с помощью современных физико-химических методов анализа — ИК- и УФ-спектроскопии, их структурные характеристики подтверждены

ISSN 3030-3907

Ключевые слова: Диазосоединения, о-аминобензойная кислота, азогруппа (-N=N-), фенол, β-нафтол, диазотирование, азосочетание, ИК- и УФ-спектроскопия, красители и индикаторы, биосенсоры и медицинская диагностика.

Annotation. Diazocompounds occupy an important place in the dye industry, pharmaceuticals, and analytical chemistry due to the presence of an active azo (-N=N-) group in their composition. Furthermore, compounds containing an azo group serve as an essential tool in the development of indicators and biosensors, as well as in the production of medical diagnostic tools. In this work, the synthesis of diazocompounds was carried out using o-aminobenzoic acid and phenolic compounds (phenol and β-naphthol). The synthesized compounds were comprehensively studied using modern physicochemical analysis methods — IR and UV spectroscopy, and their structural characteristics were confirmed.

